



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2026, № 2

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV
Zulfizar KARIMOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Ziyo ko'chasi,
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **I.Ibraimov**
Ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya doirasidagi samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini uzluksiz tashkil etish masalalari
- 8 **R.X.Djurayev**
Eshitishida nuqsoni mavjud o'quvchilarni inkluziv muhitda qo'llab-quvvatlash va moshlashtirish yo'llari
- 12 **O.Musurmonova**
Uchinchi shaxs aralashuvining madaniy va ijtimoiy mexanizmlari
- 26 **A.A.Abdurashidov**
Uzluksiz ta'limda ota-onalar hamkorligi
- 31 **H.F.Ga'iyuchenko**
Роль искусственного интеллекта в развитии научно-творческого мышления музыковеда в системе непрерывного образования
- 35 **D.O.Raxmonova**
Bo'lajak mutaxassislarning sog'lom turmush madaniyyatini tarbiyalashning pedagogik mazmuni
- 41 **F.S.Shomuradov**
O'quvchilarning kimyo fanidan kompetensiyalarini baholashda portfoliyoga asoslangan yondasuvdan foydalanish
- 46 **L.G.Xalmuratova**
Kreativ potentsionalni baholashning zamonaviy mezonlari: uzluksiz ta'lim tizimi misolida
- 52 **J.Ro'zimatov**
Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda tabiiy savodxonlikni rivojlantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari
- 58 **Sh.I.Jabbarova**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga qiziqishni shakllantirish asosida tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishning pedagogik omillari
- 64 **N.DJ.Yadgarov**
Talabalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish asosida ijodiy faoliyatini rivojlantirish
- 69 **S.Xolmurodov**
7-8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 75 **M.T.Umaraliev**
Sun'iy intellekt asosida biologik savodxonlikni rivojlantirish
- 82 **S.A.Navruzova**
Uzluksiz ta'lim tizimida zoologiya fanini raqamli ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish

MA'NAVIY TARBIYA

- 86 **A.J.Kamolov**
Oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari hamkorligida o'qituvchi nufuzini shakllantirishning pedagogik modeli
- 90 **D.I.Xodjakulova**
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagog-o'qituvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish
- 95 **J.Begjonov**
Oliy o'quv yurti talabalarining estetik didini tarbiyalashda milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari
- 98 **S.Abdulolov**
Milliy hunarmandchilik qadriyatlarini vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish usullari va shakllari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 102 **R.X.Djurayev, F.U.Odirova**
Inklyuziv ta'limning zamonaviy tebdensiyalari, tamoyillari va rivojlantirish omillari
- 107 **K.A.Karimov**
Zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning inklyuziv va kreativ yondashuvini rivojlantirish
- 110 **F.X.Ibragimova**
Tarbiyaviy jarayonlarga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari

XORIJIY TA'LIM

- 113 **E.X.Xikmatov**
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika ta'limini tashkil etishning amaliy tahlili



TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM-TARBIYA DOIRASIDAGI SAMARADORLIK VA SIFAT KO'RSATKICHLARINI UZLUKSIZ TASHKIL ETISH MASALALARI

X.IBRAIMOV,

Qori Niyoziy nomidagi TPML direktori,
O'zRFA akademigi,
pedagogika fanlari doktori

Uzluksiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. «Samaradorlik» va «sifat» inson faoliyatining barcha sohalarida eng ko'p qo'llanadigan tushunchalardir. Ammo ularning pedagogik mohiyatini tahlil qilishga oid ishlar barmoq bilan sanarli darajada oz. Bu tushunchalarning mazmuni, hajmi va ularning pedagogik jihatlarini o'rganishga oid adabiyotlarning tanqisligi samaradorlik va sifat tushunchalarining o'ta murakkabligi, fanlararo hodisa ekanligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: samaradorlik, samaradorlik va sifat, o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish, muammo, topshiriq, test va mashqlarni bajarish tempi, o'rganilgan bilimlarni tatbiq qilish darajasi.

The main goal of the reforms being carried out in the field of continuing education is to increase the quality and efficiency of teaching. «Efficiency» and «quality» are the most commonly used concepts in all spheres of human activity. However, there are only a handful of works on the analysis of their pedagogical essence. The lack of literature on the content, scope and study of these concepts and their pedagogical aspects is explained by the extreme complexity of the concepts of efficiency and quality; their interdisciplinary nature.

Key words: effectiveness, efficiency and quality, improvement of the quality and efficiency of teaching, problem, assignment, test and exercise pace, level of application of learned knowledge.

Ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash ta'lim islohotini amalga oshirishning eng dolzarb masalalari jumlasiga kiradi. Bu ta'limning mazmuni, vositalari, shakli va usullariga bevosita taalluqli bo'lib, mazkur sohadagi bilimlarni o'rganish didaktikaning tadqiqot obyektidir. Ta'lim jarayonini o'tmishda yaratilgan, insoniyatning eng oqil vakillari tomonidan ishlab chiqilgan, xalqimizning boy ijodiy pedagogik tajribalaridan oziq olgan ta'limiy qadriyatlari bilan boyitish zamonaviy ta'lim bosqichlari o'rtasidagina emas, balki eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunga qadar ta'lim sohasida amal qilgan boy tajribalar, amaliy g'oyalardan foydalanish, o'tmish allomalarimiz va ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan taqdim etilgan, asrlar sinovidan o'tgan, xalqimizning azaliy qadriyatlari, tiynatu surati, umuman, mentalitetiga asoslangan tajribalaridan unumli foydalanish imkonini beradi.



Zamonaviy mehnat bozoriga yuqori raqobatbardoshlikka ega mutaxassisni yetishtirib berish, bu – avvalo, yoshlarda o‘z-o‘zini uzluksiz rivojlantirish motivatsiyasini tarkib toptirish, shaxsda o‘z-o‘zini tarbiyalash, namoyon etish, rivojlantirishga intilishni shakllantirish demakdir. Bu borada O‘rta Osiyo allomalari tomonidan ilgari surilgan ta’limiy qadriyatlarga tayanish katta ahamiyatga ega. Chunki aynan ota-bobolarimizning yoshlarga bilim berish, ma’rifatdan bahramand etish borasidagi qarashlari avvalo ularni o‘z nafsini yenga bilish, ilm egallash yo‘lida doimiy mashaqqatlardan cho‘chimaslik, «Beshikdan qabrgacha ilm izlash» borasidagi hikmatlari bilan hamohangdir.

Uzluksiz ta’limning asosiy g‘oyasi ta’limni maksimal ravishda shaxs va jamiyat manfaatlariga moslashtirish, uning hamma bo‘g‘inlarini shaxs kamolotidagi imkoniyatlaridan to‘la foydalanishdir. Demak, uzluksiz ta’lim insonni faqat ta’lim muassasasida o‘qish davrida emas, undan keyin butun amaliy mehnat faoliyati davomida ham o‘z qobiliyatini namoyon qilish, kasbining va ma’naviy ehtiyoj, qiziqishlarini qondirish uchun ijtimoiy, pedagogik sharoit yaratish demakdir. Uzluksiz ta’lim pedagogik tizim sifatida turli-tuman yo‘l, vosita va shakllar orqali bilim olish, uni chuqurlashtirish, kasbiy mahoratini takomillashtirish, fuqaro sifatida o‘zligini namoyon qilish, ma’naviy qiziqishlarini qondirishdir. Bundan tashqari ta’limning hamma turlari o‘rtasida aloqadorlik, uzviylikni ta’minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson ta’limning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishda ruhiy, iqtisodiy, tashkiliy qiyinchiliklarga duchor bo‘lishini oldini olish, bosqichlar va turlar o‘rtasidagi vorislikni mustahkamlab, ular o‘rtasida tarixiy evolyusion rivojlanishni ta’minlash orqali insonga qulaylik yaratishda ham uzluksiz ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda har bir insonning doimiy ravishda kasbiy va ma’naviy qiziqishlarini qondirish uchun uzluksiz ta’limning keng tarmoqlari mavjud.

Inson o‘z shaxsining imkoniyat va xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’limning bosqich va ko‘lamini tanlashi, uning tarkibiy qismlariga tayanib, o‘z maqsadlarini qondirishi mumkin. Buning uchun ta’lim turli bosqich va turlari o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni shakllantirish muhimdir. Bunda asosiy (baza) ta’lim (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim) asos (vertikal bo‘yicha) hamda qo‘shimcha ta’limning (turli qiziqishlarni qondirish-xobbi, texnik, tabiatshunoslik, badiiy, muzika, maktab-internatlar, kompyuter axborot vositalari, INTERNET orqali ta’lim, masofaviy ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlashning) o‘zaro muvofiqlashtirish – (gorizontal-eniga) ular integratsiyasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Tajriba ko‘rsatadiki, ta’lim uzluksizligini ta’minlashda vertikal va gorizontal yo‘nalishlarni, ya’ni ta’limning bir turi va bosqichlari o‘rtasidagi tadrijiy uzviylikni ta’minlash eng murakkab ilmiy-nazariy, tashkiliy-pedagogik masaladir. Shu masala ilmiy hal qilinsa uzluksizlik ko‘p jihatdan ta’minlanadi.



Uzluksiz ta'lim tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning asosida shaxs hayotining hamma bosqichlarida komil inson sifatida rivojlanishi yotadi. O'zining maqsadiga ko'ra uzluksiz ta'lim shaxsning barkamolligi sharoiti, uning ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlanishi, qobiliyat va kuch – qudratini namoyon qilish, umumiy hamda kasbiy kamolotini o'sishi, avvalgi olgan tayyorgarligini takomillashtirish jarayonidir. Shuning uchun uzluksiz ta'lim inson butun hayotining umumlashgan xususiyati sifatida undan ajralmasdir.

Hadisi sharifda aytilgandek, beshikdan qabrgacha ilm egalla, degan fikr uzluksiz ta'lim g'oyasiga hamohangdir. Bundan tashqari uzluksiz ta'lim ijtimoiy-pedagogik prinsip sifatida ijtimoiy taraqqiyot harakteridan kelib chiqib, ta'limni yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi shaxsning ijtimoiy taraqqiyotning faol subyekti tarzida rivojlanishiga qaratilgandir. Ta'lim tizimiga bunday yondashish yangi metodologik prinsip sifatida mustaqillik mafkurasi va yurtboshimiz siyosatining mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarni taqozo qiladi:

1) bunda mustaqillik siyosatining mohiyati ta'limni eng avvalo yoshlarni chuqur bilimli, mohir kasb-hunar egasi bo'lishi, shu asosda butun aholini ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qildirish; 2) ta'lim tarkibiy qismlarini umumiy uzluksiz ta'lim tizimida maqsad va vazifasini to'g'ri belgilash; 3) uzluksiz ta'lim jamiyatimizning umumiy ijtimoiy hayot jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va ma'naviy-madaniy taraqqiyotini tezlashtirishga yo'naltirish. Shu nuqtai nazardan yondoshgan uzluksiz ta'lim davlat va nodavlat, ijtimoiy tashkilotlarning yaxlit birligi bazasida mavjud bo'lib, insonning umumiy va kasbiy tayyorgarligining shaxsiy hamda ijtimoiy ehtiyoj talablarini qondirishga qaratilgan. Bular ichida kasbiy faoliyat ehtiyojini qondirish belgilovchi hisoblanadi. Kasbiy mahoratni oshirish inson uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi sifatida pedagogning muntazam shaxs va kasb egasi sifatida kamol topishi va shu asosda kasbiy faoliyat takomillashuvining kafolatidir.

Didaktikaning maqsadi nazariyadagi qator muammolarni hal etishdan iborat. Bular quyidagilardan iborat:

1) nazariyaning maqsad va vazifalarini belgilash. Busiz o'qitish jarayoni muayyan to'liqlikka ega bo'lmaydi.

2) o'qitish jarayonini tahlil etish va uning qonuniyatlarini ochish

3) qonuniyatlarga tayangan holda, o'qitishning prinsip va qoidalarini asoslash

4) ta'lim mazmunini belgilash, Bunga birinchi navbatda o'quvchi o'zlashtirish zarur bo'lgan o'quv materiallarini tanlash, shuningdek, bilimlarni mustahkamlash uchun amaliy mashqlar ishlab chiqish kabilar kiradi.

5) ta'limni tashkil etish shakllari haqidagi asosiy fikr va g'oyalarni aniq-lashtirish.



6) o'qituvchilarga ta'lim metodlari va usullari asosiy maqsad-o'quvchilarni sifatli o'qitishga erishining turli yo'llarin, tushuntirish.

7) o'qitish vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi moddiy-texnik vositalarni tavsiflash.

Demak, didaktik qadriyatlar ta'lim oluvchi uchun zarur hisoblangan, o'qitish jarayonining negizini ta'minlovchi, uning jon tomiri bo'lgan ta'lim mazmuni va uning amalga oshirishini belgilab beruvchi muhim shart-sharoitlardir. Uning asosiy xususiyati o'timishda ta'lim jarayonida keng qo'llanilgani bo'lib, zamonaviy ta'limda foydalanilgan ilg'or ta'lim mazmuni, shakl, usul va vositalariga negiz sifatida xizmat qilganidir.

O'qitishning barcha tamoyillari didaktikaning asosiy funksiyasi – ta'limning shaxsni tarbiyalovchisi va rivojlantiruvchisi sifatidagi vazifasini amalga oshirishga qaratiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim qanday o'qitish va nimalarni o'rgatish masalasiga yangicha nuqtai nazardan yondashuvning tarkib topishiga asos bo'lmoqda. Bular:

- ta'lim mazmuniga shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida qarash;
- maktab o'quv fanlariaro integratsiyaning kuchayishi;
- ta'limda tabaqalashtirish va variativlikni orttirish;
- o'qishni ijobiy rag'batlantirish kabilardan iborat [2; 43]. Qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish ta'lim oluvchining shaxs sifatida yaxlit va atroflicha rivojlanishi, ta'lim subyekti sifatida o'ziga xosligi (individualligi), erkinligi, ijodiy-kreativ tafakkur yuritishini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

Demak, didaktik hodisalarni o'rganish turli davrlarda amal qilgan ta'lim mazmuni, hodisalari, shart-sharoitlari o'rtasidagi aloqalarni tahlil etish, didaktikaning vorisiylik tamoyiliga asoslanish, ularni tavsiflash va tizimlashtirishdan boshlanadi. Didaktika tarixini o'rganishda tizimlilik va ketma-ketlik tamoyiliga tayanish o'qitish tarixiga doir nazariy va amaliy bilimlarga tizimli yondoshish imkonini beradi. Ushbu tamoyilga amal qilishda quyidagilarni nazarda tutish zarur: avvalo, didaktika tarixiga doir nazariy yondashuvlarni aniqlash va muayyan tartibga solish, ya'ni uni mantiqiy qismlarga, davrlarga ajratish va tavsifiy tartibini belgilash, ularni zamonaviylik va tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarur (ushbu uslubning asosida qiyosiy tahlil yetakchi o'rinni egallashi lozim); ikkinchidan, har bir mantiqiy bo'lim, davrlarda amal qilgan asosiy didaktik tushunchalar (tayanch atamalar), ularning asosiy mohiyati, markaziy g'oyalari, tarkibiy tuzilmasini aniqlash kerak; uchinchidan, mantiqiy qism, davrlar, ta'lim tamoyillari, didaktik qadriyatlar o'rtasidagi bevosita va bilvosita aloqalarni belgilash zarur.

Barchamizning muhim vazifalarimizdan biri ajdodlarimizning ta'lim masalalarini yoritishga qo'shgan munosib ulushlarini jahon pedagogik ommasiga yanada kengroq va chuqurroq ko'rsatib berishdan iborat. Zero, mustaqil respublikamizning



ta'limning globallashuv sharoitida jahon pedagogik hamjamiyatida tutgan o'rni uning unga qo'shgan hissasini ko'rsatib berilishi bilan ham o'lchanadi. Afsuski, O'zbekistonda didaktikaning shakllanish va rivojlanishi tarixi ilmiy-metodik jihatdan kengqamrovli tadqiq etilmagan. Shunga ko'ra, bu sohada ayrim salmoqli ishlarning e'lon qilina boshlangani e'tiborga loyiqdir.

Didaktik konsepsiyalarning asosida turli mezon va yondashuvlar yotadi. Bular o'quv jarayonida qo'llanilayotgan metodlarni qayta tashkil etish, pedagogik psixologiyada ilgari surilayotgan yangi ma'lumotlarga asoslanish kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Yetakchi didaktik konsepsiyalarda boshqa mezon va yondashuvlar ham ilgari surilmoqda.

G'arb pedagogikasida ilgari surilgan ko'pchilikka ma'lum didaktik konsepsiyalar ichida traditsion paradigma, ratsional model va fenomenologik yo'nalishlarni keltirish mumkin. G'oyaviy plyuralizm sharoitida turli nazariy modellarning ilgari surilishi tabiiy holat bo'lib, ularda bir vaqtning o'zida bir nechta didaktik paradigmalar birlashib, uyg'unlashib ketmoqda.

Demak, didaktika tarixini izchil o'rganish shu kabi kam o'rganilgan yo'nalishlarga ham chuqur kirib borishni talab etadi.

Didaktika tarixida tizimlilik nazariyasi va amaliyotini belgilash o'qitish tarixida amal qilgan mazmun, shakl, usul va vositalar (ya'ni pedagogik shart-sharoitlar)ning uzviyligini belgilash, ularni ijtimoiy-madaniy tuzum va davr talablari asosida rivojlanib borish holatlarini aniqlash maqsadini nazarda tutadi. Ushbu harakat asosida yotuvchi asosiy qoida har bir davrni ham o'rganilayotgan material mazmuniga ko'ra, ham ta'limda amal qilgan nazariy qoida va amaliy bilimlarga ko'ra oldingisining mantiqiy davomi sifatida e'tirof etish, inkorni inkor dialektika qonuni asosida vujudga kelgan yangi bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.А.Алимов, Р.М.Юсупов, А.Ш.Шамсиев. Узлуксиз математика таълимида узвийлик // Умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълими жараёнида фанлараро узвийликни таъминлаш муаммолари. - Т.: ЎЗР ХТВ, Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти, 2009. - 340 б.

2. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. - М.: Народное образование, 1998. - 256 с.

3. Педагогик атамалар луғати / Тузувчи муаллифлар: Р.Х.Джураев, Ў.Қ.Толипов, Р.Ф.Сафарова, Х.О.Тўрақулов, М.Э.Иноятова, М.С.Диванова. - Т.: Фан, 2008. - 193 б.



ESHITISHIDA NUQSONI MAVJUD O‘QUVCHILARNI INKLUZIV MUHITDA QO‘LLAB-QUVVATLASH VA MOSLASHTIRISH YO‘LLARI

R.X.DJURAYEV,

Qori Niyozni nomidagi TPML bo‘lim mudiri,
loyiha rahbari, akademik, p.f.d.

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim muhitida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni pedagogik va texnologik jihatdan moslashtirishning zamonaviy yondashuvlari o'rganildi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik strategiyalar; vizual va multimodal vositalar; shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv, interaktiv platformalar va adaptiv ta'lim vositalari eshitish qobiliyati zaif bo'lgan o'quvchilarni o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, eshitish qobiliyati zaif o'quvchilar, pedagogik moslashtirish, raqamli texnologiyalar, adaptiv o'qitish

В данной статье изучены современные подходы к адаптации учащихся с нарушениями слуха в условиях инклюзивного образования с педагогической и технологической точек зрения. Исследование анализирует современные педагогические стратегии, визуальные и мультимодальные инструменты, а также эффективность цифровых технологий в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что индивидуальный подход, интерактивные платформы и адаптивные образовательные средства позволяют успешно интегрировать учеников с ослабленным слухом в учебный процесс.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, учащиеся с нарушением слуха, педагогическая адаптация, цифровые технологии, адаптивное обучение

This article examines modern approaches to adapting students with hearing impairments in inclusive education environments from pedagogical and technological perspectives. The study analyzes contemporary pedagogical strategies, visual and multimodal tools, and the effectiveness of digital technologies in the learning process. Findings indicate that individualized approaches, interactive platforms, and adaptive learning tools enable the successful integration of students with hearing impairments into the educational process.

Key words: Inclusive education, students with hearing impairments, pedagogical adaptation, digital technologies, adaptive learning

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimi har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan muhim pedagogik konsepsiya sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish masalasi



muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'quvchilarni moslashtirishning samarali usullari pedagogik yondashuvlar, multimodal vositalar va raqamli texnologiyalarning kompleks qo'llanilishiga bog'liq. So'nggi yillarda adaptiv o'qitish platformalari, interaktiv dasturlar, vizual yordamchilar va ovozli texnologiyalar eshitishda nuqsone bo'lgan o'quvchilarning o'qish qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, individual yondashuv, pedagogik diagnostika va texnologik vositalarning integratsiyasi o'quvchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va bilim darajasini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida eshitishda nuqsone bo'lgan o'quvchilarni pedagogik va texnologik jihatdan moslashtirish masalalari so'nggi yillarda ilmiy-amaliy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Mahalliy olimlar, jumladan, Po'latova (2020) va Mamatov (2021), inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyotida individual yondashuvning ahamiyatini ta'kidlashadi. Shuningdek, Qodirova (2019) eshitish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar pedagogikasi bo'yicha ilmiy asoslarni bayon qilgan bo'lsa, Raxmonova (2022) zamonaviy texnologiyalarning maxsus pedagogikada qo'llanilishi va innovatsion metodlar samaradorligini tahlil qilgan. Saidov (2020) esa inklyuziv ta'lim metodikasida adaptiv ta'lim vositalarining ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Xorijiy tadqiqotlar ham bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratgan. Vygotsky (1978) o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishini nazariy jihatdan asoslab, individual va interaktiv yondashuvning ahamiyatini ta'kidlagan. Shuningdek, UNESCO (2020) va boshqa xalqaro tashkilotlar inklyuziv ta'limda multimodal va raqamli vositalardan foydalanish tajribalarini tavsiya qiladi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan o'quvchilarni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun pedagogik strategiyalar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli texnologiyalarni ham qo'llash muhimdir.

Eshitishda nuqsone bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishda raqamli texnologiyalar va multimodal pedagogik vositalarning integratsiyasi katta ahamiyatga ega. Interaktiv platformalar va vizual yordamchilar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, motivatsiyasi hamda diqqatni jamlash qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Bu esa avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan muvofiqdir. Masalan, Norqulova (2023) o'z tadqiqotida multisensorli metodlar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini qayd etgan. Shu bilan birga, adaptiv dasturlar va elektron o'quv vositalari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan holda ishlash imkonini beradi, bu esa charchoq darajasini kamaytiradi va topshiriqlarni bajarish sifatini oshiradi.



An'anaviy metodlar bilan ishlash natijasida o'quvchilarning bilim darajasi va motivatsiyasi nisbatan past bo'lsa, vizual va multimodal vositalar, shuningdek, raqamli interaktiv platformalardan foydalanish natijasida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Bu o'quv jarayonida individual yondashuvning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Muhokama davomida shuni ta'kidlash kerakki, pedagoglarning texnologiyalarni samarali qo'llay olishi va o'quvchilarning psixofiziologik holatini inobatga olishi inklyuziv ta'limdagi muvaffaqiyat omili hisoblanadi.

Ekspiriment davomida kuzatilgan charchoq indeksleri va diqqatni jamlash darajasi o'quvchilarning raqamli vositalar bilan ishlash jarayonida sezilarli darajada yaxshilanishini ko'rsatdi. Bu holat, ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan ham mos keladi va raqamli texnologiyalarning pedagogik jarayonga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning bilim olish faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va motivatsiyasi faqat texnologiyalarni qo'llash orqali emas, balki individual pedagogik yondashuv bilan birlashtirilgan holda yaxshilanishi muhim ekanligi aniqlangan. Inklyuziv ta'lim muhitida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalarni pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashtirish, bilim olish samaradorligini oshirish va o'quvchilarning psixofiziologik holatini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o'quv jarayonida interaktiv platformalarni, adaptiv dasturlarni, vizual va multimodal vositalarni tizimli va kompleks yondashuv asosida qo'llash tavsiya etiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv ta'lim muhitiga samarali moslashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va multimodal pedagogik vositalar muhim rol o'ynaydi. Interaktiv platformalar, adaptiv o'quv dasturlari, vizual va multimodal vositalar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish hamda diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida kuzatilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy pedagogik metodlar bilan solishtirganda, texnologiyalarni qo'llash bilim olish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o'quvchilarning psixofiziologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Individual pedagogik yondashuv va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning charchoq darajasini kamaytirish, topshiriqlarni bajarish sifatini oshirish va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini beradi. Bu esa inklyuziv ta'lim muhitida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilim olish jarayoni va pedagogik yondashuvlar samaradorligini oshirishda ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishga imkon beradi. Tadqiqotning natijalari



pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, inklyuziv ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni tizimli va kompleks yondashuv asosida qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda texnologiyalarni tanlash va qo'llash inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. - Chirchiq: Chirchiq davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2020.
2. Mamatov B.S. Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti. - Chirchiq: ChDPU nashriyoti, 2021.
3. Qodirova D.A. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar pedagogikasi. - Chirchiq: ChDPU nashriyoti, 2019.
4. Raxmonova M.T. Maxsus pedagogikada innovatsion texnologiyalar. - Chirchiq: ChDPU nashriyoti, 2022.
5. Saidov Sh.R. Inklyuziv ta'lim metodikasi. - Chirchiq: ChDPU nashriyoti, 2020.
6. Yusupova N.K. Maxsus ta'lim metodlari. - Chirchiq: ChDPU nashriyoti, 2018.
7. Norqulova M. Inklyuziv ta'limda multisensorli metodlar qo'llanilishi. - Toshkent: Maxsus pedagogika va psixologiya, №2, 2023, 30-36.
8. Tashkent State Pedagogical University. Inklyuziv ta'lim metodik qo'llanmasi. - Toshkent: TSPU nashriyoti, 2022.



UCHINCHI SHAXS ARALASHUVINING MADANIY VA IJTIMOY MEKANIZMLARI

O. MUSURMONOVA,

*pedagogika fanlari doktori, professor,
oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari*

Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda uchinchi shaxs aralashuvining madaniy va ijtimoiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda oila tizimiga tashqi ta'sir ko'rsatuvchi omillar; ularning shakllanish manbalari hamda ta'sir yo'nalishlari sotsiologik va psixologik yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, uchinchi shaxs aralashuvining an'anaviy madaniyat, qarindoshlik tizimi, ijtimoiy nazorat va raqamli muhit orqali amalga oshishi hamda aralashuvning konstruktiv va destruktiv oqibatlari qiyosiy tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: *uchinchi shaxs, oilaviy munosabatlar; ijtimoiy nazorat, madaniy me'yorlar; qarindoshlik tizimi, psixologik bosim, konflikt, mediatorlik, oila barqarorligi, ijtimoiy muhit.*

В данной статье научно анализируются культурные и социальные механизмы вмешательства третьих лиц в семейные отношения. В исследовании с социологической и психологической точки зрения рассматриваются внешние факторы, влияющие на семейную систему, источники их формирования и направления воздействия. Также проведён сравнительный анализ проявлений вмешательства третьих лиц через традиционную культуру, систему родственных отношений, социальный контроль и цифровую среду, а также его конструктивных и деструктивных последствий.

Ключевые слова: *третье лицо, семейные отношения, социальный контроль, культурные нормы, система родства, психологическое давление, конфликт, медиация, устойчивость семьи, социальная среда.*

This article provides a scientific analysis of the cultural and social mechanisms of third-party interference in family relationships. The study examines, from sociological and psychological perspectives, the external factors influencing the family system, their sources of formation, and directions of impact. It also presents a comparative analysis of how third-party interference operates through traditional culture, kinship systems, social control, and the digital environment, as well as its constructive and destructive consequences.

Key words: *third party, family relationships, social control, cultural norms, kinship system, psychological pressure, conflict, mediation, family stability, social environment.*

Oila jamiyatning eng kichik, shu bilan birga eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. U inson shaxsining shakllanishi, ma'naviy kamoloti va ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi. Oila barqarorligi jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida baholanadi, chunki har bir ijtimoiy jarayonning ildizi aynan oila muhitida shakllanadi. Shu ma'noda, oilaviy munosabatlarning muvozanatli va barqaror bo'lishi nafaqat ichki psixologik omillarga, balki tashqi ijtimoiy ta'sirlarga ham bog'liqdir.

Amaliy hayotda er-xotin munosabatlari faqat ikki shaxs o'rtasidagi shaxsiy va ichki aloqa bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu munosabatlar keng ijtimoiy muhit,

ya'ni ota-ona, qarindoshlar, do'stlar, qo'shnilar va turli ijtimoiy guruhlar ta'siri ostida shakllanadi va rivojlanadi. Bunday ta'sirlar ba'zan qo'llab-quvvatlovchi, maslahat beruvchi va muvozanatni saqlovchi xarakterga ega bo'lsa, ba'zi hollarda esa aralashuv, bosim yoki noxolis munosabat ko'rinishida namoyon bo'lib, oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 27-moddasida «har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega»[1] ekani belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur norma insonning eng muhim va ajralmas huquqlaridan birini ifoda etadi. Unga ko'ra, insonning shaxsiy hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini davlat tomonidan himoya qilinadi, unga nisbatan asossiz aralashuv, tazyiq yoki nazoratga yo'l qo'yilmaydi. Demak, ushbu modda shaxsning erkin yashashi, o'z hayotini mustaqil ravishda tashkil etishi hamda har qanday noqonuniy ta'sirlardan himoya qilinishi uchun huquqiy kafolat vazifasini bajaradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 1 va 3-moddalariga [2] muvofiq, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida oila masalalariga biron-bir shaxsning o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik belgilab qo'yilgan. Ushbu normalarga ko'ra, oilaviy munosabatlar mustaqil ravishda amalga oshirilishi kerak bo'lib, ularga tashqi, asossiz va noqonuniy aralashuv qat'iyan man etiladi. Bu esa oilaning daxlsizligi, mustaqilligi va ichki munosabatlarning erkin rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Qolaversa, mazkur qoidalar 1948 yilgi Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 12-moddasi[3] hamda 1966 yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Paktning 17-moddasiga to'liq mos keladi[4]. «Har bir shaxs qonuniy va noqonuniy aralashuvlardan himoyalaniş huquqiga ega» ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shu nuqtai nazardan «uchinchi shaxs aralashuvi» fenomenini oilaviy munosabatlarni tushinishda muhim ilmiy kategoriya sifatida qaraladi. Uchinchi shaxs aralashuvi oila ichki tizimiga tashqi ta'sir sifatida kirib kelib, qaror qabul qilish jarayonlari, ishonch darajasi, emotsional barqarorlik va muloqot madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu aralashuvning tabiati har doim bir xil emas: ba'zi holatlarda u nizolarni yumshatish, kelishuvni ta'minlash va tajriba almashinuvi orqali ijobiy rol o'ynashi mumkin, boshqa hollarda esa qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, ishonchning yo'qolishiga va oilaviy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

1. Uchinchi shaxs aralashuvi tushunchasining nazariy asoslari

Uchinchi shaxs aralashuvi – bu er-xotin munosabatlariga ularning bevosita ishtirokisiz tashqi shaxslar tomonidan turli darajada va turli shakllarda ta'sir ko'rsatilishi jarayonidir. Bu ta'sir oilaviy tizimning ichki dinamikasiga kirib kelib, qaror qabul qilish jarayonlari, emotsional holat, ishonch darajasi hamda muloqot madaniyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazishi mumkin. Uchinchi shaxs sifatida ota-ona, qarindoshlar, do'stlar, qo'shnilar yoki boshqa ijtimoiy muhit vakillari ishtirok etishi mumkin.



Tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilganda, uning asosida oilaviy tizim nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, oila alohida izolyatsiyalangan tuzilma emas, balki jamiyat bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'lgan ochiq ijtimoiy tizimdir. Shu sababli oilaviy munosabatlar faqat ikki shaxs o'rtasidagi ichki aloqa bilan cheklanib qolmaydi, balki tashqi ijtimoiy muhit, madaniy me'yorlar va ijtimoiy nazorat ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Oilaviy munosabatlarda ahil totuv yashash, halol mehnat muxabbatga asoslangan oila jamiyatning munosib avlod, axloqi pok jamiyat ishiga, taraqqiyo-timizga, mustakilligimizga sadokatli inson tarbiyalab yetkazishda muxim rol o'ynaydi. Qadimdan Sharq oilalari yigit-kizlarni oilaviy turmushga tayyorlashga alohida e'tibor berganlar yigitlar alohida, kizlar alohida maxsus enaga tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanganlar[5].

Uchinchi shaxs aralashuvi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Uning eng keng tarqalgan ko'rinishlari quyidagilardan iborat: maslahat berish, tavsiyalar bildirish, psixologik yoki ma'naviy bosim o'tkazish, bir tomonni qo'llab-quvvatlash orqali noxolis munosabat shakllantirish, oilaviy qarorlarga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aralashish hamda er-xotin o'rtasidagi muloqot jarayoniga ta'sir ko'rsatish. Bu shakllarning har biri oila ichki tizimiga turlicha ta'sir ko'rsatib, ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda, uchinchi shaxs aralashuvi tabiiy ijtimoiy hodisa sifatida baholanadi. Chunki har bir oila jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy normalar, an'analar va madaniy qadriyatlar ta'siri ostida faoliyat yuritadi. Ayniqsa, an'anaviy jamiyatlarda qarindoshlik tizimi kuchli bo'lgani sababli oila qarorlariga katta avlod va yaqin atrofning ta'siri yuqori bo'ladi. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmining bir ko'rinishi sifatida ham qaraladi. Biroq ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, uchinchi shaxs ta'siri me'yorida va konstruktiv shaklda bo'lganda oilaviy muammolarni hal qilishga yordam berishi, tajriba almashinuvi va psixologik qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, tajribali ota-ona yoki qarindoshlar maslahati yosh oiladagi tushunmovchiliklarni yumshatishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, uchinchi shaxs aralashuvi me'yoridan ortiq bo'lsa, u oilaviy tizim muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda er-xotin o'rtasida ishonchning pasayishi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining zaiflashishi, emotsional bosimning kuchayishi hamda ichki muloqotning buzilishi kuzatiladi. Natijada oila ichki barqarorligi izdan chiqishi mumkin.

Demak, uchinchi shaxs aralashuvi oilaviy munosabatlarning ajralmas ijtimoiy komponenti hisoblanadi. Uning samaradorligi va ta'siri aralashuvning mazmuni, maqsadi va me'yoriga bog'liq bo'lib, konstruktiv shaklda oilaga foyda keltirsa, noxolis va ortiqcha aralashuv oilaviy tizim muvozanatini buzishi mumkin.

2. Madaniy mexanizmlar



Madaniy mexanizmlar uchinchi shaxs aralashuvining shakllanishi va kuchayishida eng muhim va asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa an'anaviy jamiyatlarda oila faqat er-xotindan iborat kichik ijtimoiy birlik sifatida emas, balki keng qarindoshlik tizimi, ya'ni katta oila instituti sifatida qaraladi. Bunday tizimda oilaviy munosabatlar shaxsiy qarorlar bilan cheklanib qolmay, balki keng ijtimoiy va madaniy muhit ta'sirida shakllanadi.

Ushbu jarayonda bir nechta asosiy madaniy omillar muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda, katta avlod avtoriteti alohida ahamiyatga ega. Ota-ona, bobo va buvi, shuningdek, katta qarindoshlar ko'p hollarda oilaviy qarorlarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ular hayotiy tajribaga tayanadi va o'z fikrlarini «to'g'ri yo'l» sifatida taqdim etadi. Bu esa yosh oilada mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Ikkinchi muhim omil – an'anaviy urf-odatlar va madaniy normalardir: «Ota-ona roziligi», «kattalar fikrini inobatga olish», «qarindoshlar bilan maslahat qilish» kabi qadriyatlar ko'p jamiyatlarda ijtimoiy majburiyat sifatida qabul qilinadi. Bu normalar oilaviy qarorlarni individual emas, balki jamoaviy muhokama asosida qabul qilishga olib keladi.

Uchinchi omil – jamoatchilik nazorati hisoblanadi. «Odamlar nima deydi?», «el nima fikrda bo'ladi?» kabi ijtimoiy bosim oilaviy qarorlarga kuchli ta'sir o'tkazadi. Bunday holatda oila a'zolari ko'pincha shaxsiy ehtiyojlardan ko'ra jamiyat fikriga moslashishga harakat qiladi.

3. Ijtimoiy mexanizmlar

Ijtimoiy mexanizmlar oilaviy munosabatlarga tashqi muhit orqali ta'sir ko'rsatadigan omillar tizimini anglatadi. Bu mexanizmlar oila va keng jamiyat o'rtasidagi doimiy o'zaro aloqa natijasida shakllanadi va er-xotin munosabatlarining mazmuni, yo'nalishi hamda barqarorligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy davrda ijtimoiy mexanizmlarning ta'siri yanada kuchayib, turli shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muhit ta'siri muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda bloggerlar, internet maslahatchilari va media platformalar oilaviy munosabatlar haqida turli modellar va qarashlarni taqdim etadi. Ko'p hollarda ideallashtirilgan hayot tarzi namoyish qilinishi real hayot bilan solishtirilganda qoniqmaslik hissini keltirib chiqaradi. Bu esa er-xotin o'rtasida norozilikni kuchaytirishi mumkin.

Ikkinchidan, do'stlar va hamkasblar guruhi ta'siri muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Inson ko'p hollarda o'z atrofidagi yaqin ijtimoiy muhit fikrlariga tayanadi. Do'stlar tomonidan berilgan maslahatlar har doim ham xolis bo'lmazligi mumkin, biroq ular shaxsiy qarorlar shakllanishiga ta'sir qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy taqqoslash fenomeni keng tarqalgan mexanizmlardan biridir. Oilalar ko'pincha o'z hayotini boshqa oilalar bilan solishtirish orqali



baholaydi. Bu jarayonda ijobiy emas, balki salbiy his-tuyg'ular, ya'ni norozilik, qoniqmaslik va rashk paydo bo'lishi mumkin. Natijada oilaviy munosabatlarda ichki bosim kuchayadi.

To'rtinchidan, iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy qaramlik yoki iqtisodiy qiyinchiliklar tashqi shaxslar ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Bunday holatda oila qarorlari mustaqil emas, balki tashqi yordam yoki bosim asosida qabul qilinadi. Ushbu ijtimoiy mexanizmlar oila qarorlarini individual emas, balki tashqi muhit ta'siriga bog'liq holga keltiradi. Shuning uchun oilaviy barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy ta'sirlarni to'g'ri baholash va ularni me'yorda boshqarish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

4. Uchinchi shaxs aralashuvining psixologik oqibatlari

«Uchinchi shaxs aralashuvini doimiy ravishda namoyon bo'lishining asl sabablari aniqlanmasa, ishtirokchilar tomonidan «xatolar» tan olinmasa, psixologik bosim uzluksiz davom ettirilsa bu stressni kuchayishiga olib keladi. Bunday vaziyatda malakali psixoterapevt yoki maslahatchiga murojaat qilish va mojaroning mumkin bo'lgan sabablarini o'rganish juda foydali bo'ladi». Psixologik nuqtai nazardan uchinchi shaxs aralashuvi oilaviy munosabatlar tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ta'sir er-xotin o'rtasidagi ichki ishonch, emotsional yaqinlik va muloqot barqarorligiga bevosita ta'sir etib, bir qator salbiy psixologik holatlarni keltirib chiqaradi.

Birinci navbatda, ishonchning pasayishi kuzatiladi. Oilada ishonch munosabatlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Uchinchi shaxsning ortiqcha aralashuvi yoki bir tomonni qo'llab-quvvatlashi natijasida er-xotin o'rtasida shubha va gumonlar paydo bo'ladi. Bu esa munosabatlarning ochiq va samimiy bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, emotsional masofa paydo bo'lishi muhim psixologik oqibatlardan biridir. Tashqi ta'sir kuchaygan sari oila a'zolari o'rtasida ichki yaqinlik kamayadi, his-tuyg'ularni ochiq ifodalash qiyinlashadi. Natijada har bir tomon o'zini himoya holatiga o'tkazib, emotsional jihatdan uzoqlashadi.

Uchinchidan, stress va ichki ruhiy zo'rqi kuchayadi. Doimiy tushunmovchiliklar, tashqi fikrlar ta'siri va bosim oila a'zolarida asabiylik, xavotir va ruhiy charchoqni yuzaga keltiradi. Bu holat uzoq muddat davom etsa, psixosomatik muammolarga ham olib kelishi mumkin.

To'rtinchidan, qaror qabul qilishda shubha kuchayishi kuzatiladi. Uchinchi shaxs fikrlariga ortiqcha tayanish natijasida er-xotin mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini yo'qota boshlaydi. Har bir qaror ikkilanayotgan holatda qabul qilinib, ichki ishonchsizlik kuchayadi.

Ushbu barcha holatlar yig'indisi psixologik adabiyotlarda «emotsional beqarorlik» va «konflikt eskalatsiyasi» (kuchayish) tushunchalari bilan izohlanadi. Emotsional beqarorlik oilada hissiy muvozanatning buzilishiga, konflikt eskalatsiyasi esa oddiy tushunmovchiliklarning jiddiy janjallarga aylanishiga olib keladi.



Shu sababli uchinchi shaxs aralashuvining psixologik oqibatlarini chuqur anglash oila barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ichki ishonch, muloqot va emotsional yaqinlikni mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

5. Konstruktiv va destruktiv aralashuv

Uchinchi shaxs aralashuvi oilaviy munosabatlar tizimida ikki xil yo'nalishda namoyon bo'lishi mumkin: konstruktiv (ijobiy) va destruktiv (salbiy) aralashuv. Ushbu ikki yo'nalishning farqini to'g'ri anglash oila barqarorligini saqlash va tashqi ta'sirni to'g'ri boshqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Konstruktiv aralashuv – bu oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan, muvozanatni tiklash va kelishuvga erishishga qaratilgan ijobiy ta'sir shaklidir. Bunday aralashuvning asosiy ko'rinishlaridan biri mediatorlik hisoblanadi. Mediatorlik jarayonida uchinchi shaxs ikki tomon o'rtasidagi tushunmovchilikni yumshatish, har ikki tomon fikrini xolis tinglash va murosaga olib kelish vazifasini bajaradi. Bu holatda tashqi shaxs qarama-qarshilikni kuchaytirmaydi, aksincha, konstruktiv muloqotni tiklashga yordam beradi.

Shuningdek, maslahat va qo'llab-quvvatlash ham konstruktiv aralashuv shakli hisoblanadi. Tajribali shaxslar, ayniqsa ota-ona yoki katta avlod vakillari o'z hayotiy tajribasiga tayanib, yosh oilaga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. Bunday maslahatlar hissiy bosimsiz va xolis bo'lsa, oilaviy qarorlarning sifatini yaxshilaydi.

Xolis baholash ham muhim o'rin tutadi. Tashqi shaxs vaziyatni emotsional emas, balki ratsional tahlil qilib, haqiqiy muammoni aniqlashga yordam beradi. Bu esa noto'g'ri tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Tajriba almashinuvi orqali ham konstruktiv ta'sir yuzaga keladi. Katta hayotiy tajribaga ega shaxslar o'z amaliy bilimlari bilan oilaviy munosabatlarni yaxshilashga hissa qo'shadilar.

Bunga qarama-qarshi holatda destruktiv aralashuv oilaviy tizimga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday aralashuv ko'pincha oila ichki mustaqilligini zaiflashtiradi va er-xotin o'rtasida ishonch inqirozini yuzaga keltiradi. Uning eng keng tarqalgan ko'rinishi – bosim o'tkazishdir. Masalan, qarindoshlar «sen albatta bu qarorni qabul qilishing kerak» yoki «bu odam senga mos emas» kabi qat'iy talablar orqali er-xotinning shaxsiy qarorlariga aralashadi. Natijada juftlik mustaqil fikr bildirish imkoniyatidan mahrum bo'lib, tashqi ta'sirga qaram holatga tushib qolishi mumkin. Shu o'rinda nizoga uchinchi shaxslarni jalb qilmaslik lozim. «Bolalar, ota-onalar, qo'shnilar yoki do'stlarni nizoga aralashtirish tavsiya etilmaydi. Chunki uchinchi shaxs odatda tomonlardan birini qo'llab-quvvatlaydi va vaziyatni xolis baholay olmaydi».

Yana bir salbiy shakl – bir tomonni qo'llab-quvvatlashdir. Masalan, erning onasi doim kelinni aybdor deb hisoblab, uning fikrini inkor etadi yoki aksincha, kelin tomon qarindoshlari erni haqsiz deb baholaydi. Bunday bir tomonlama yondashuv xolislikni yo'qotadi, oilada «kim haq, kim nohaq» degan qarama-qarshilikni kuchaytiradi va nizoni chuqurlashtiradi. Shuningdek, gap tashish va



noxolis axborot tarqatish ham destruktiv aralashuvning muhim ko'rinishidir. Masalan, «eshitdimki u sen haqingda yomon gap aytgan» yoki «u senga ishonmayapti» kabi asossiz ma'lumotlar oila ichida shubha va tushunmovchiliklarni kuchaytiradi. Bu esa emotsional masofa paydo bo'lishiga, hatto ajrim xavfining oshishiga olib kelishi mumkin.

6. Raqamli muhit ta'siri

Zamonaviy davrda raqamli muhit uchinchi shaxs aralashuvining mutlaqo yangi va tobora kuchayib borayotgan shaklini yuzaga keltirdi. Agar an'anaviy jamiyatlarda uchinchi shaxs sifatida asosan qarindoshlar, qo'shnilar va yaqin atrofdagilar ishtirok etgan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, bloggerlar, onlayn platformalar va raqamli media oilaviy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim «virtual uchinchi shaxs» vazifasini bajarmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'pincha oilaviy hayotning faqat ijobiy va ideallashtirilgan jihatlarini namoyish etiladi. Mukammal munosabatlar, doimiy bayramona kayfiyat, muammosiz oila modeli real hayotdan uzoq bo'lsa-da, tomoshabinlarda muayyan psixologik ta'sir uyg'otadi. Bu holat er-xotin o'rtasida o'z hayotini boshqalar bilan solishtirish tendensiyasini kuchaytiradi.

Natijada birinchi salbiy oqibat sifatida qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Inson o'z oilasini boshqalar bilan solishtirib, «mening oilamda nimadir yetishmayapti» degan xulosaga kelishi mumkin. Bu esa ichki norozilik va ruhiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim oqibat – taqqoslash fenomenidir. Doimiy solishtirish natijasida inson real vaziyatni emas, balki ideal obrazni me'yor sifatida qabul qila boshlaydi. Bu esa oilaviy munosabatlarga noreal talablar qo'yilishiga olib keladi.

Uchinchi oqibat – munosabatlarda sovuqlik paydo bo'lishidir. Raqamli muhitda ko'p vaqt o'tkazish, virtual hayotga chuqur kirib ketish oila a'zolari o'rtasidagi bevosita muloqotni kamaytiradi. Natijada hissiy yaqinlik zaiflashadi, tushunish darajasi pasayadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi turli maslahatlar, bloggerlar fikrlari ham oilaviy qarorlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir kontent xolis va ilmiy asoslangan bo'lmashligi mumkinligi sababli, noto'g'ri xulosalar shakllanishi ehtimoli ham mavjud.

Umuman olganda, raqamli muhit zamonaviy oilaviy munosabatlarda kuchli tashqi ta'sir manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli uni ongli boshqarish, axborotni tanqidiy qabul qilish va real hayot bilan virtual obrazni ajrata olish oila barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila barqarorligini ta'minlashda asosiy o'rin ichki omillarga – ishonch, o'zaro hurmat va samarali muloqotga tegishli. Shu omillar mustahkam bo'lsa, tashqi ta'sirlarning salbiy oqibatlari kamayadi. Demak, oila mustahkamligi, avvalo, ichki munosabatlar sifatiga bog'liq bo'lib, uchinchi shaxs ta'siri shu asosda boshqarilgandagina ijobiy yo'nalish kasb etadi.



Oila jamiyatning eng kichik, shu bilan birga eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. U inson shaxsining shakllanishi, ma'naviy kamoloti va ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi. Oila barqarorligi jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida baholanadi, chunki har bir ijtimoiy jarayonning ildizi aynan oila muhitida shakllanadi. Shu ma'noda, oilaviy munosabatlarning muvozanatli va barqaror bo'lishi nafaqat ichki psixologik omillarga, balki tashqi ijtimoiy ta'sirlarga ham bog'liqdir.

Amaliy hayotda er-xotin munosabatlari faqat ikki shaxs o'rtasidagi shaxsiy va ichki aloqa bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu munosabatlar keng ijtimoiy muhit, ya'ni ota-ona, qarindoshlar, do'stlar, qo'shnilar va turli ijtimoiy guruhlar ta'siri ostida shakllanadi va rivojlanadi. Bunday ta'sirlar ba'zan qo'llab-quvvatlovchi, maslahat beruvchi va muvozanatni saqlovchi xarakterga ega bo'lsa, ba'zi hollarda esa aralashuv, bosim yoki noxolis munosabat ko'rinishida namoyon bo'lib, oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 27-moddasida «har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega»[1] ekani belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur norma insonning eng muhim va ajralmas huquqlaridan birini ifoda etadi. Unga ko'ra, insonning shaxsiy hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini davlat tomonidan himoya qilinadi, unga nisbatan asossiz aralashuv, tazyiq yoki nazoratga yo'l qo'yilmaydi. Demak, ushbu modda shaxsning erkin yashashi, o'z hayotini mustaqil ravishda tashkil etishi hamda har qanday noqonuniy ta'sirlardan himoya qilinishi uchun huquqiy kafolat vazifasini bajaradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 1 va 3-moddalariga[2] muvofiq, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida oila masalalariga biron-bir shaxsning o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik belgilab qo'yilgan. Ushbu normalarga ko'ra, oilaviy munosabatlar mustaqil ravishda amalga oshirilishi kerak bo'lib, ularga tashqi, asossiz va noqonuniy aralashuv qat'iyan man etiladi. Bu esa oilaning daxlsizligi, mustaqilligi va ichki munosabatlarning erkin rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Qolaversa, mazkur qoidalar 1948 yilgi Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 12-moddasi[3] hamda 1966 yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Paktning 17-moddasiga to'liq mos keladi[4]. «Har bir shaxs qonuniy va noqonuniy aralashuvlardan himoyalaniish huquqiga ega» ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shu nuqtai nazardan «uchinchi shaxs aralashuvi» fenomeni oilaviy munosabatlarni tushunishda muhim ilmiy kategoriya sifatida qaraladi. Uchinchi shaxs aralashuvi oila ichki tizimiga tashqi ta'sir sifatida kirib kelib, qaror qabul qilish jarayonlari, ishonch darajasi, emotsional barqarorlik va muloqot madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu aralashuvning tabiati har doim bir xil emas: ba'zi holatlarda u nizolarni yumshatish, kelishuvni ta'minlash va tajriba almashinuvi orqali ijobiy rol o'ynashi mumkin, boshqa hollarda esa qarama-



qarshiliklarni kuchaytirib, ishonchning yo'qolishiga va oilaviy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

1. Uchinchi shaxs aralashuvi tushunchasining nazariy asoslari

Uchinchi shaxs aralashuvi – bu er-xotin munosabatlariga ularning bevosita ishtirokisiz tashqi shaxslar tomonidan turli darajada va turli shakllarda ta'sir ko'rsatilishi jarayonidir. Bu ta'sir oilaviy tizimning ichki dinamikasiga kirib kelib, qaror qabul qilish jarayonlari, emotsional holat, ishonch darajasi hamda muloqot madaniyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazishi mumkin. Uchinchi shaxs sifatida ota-ona, qarindoshlar, do'stlar, qo'shnilar yoki boshqa ijtimoiy muhit vakillari ishtirok etishi mumkin.

Tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilganda, uning asosida oilaviy tizim nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, oila alohida izolyatsiyalangan tuzilma emas, balki jamiyat bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'lgan ochiq ijtimoiy tizimdir. Shu sababli oilaviy munosabatlar faqat ikki shaxs o'rtasidagi ichki aloqa bilan cheklanib qolmaydi, balki tashqi ijtimoiy muhit, madaniy me'yorlar va ijtimoiy nazorat ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Oilaviy munosabatlarda ahil totuv yashash, halol mehnat muxabbatga asoslangan oila jamiyatning munosib avlod, axloqi pok jamiyat ishiga, taraqqiyotimizga, mustakilligimizga sadokatli inson tarbiyalab yetkazishda muxim rol o'ynaydi. Qadimdan Sharq oilalari yigit-kizlarni oilaviy turmushga tayyorlashga alohida e'tibor berganlar yigitlar alohida, kizlar alohida maxsus enaga tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanganlar[5].

Uchinchi shaxs aralashuvi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Uning eng keng tarqalgan ko'rinishlari quyidagilardan iborat: maslahat berish, tavsiyalar bildirish, psixologik yoki ma'naviy bosim o'tkazish, bir tomonni qo'llab-quvvatlash orqali noxolis munosabat shakllantirish, oilaviy qarorlarga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aralashish hamda er-xotin o'rtasidagi muloqot jarayoniga ta'sir ko'rsatish. Bu shakllarning har biri oila ichki tizimiga turlicha ta'sir ko'rsatib, ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda, uchinchi shaxs aralashuvi tabiiy ijtimoiy hodisa sifatida baholanadi. Chunki har bir oila jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy normalar, an'analar va madaniy qadriyatlar ta'siri ostida faoliyat yuritadi. Ayniqsa, an'anaviy jamiyatlarda qarindoshlik tizimi kuchli bo'lgani sababli oila qarorlariga katta avlod va yaqin atrofning ta'siri yuqori bo'ladi. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmining bir ko'rinishi sifatida ham qaraladi. Biroq ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, uchinchi shaxs ta'siri me'yorida va konstruktiv shaklda bo'lganda oilaviy muammolarni hal qilishga yordam berishi, tajriba almashinuvi va psixologik qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, tajribali ota-ona yoki qarindoshlar maslahati yosh oiladagi tushunmovchiliklarni yumshatishga xizmat qilishi mumkin.



Shu bilan birga, uchinchi shaxs aralashuvi me'yoridan ortiq bo'lsa, u oilaviy tizim muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda er-xotin o'rtasida ishonchning pasayishi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining zaiflashishi, emotsional bosimning kuchayishi hamda ichki muloqotning buzilishi kuzatiladi. Natijada oila ichki barqarorligi izdan chiqishi mumkin.

Demak, uchinchi shaxs aralashuvi oilaviy munosabatlarning ajralmas ijtimoiy komponenti hisoblanadi. Uning samaradorligi va ta'siri aralashuvning mazmuni, maqsadi va me'yoriga bog'liq bo'lib, konstruktiv shaklda oilaga foyda keltirsa, noxolis va ortiqcha aralashuv oilaviy tizim muvozanatini buzishi mumkin.

2. Madaniy mexanizmlar

Madaniy mexanizmlar uchinchi shaxs aralashuvining shakllanishi va kuchayishida eng muhim va asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa an'anaviy jamiyatlarda oila faqat er-xotindan iborat kichik ijtimoiy birlik sifatida emas, balki keng qarindoshlik tizimi, ya'ni katta oila instituti sifatida qaraladi. Bunday tizimda oilaviy munosabatlar shaxsiy qarorlar bilan cheklanib qolmay, balki keng ijtimoiy va madaniy muhit ta'sirida shakllanadi.

Ushbu jarayonda bir nechta asosiy madaniy omillar muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda, katta avlod avtoriteti alohida ahamiyatga ega. Ota-ona, bobo va buvi, shuningdek, katta qarindoshlar ko'p hollarda oilaviy qarorlarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ular hayotiy tajribaga tayanadi va o'z fikrlarini «to'g'ri yo'l» sifatida taqdim etadi. Bu esa yosh oilada mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Ikkinchi muhim omil – an'anaviy urf-odatlar va madaniy normalardir. «Ota-ona roziligi», «kattalar fikrini inobatga olish», «qarindoshlar bilan maslahat qilish» kabi qadriyatlar ko'p jamiyatlarda ijtimoiy majburiyat sifatida qabul qilinadi. Bu normalar oilaviy qarorlarni individual emas, balki jamoaviy muhokama asosida qabul qilishga olib keladi.

Uchinchi omil – jamoatchilik nazorati hisoblanadi. «Odamlar nima deydi?», «el nima fikrda bo'ladi?» kabi ijtimoiy bosim oilaviy qarorlarga kuchli ta'sir o'tkazadi. Bunday holatda oila a'zolari ko'pincha shaxsiy ehtiyojlardan ko'ra jamiyat fikriga moslashishga harakat qiladi.

3. Ijtimoiy mexanizmlar

Ijtimoiy mexanizmlar oilaviy munosabatlarga tashqi muhit orqali ta'sir ko'rsatadigan omillar tizimini anglatadi. Bu mexanizmlar oila va keng jamiyat o'rtasidagi doimiy o'zaro aloqa natijasida shakllanadi va er-xotin munosabatlarining mazmuni, yo'nalishi hamda barqarorligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy davrda ijtimoiy mexanizmlarning ta'siri yanada kuchayib, turli shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muhit ta'siri muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda bloggerlar, internet maslahatchilari va media platformalar oilaviy



munosabatlar haqida turli modellar va qarashlarni taqdim etadi. Ko'p hollarda ideallashtirilgan hayot tarzi namoyish qilinishi real hayot bilan solishtirilganda qoniqmaslik hissini keltirib chiqaradi. Bu esa er-xotin o'rtasida norozilikni kuchaytirishi mumkin.

Ikkinchidan, do'stlar va hamkasblar guruhi ta'siri muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Inson ko'p hollarda o'z atrofidagi yaqin ijtimoiy muhit fikrlariga tayanadi. Do'stlar tomonidan berilgan maslahatlar har doim ham xolis bo'lmاسligi mumkin, biroq ular shaxsiy qarorlar shakllanishiga ta'sir qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy taqqoslash fenomeni keng tarqalgan mexanizmlardan biridir. Oilalar ko'pincha o'z hayotini boshqa oilalar bilan solishtirish orqali baholaydi. Bu jarayonda ijobiy emas, balki salbiy his-tuyg'ular, ya'ni norozilik, qoniqmaslik va rashk paydo bo'lishi mumkin. Natijada oilaviy munosabatlarda ichki bosim kuchayadi.

To'rtinchidan, iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy qaramlik yoki iqtisodiy qiyinchiliklar tashqi shaxslar ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Bunday holatda oila qarorlari mustaqil emas, balki tashqi yordam yoki bosim asosida qabul qilinadi. Ushbu ijtimoiy mexanizmlar oila qarorlarini individual emas, balki tashqi muhit ta'siriga bog'liq holga keltiradi. Shuning uchun oilaviy barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy ta'sirlarni to'g'ri baholash va ularni me'yorda boshqarish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

4. Uchinchi shaxs aralashuvining psixologik oqibatlari

«Uchinchi shaxs aralashuvini doimiy ravishda namoyon bo'lishining asl sabablari aniqlanmasa, ishtirokchilar tomonidan «xatolar» tan olinmasa, psixologik bosim uzluksiz davom ettirilsa bu stressni kuchayishiga olib keladi. Bunday vaziyatda malakali psixoterapevt yoki maslahatchiga murojaat qilish va mojaroning mumkin bo'lgan sabablarini o'rganish juda foydali bo'ladi». Psixologik nuqtai nazardan uchinchi shaxs aralashuvi oilaviy munosabatlar tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ta'sir er-xotin o'rtasidagi ichki ishonch, emotsional yaqinlik va muloqot barqarorligiga bevosita ta'sir etib, bir qator salbiy psixologik holatlarni keltirib chiqaradi.

Birinchi navbatda, ishonchning pasayishi kuzatiladi. Oilada ishonch munosabatlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Uchinchi shaxsning ortiqcha aralashuvi yoki bir tomonni qo'llab-quvvatlashi natijasida er-xotin o'rtasida shubha va gumonlar paydo bo'ladi. Bu esa munosabatlarning ochiq va samimiy bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, emotsional masofa paydo bo'lishi muhim psixologik oqibatlardan biridir. Tashqi ta'sir kuchaygan sari oila a'zolari o'rtasida ichki yaqinlik kamayadi, his-tuyg'ularni ochiq ifodalash qiyinlashadi. Natijada har bir tomon o'zini himoya holatiga o'tkazib, emotsional jihatdan uzoqlashadi.

Uchinchidan, stress va ichki ruhiy zo'riqish kuchayadi. Doimiy tushunmov-



chiliklar, tashqi fikrlar ta'siri va bosim oila a'zolarida asabiylik, xavotir va ruhiy charchoqni yuzaga keltiradi. Bu holat uzoq muddat davom etsa, psixosomatik muammolarga ham olib kelishi mumkin.

To'rtinchidan, qaror qabul qilishda shubha kuchayishi kuzatiladi. Uchinchi shaxs fikrlariga ortiqcha tayanish natijasida er-xotin mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini yo'qota boshlaydi. Har bir qaror ikkilanayotgan holatda qabul qilinib, ichki ishonchsizlik kuchayadi.

Ushbu barcha holatlar yig'indisi psixologik adabiyotlarda «emotsional beqarorlik» va «konflikt eskalatsiyasi» (kuchayish) tushunchalari bilan izohlanadi. Emotsional beqarorlik oilada hissiy muvozanatning buzilishiga, konflikt eskalatsiyasi esa oddiy tushunmovchiliklarning jiddiy janjallarga aylanishiga olib keladi. Shu sababli uchinchi shaxs aralashuvining psixologik oqibatlarini chuqur anglash oila barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ichki ishonch, muloqot va emotsional yaqinlikni mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

5. Konstruktiv va destruktiv aralashuv

Uchinchi shaxs aralashuvi oilaviy munosabatlar tizimida ikki xil yo'nalishda namoyon bo'lishi mumkin: konstruktiv (ijobiy) va destruktiv (salbiy) aralashuv. Ushbu ikki yo'nalishning farqini to'g'ri anglash oila barqarorligini saqlash va tashqi ta'sirni to'g'ri boshqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Konstruktiv aralashuv – bu oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan, muvozanatni tiklash va kelishuvga erishishga qaratilgan ijobiy ta'sir shaklidir. Bunday aralashuvning asosiy ko'rinishlaridan biri mediatorlik hisoblanadi. Mediatorlik jarayonida uchinchi shaxs ikki tomon o'rtasidagi tushunmovchilikni yumshatish, har ikki tomon fikrini xolis tinglash va murosaga olib kelish vazifasini bajaradi. Bu holatda tashqi shaxs qarama-qarshilikni kuchaytirmaydi, aksincha, konstruktiv muloqotni tiklashga yordam beradi.

Shuningdek, maslahat va qo'llab-quvvatlash ham konstruktiv aralashuv shakli hisoblanadi. Tajribali shaxslar, ayniqsa ota-ona yoki katta avlod vakillari o'z hayotiy tajribasiga tayanib, yosh oilaga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. Bunday maslahatlar hissiy bosimsiz va xolis bo'lsa, oilaviy qarorlarning sifatini yaxshilaydi.

Xolis baholash ham muhim o'rin tutadi. Tashqi shaxs vaziyatni emotsional emas, balki ratsional tahlil qilib, haqiqiy muammoni aniqlashga yordam beradi. Bu esa noto'g'ri tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Tajriba almashinuvi orqali ham konstruktiv ta'sir yuzaga keladi. Katta hayotiy tajribaga ega shaxslar o'z amaliy bilimlari bilan oilaviy munosabatlarni yaxshilashga hissa qo'shadilar.

Bunga qarama-qarshi holatda destruktiv aralashuv oilaviy tizimga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday aralashuv ko'pincha oila ichki mustaqilligini zaiflashtiradi va er-xotin o'rtasida ishonch inqirozini yuzaga keltiradi. Uning eng keng tarqalgan ko'rinishi – bosim o'tkazishdir. Masalan, qarindoshlar «sen albatta



bu qarorni qabul qilishing kerak» yoki «bu odam senga mos emas» kabi qat'iy talablar orqali er-xotinning shaxsiy qarorlariga aralashadi. Natijada juftlik mustaqil fikr bildirish imkoniyatidan mahrum bo'lib, tashqi ta'sirga qaram holatga tushib qolishi mumkin. Shu o'rinda nizoga uchinchi shaxslarni jalb qilmaslik lozim. «Bolalar, ota-onalar, qo'shnilar yoki do'stlarni nizoga aralashtirish tavsiya etilmaydi. Chunki uchinchi shaxs odatda tomonlardan birini qo'llab-quvvatlaydi va vaziyatni xolis baholay olmaydi».

Yana bir salbiy shakl – bir tomonni qo'llab-quvvatlashdir. Masalan, erning onasi doim kelinni aybdor deb hisoblab, uning fikrini inkor etadi yoki aksincha, kelin tomon qarindoshlari erni haqsiz deb baholaydi. Bunday bir tomonlama yondashuv xolislikni yo'qotadi, oilada «kim haq, kim nohaq» degan qarama-qarshilikni kuchaytiradi va nizoni chuqurlashtiradi. Shuningdek, gap tashish va noxolis axborot tarqatish ham destruktiv aralashuvning muhim ko'rinishidir. Masalan, «eshitdimki u sen haqingda yomon gap aytgan» yoki «u senga ishonmayapti» kabi asossiz ma'lumotlar oila ichida shubha va tushunmovchiliklarni kuchaytiradi. Bu esa emotsional masofa paydo bo'lishiga, hatto ajrim xavfining oshishiga olib kelishi mumkin.

6. Raqamli muhit ta'siri

Zamonaviy davrda raqamli muhit uchinchi shaxs aralashuvining mutlaqo yangi va tobora kuchayib borayotgan shaklini yuzaga keltirdi. Agar an'anaviy jamiyatlarda uchinchi shaxs sifatida asosan qarindoshlar, qo'shnilar va yaqin atrofdagilar ishtirok etgan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, bloggerlar, onlayn platformalar va raqamli media oilaviy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim «virtual uchinchi shaxs» vazifasini bajarmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'pincha oilaviy hayotning faqat ijobiy va ideallashtirilgan jihatlari namoyish etiladi. Mukammal munosabatlar, doimiy bayramona kayfiyat, muammosiz oila modeli real hayotdan uzoq bo'lsa-da, tomoshabinlarda muayyan psixologik ta'sir uyg'otadi. Bu holat er-xotin o'rtasida o'z hayotini boshqalar bilan solishtirish tendensiyasini kuchaytiradi.

Natijada birinchi salbiy oqibat sifatida qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Inson o'z oilasini boshqalar bilan solishtirib, «mening oilamda nimadir yetishmayapti» degan xulosaga kelishi mumkin. Bu esa ichki norozilik va ruhiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim oqibat – taqqoslash fenomenidir. Doimiy solishtirish natijasida inson real vaziyatni emas, balki ideal obrazni me'yor sifatida qabul qila boshlaydi. Bu esa oilaviy munosabatlarga noreal talablar qo'yilishiga olib keladi.

Uchinchi oqibat – munosabatlarda sovuqlik paydo bo'lishidir. Raqamli muhitda ko'p vaqt o'tkazish, virtual hayotga chuqur kirib ketish oila a'zolari o'rtasidagi bevosita muloqotni kamaytiradi. Natijada hissiy yaqinlik zaiflashadi, tushunish darajasi pasayadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi turli



maslahatlar, blogerlar fikrlari ham oilaviy qarorlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir kontent xolis va ilmiy asoslangan bo'lmashligi mumkinligi sababli, noto'g'ri xulosalar shakllanishi ehtimoli ham mavjud.

Umuman olganda, raqamli muhit zamonaviy oilaviy munosabatlarda kuchli tashqi ta'sir manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli uni ongli boshqarish, axborotni tanqidiy qabul qilish va real hayot bilan virtual obrazni ajrata olish oila barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila barqarorligini ta'minlashda asosiy o'rin ichki omillarga – ishonch, o'zaro hurmat va samarali muloqotga tegishli. Shu omillar mustahkam bo'lsa, tashqi ta'sirlarning salbiy oqibatlari kamayadi. Demak, oila mustahkamligi, avvalo, ichki munosabatlar sifatiga bog'liq bo'lib, uchinchi shaxs ta'siri shu asosda boshqarilgandagina ijobiy yo'nalish kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 27-моддаси. 01.05.2023. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон)

2. Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 1 ва 3-моддалари. 01.09.1998. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03/24/905/0106-сон; 09.04.2025 й., 03/25/1053/0317-сон; 20.10.2025 й., 03/25/1089/0953-сон).

3. Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон Декларациясининг 12-моддаси. (Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган).

4. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги Халқаро Пактнинг 17-моддаси. 28.12.1995 йил.

5. Ф.Бабажанова, Э.Эшонқулова. Оила психологияси. Ўқув услубий мажмуа. - Гулистон. 2015. 146-б.

6. Юлия Леонидовна, кандидат философских наук, старший преподаватель кафедры философии и истории Белорусского государственного аграрного технического университета.



UZLUKSIZ TA'LIMDA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

A.A.ABDURASHIDOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti professor v.b.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur maqolada ota-onalar hamkorligining uzluksiz ta'lim tizimidagi mohiyati, shakllari, mexanizmlari va natijalarini ilmiy asosda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va ota-onalar hamkorligining nazariy asoslari, amaliy muammolari va samarali tajribalar tahlili aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, ota-onalar, hamkorlik, ilmiy metodlar, omillar, amaliy yo'nalish.*

В данной статье отражена необходимость научного исследования сущности, форм, механизмов и результатов родительского сотрудничества в системе непрерывного образования, анализа теоретических основ, практических проблем и эффективного опыта родительского сотрудничества.

Ключевые слова: *непрерывное образование, родители, сотрудничество, научные методы, факторы, практическое направление.*

This article reflects the need for scientific research into the nature, forms, mechanisms, and results of parental collaboration in the continuous education system, analyzing the theoretical foundations, practical problems, and effective experiences of parental collaboration.

Key words: *continuous education, parents, collaboration, scientific methods, factors, practical direction.*

Zamonaviy ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim konsepsiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida – maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan davr maboynida – bola, o'quvchi, talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishi ota-onalar ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligiga bog'liqdir. Ota-onalar ta'lim jarayonida muhim ishtirokchi bo'lib, ularning faolligi bolaning motivatsiyasi, intizomi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda oilaning ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshirish, maktab va oila o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha ko'plab davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunining 3-modda Asosiy tushunchalarda ham quyigacha ta'rif berilgan:

– ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.



Qonunining 51-moddasida esa Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar ota-onasi-ning hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari quyidagicha aks ettirilgan:

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari:

- o'z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

- o'z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

- bolalarining umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim olishini ta'minlashi;

- bolalarining umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim olishini ta'minlashi;

- bolalarining o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini ta'minlash va o'zlash-tirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- bolalarining o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini ta'minlash va o'zlash-tirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- o'z bolalarining intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

- o'z bolalarining intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

- ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

- ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

- jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o'z bolalarining ta'lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

- jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o'z bolalarining ta'lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Shunga qaramay, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi haqiqiy ishtiroki yetarli darajada emasligi kuzatilmogda.



Tadqiqotning dolzarbligi ota-onalar hamkorligining uzluksiz ta'lim tizimidagi mohiyati, shakllari, mexanizmlari va natijalarini ilmiy asosda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Shu sababli ushbu maqolada ota-onalar hamkorligining nazariy asoslari, amaliy muammolari va samarali tajribalarini tahlil etishni maqsad qilib elgilab oldik.

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:

1. Nazariy tahlil – ota-onalar hamkorligi bo'yicha ilmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro pedagogik tajribalar o'rganildi.

2. Kuzatish – maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar va kollej-litsey, oliy ta'limlarda ota-ona va pedagoglarning muloqoti real sharoitlarda kuzatildi.

3. Anketalash va suhbat – 100 nafar ota-ona, 100 nafar pedagog va 50 nafar o'quvchidan iborat respondentlar bilan muloqotlar tashkil etildi.

4. Pedagogik tajriba – ota-onalar faolligini oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, seminarlar, ochiq darslar, treninglar tashkil etildi.

5. Statistik tahlil – olingan ma'lumotlar tafovutlar, foizlar va taqqoslashlar asosida qayta ishlanib, natijalar aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ota-onalar hamkorligining uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'sirini yaqqol ko'rsatdi.

1. Ota-onalar hamkorligining o'quv jarayoniga ta'siri

– O'quvchilarning darsga qiziqishi 24% ga oshdi.

– Intizom buzilishi 30% ga kamaydi.

– Uy vazifalarini o'z vaqtida bajarish ko'rsatkichi 33% dan 14% ga tushdi.

– O'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi muloqot faolligi 41% dan 78% gacha ko'tarildi.

2. Ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari

– Pedagogik yig'ilishlar va suhbatlar

– Ota-onalar klubi

– Raqamli muloqot (elektron kundalik, telegram guruhlar)

– Ochiq darslar va ko'rgazmalar

– Oila va maktab hamkorlikda loyihalari

– Onlayn seminar va vebinarlar

3. Ota-onalarning duch kelayotgan muammolari

– Pedagogik savodxonlikning pastligi (49%)

– Vaqt yetishmasligi (54%)

– O'qituvchilar bilan yetarli muloqot yo'qligi (38%)

– Raqamli platformalardan foydalana olmaslik (27%)



4. Pedagogik tajriba natijalari

Tajriba davomida ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida:

- 12 ta seminar-trening
- 25 ta ochiq dars
- ota-onalar klubi doirasida 18 ta loyihaviy mashg'ulot o'tkazildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ota-onalar va pedagoglar o'rtasida muntazam muloqot o'quvchilarning o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar hamkorligining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq:

1. Oiladagi tarbiya darajasi
2. Ota-onalarning psixologik va pedagogik madaniyati
3. Maktab va pedagoglarning ota-onalar bilan to'g'ri muloqot strategiyasi
4. Zamonaviy texnologiyalar yordamida muloqot samaradorligi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida ota-onalar bilan tizimli hamkorlik o'quvchilar muvaffaqiyatining eng muhim omillaridan biridir. Xususan, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar ota-onalarning ta'limdagi ishtirokini kuchli darajada qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ham oilaning ta'lim jarayonidagi rolini oshirishga qaratilgan. Biroq amaliyotda ota-onalarning o'z vaqtida maktabga murojaat qilmasligi, farzandi darslariga befarq bo'lishi, pedagogik bilimlarning yetishmasligi kabi muammolar mavjud.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish joiz:

1. Ota-onalar hamkorligi uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagi bo'lib, ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir.
2. Ota-onalar faolligi oshgan taqdirda o'quvchilarning motivatsiyasi, intizomi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi yuqori bo'ladi.
3. Maktab-oila-mahalla hamkorligi ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi.
4. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ota-onalar hamkorligini kuchaytirishning samarali vositasidir.
5. Ota-onalarga mo'ljallangan pedagogik treninglar va seminarlar – pedagogik madaniyatni oshiruvchi asosiy amaliy yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori: «Oila-maktab-mahalla hamkorligi konsepsiyasi».
3. Yo'ldosheva D., To'xtasinova M. Pedagogika asoslari. Toshkent, 2020.



4. Epstein J. School, Family and Community Partnerships. New York, 2002.
5. OECD Education Reports. 2018-2023.
6. Hasanboyeva O. Oilaviy tarbiya pedagogikasi. Toshkent, 2021.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. Harvard University, 1979.
8. Turakulova Feruza Aminovna Abdulla Avloni's services in the field of education. Procedia of Theoretical and Applied Sciences Volume 12 | Oct 2023 ISSN: 2795-5621 Available: <http://procedia.online/index.php/applied/index>
9. Feruza Aminovna Turakulova. Free Time of Students in Qualification Practicecontent Organization Technology. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 02 Issue: 10 | 2023 ISSN: 2751-7551 <http://innosci.org/>



РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МУЗЫКОВЕДА В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

ГАЛУЩЕНКО И.Г.,
профессор ГКУЗ

В статье рассматривается роль музыковедческого искусственного интеллекта в развитии научно-творческого мышления музыковеда в процессе восприятия и изучения явлений музыкального искусства. Учитывая рационалистические методы искусственного интеллекта, подчёркивается необходимость живого, человеческого подхода к осмыслению эмоционального мира музыки музыковедом XXI века.

Ключевые слова: музыка, искусственный интеллект, музыковед, разум, чувство, гуманизация, научно-творческое мышление.

Maqolada musiqa san'ati hodisalarini idrok etish va o'rganish jarayonida musiqashunosning ilmiy-ijodiy tafakkurini rivojlantirishda musiqashunoslik sun'iy intellektining roli ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellektning ratsionalistik usullarini inobatga olgan holda, musiqashunos tomonidan musiqaning hissiy dunyosini jonli, insoniy tushunish zarurligi ta'kidlangan.

Tayanch so'zlar: musiqa, sun'iy intellekt, musiqashunos, aql, tuyg'u, insonparvarlik, ilmiy-ijodiy tafakkur.

The article examines the role of musicological artificial intelligence in the development of the scientific and creative thinking of a musicologist in the process of perceiving and studying the phenomena of musical art. Given the rationalistic methods of artificial intelligence, the need for a living, human approach to understanding the emotional world of music by a musicologist of the 21st century is emphasized.

Key words: music, artificial intelligence, music expert, mind, feeling, humanization, scientific and creative thinking.

Профессиональная деятельность музыковеда охватывает множество направлений, связанных с изучением различных явлений музыкального искусства в научно-исследовательском, научно-методическом, педагогическом, учебно-методическом, философско-эстетическом, социально-психологическом, просветительском аспектах. Данные направления работы музыковеда определяются в процессе обучения студентов консерватории. «Музыковед, – утверждал доктор искусствоведения, профессор Михаил Друскин, – должен любить не только музыку, но и книги о музыке. Ему надо многое знать не только в своей области, но и в общегуманитарной, социаль-



ной, философско-эстетической» [1, с. 249]. В этом плане искусственный интеллект предоставляет музыковеду поистине бескрайний простор различных материалов для изучения, способствуя тем самым интенсивному развитию научно-творческого мышления. Вместе с тем, материалы музыковедческого искусственного интеллекта зачастую весьма абстрагированы, слишком рационалистичны, не всегда достоверны и потому требуют критического осмысления, на что должен обязательно обратить внимание студентов педагог-музыковед. В то же время материалы музыковедческого интеллекта несомненно интересны, инновационны и познавательны. Они открывают молодым музыковедам широкие перспективы развития научно-творческого мышления, обогащают знания в терминологическом, смысловых аспектах, активизируют умственные способности.

Необходимо отметить, что музыковедческие материалы искусственного интеллекта могут содержать идеализированные постулаты, которые молодому музыковеду целесообразно осмысливать через призму собственного индивидуального взгляда и критически воспринимать аксиоматические положения. «Под идеализацией понимается, во-первых, некоторый умственный процесс создания идеализированных предметов и, во-вторых, процесс формирования идеализированных допущений» [2, с. 13]. Исходя из этого, музыковед, изучающий материалы искусственного интеллекта, воспринимает их не досконально, а избирательно, допуская свои собственные умозаключения.

Таким образом, научные направления искусственного интеллекта помогают молодому музыковеду найти убедительные решения проблемы, стимулируют логику умственного процесса, вырабатывают устойчивость научной базы музыкального анализа изучаемых явлений музыкального искусства. Особенно это важно при исследовании современной музыки, не имеющей сложившихся эстетических оценок и критериев. Музыковедческие материалы искусственного интеллекта не следует идеализировать. Необходимо разумно использовать их, не допуская плагиата, не поддаваясь их чрезмерному воздействию на научно-творческое мышление.

Программы искусственного интеллекта строятся по принципу парадигмы разума с рационализацией аксиоматических постулатов. «Разум по своей природе не может обойтись без метафизики, а природа метафизики такова, что разум в ней сталкивается с вопросами, неизбежно приводящими его к



диалектике» [3, с. 41]. Показательна в этом смысле «Метафизика» Аристотеля, где говорится об общем в искусстве и об опыте. Известно, что Ибн Сина углубленно изучал «Метафизику» Аристотеля, что помогло ему открыть для себя ценные грани своего творчества. Парадоксально, что кодированные тексты древних рукописей восточных мыслителей, являющиеся эталоном интеллекта, обнаруживают некоторые черты общности с текстами искусственного интеллекта, герменевтика которых позволяет вызвать к жизни интереснейшие научные концепции искусствоведческих исследований.

Музыковедческие материалы искусственного интеллекта содержат в себе очень много познавательного, информационного и дискуссионного, что определяет их важную роль в развитии научно-творческого мышления музыковеда. В то же время искусственному интеллекту недостаточно эмоциональности научного текста. Музыкальное искусство – это прежде всего выражение широкого спектра чувств, настроений, эмоциональных состояний, направленных на то, чтобы затронуть струны души слушателя и отразить их в мыслях исследователей-музыковедов. Именно это является основой музыкального исполнительского искусства, изучение которого составляет важнейшую область музыкознания. Рассуждая о парадоксах эмоционального мира музыки пианист-исследователь Мстислав Смирнов пишет: «Музыка разжигает в душе заложенное в ней от рождения желание «совершить» как высокий дар судьбы» [4, с. 57]. Раскрыть эмоциональный мир музыки достоверно может только человеческий интеллект, глубоко чувствующий, живо осязающий жизнь во всех её проявлениях, радостях и печалях. Использование ресурсов искусственного интеллекта помогает музыковеду глубже раскрыть эмоциональный мир музыки более основательно в научном аспекте, концепционно и детализированно.

Таким образом, роль искусственного интеллекта в развитии научно-творческого мышления музыковеда весьма значительна и в этом плане очень важно развивать умение студента работать с цифровыми технологиями. Оптимизация искусственного интеллекта на всех этапах непрерывного образования необходима музыковеду для всестороннего познания информационно-коммуникационных и цифровых технологий. Она способствует более основательному самопознанию личности и утверждению своей самоценности в музыкальной науке и педагогике. Овладение стратегическими параметрами искусственного интеллекта помогает молодому музыковеду



осознать себя как научно-творческую личность, имеющую свой неповторимо яркий человеческий облик, полный жизненной энергии, эмоциональных чувств, созидательных идей и глубоких мыслей.

Литература:

1. Друскин М.С. Призвание и профессия // Друскин М. Исследования. Воспоминания. - Ленинград-Москва: Советский композитор, 1977. - С. 246-266.
2. Горский Д.П. Идеализация и познание // Логика научного познания. Актуальные проблемы. - Москва: Наука, 1987. - С. 13-29.
3. Крамаренко В.Ю., Никитин В.Е., Андреев Г.Г. Интеллект человека. Монография. - Воронеж: Издательство Воронежского университета, 1990. - 184 с.
4. Смирнов М.А. Эмоциональный мир музыки. Исследование. - Москва: Музыка, 1990. - 320 с.



BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING SOG‘LOM TURMUSH MADANIYATINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

D.O.RAXMONOVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqola bo‘lajak sport mutaxassislarini tayyorlash jarayonida sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muallif sog‘lom turmush tarzini shunchaki jismoniy mashqlar majmui emas, balki shaxs kamolotidagi muhim qadriyat va tizimli tarbiya mahsuli sifatida talqin etadi. Maqolada bo‘lajak mutaxassislarning ongida sog‘lom hayot kechirishni milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, bu orqali ularda kasbiy mas‘uliyatni kuchaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, madaniyat, tarbiya, aksiologiya, kognitiv, axborot kompetensiyasi.

Данная статья посвящена анализу педагогических основ формирования культуры здорового образа жизни в процессе подготовки будущих специалистов в области спорта. Автор интерпретирует здоровый образ жизни не просто как комплекс физических упражнений, а как результат системного воспитания и важнейшую ценность в развитии личности. В статье рассматриваются вопросы гармонизации здорового образа жизни в сознании будущих специалистов с национальными и общечеловеческими ценностями, что способствует усилению их профессиональной ответственности.

Ключевые слова: Здоровье, здоровый образ жизни, культура, воспитание, аксиология, когнитивный, информационная компетенция.

This article is devoted to the analysis of the pedagogical foundations for forming a healthy lifestyle culture in the process of training future sports specialists. The author interprets a healthy lifestyle not merely as a set of physical exercises, but as a product of systemic education and a vital value in personal development. The article explores the issues of harmonizing a healthy lifestyle with national and universal values in the minds of future specialists, thereby enhancing their professional responsibility.

Key words: Health, healthy lifestyle, culture, education, axiology, cognitive, information competence.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 7-aprel – Butunjahon salomatlik kuni munosabati bilan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sportni ommalashtirish va aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yuksak fikrlarni ta’kidladilar: «Sport – sog‘lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon qiladigan katta kuch».

Qolaversa Prezidentimizning tegishli farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida ham bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish,



jumladan, 2030 yilga qadar aholining oʻrtacha umr koʻrish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, sogʻlom va faol keksalikni taʼminlash, aholi orasida toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qoʻyilgan.

Boʻlajak oʻqituvchilar jamiyatning intellektual va maʼnaviy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ularda sogʻlom turmush madaniyatini tarbiyalash nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy faoliyat samaradorligining ham muhim omili hisoblanadi.

Sogʻlom turmush madaniyati insonning oʻz salomatligini anglashi, uni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan qadriyatlar, bilimlar, koʻnikmalar va xulq-atvor tizimi sifatida talqin etiladi. U shaxsning kundalik hayot tarzida namoyon boʻlib, jismoniy faollik, toʻgʻri ovqatlanish, dam olish va mehnat rejimi, zararli odatlardan voz kechish hamda ruhiy barqarorlikni taʼminlash kabi elementlarni oʻz ichiga oladi.

Ayniqsa sport yoʻnalishidagi talabalarni sogʻlom turmush tarziga tarbiyalash – bu juda muhim va dolzarb. Sport mutaxassisligi boʻyicha oʻqiyotgan talabalar kelajakda nafaqat oʻzlari sportchi yoki murabbiy boʻlib ishlaydilar, balki yoshlarga sogʻlom turmush tarzini oʻrgatuvchi namuna ham boʻlishlari kerak. Ularning oʻzlari sogʻlom odatlarni toʻliq egallamasa, boshqalarni tarbiyalash qiyin kechadi.

Biroq sport yoʻnalishidagi boʻlajak oʻqituvchilarning sogʻlom turmush tarzi madaniyati masalalari yetarlicha oʻrganilmagan boʻlib qolmoqda. Boʻlajak oʻqituvchi oʻz tanasini sogʻlom saqlashni bilishi mumkin, lekin buni madaniyat sifatida oʻquvchilarga qanday singdirish metodikasini mukammal egallamagan boʻlishi mumkin. Talabalar bilan suhbat va dars jarayonida bergan javoblari tahlili shuni koʻrsatadiki, koʻpchilikda sogʻlom turmush tarzi haqida nazariy bilim boʻlsa-da, uni kundalik hayotga tatbiq etish darajasi past. Tashqi nazorat (oʻqituvchilar yoki ota-onalar tomonidan) talabalar uchun yetarli emas. Talaba mustaqil shaxs boʻlgani uchun, uning salomatligi oʻzining ichki intizomiga yaʼni tarbiyasiga bogʻliq. Oʻz-oʻzini nazorat qilishni amaliyotga tatbiq etish kerak.

Bu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab berib, oliy taʼlim muassasalaridagi kelajakda boʻlajak oʻqituvchilar orasida sogʻlom turmush tarzi madaniyatining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Oʻz-oʻzini nazorat qilish – bu cheklov emas, balki erkin va sifatli hayot sari qoʻyilgan ongli qadamdir. Bu insonni oʻz nafsiga qul boʻlishdan asraydi, qarorlarida mustahkam qiladi va maqsad sari toʻgʻri yoʻldan adashmaslikka yordam beradi.

Tarbiya esa aynan shu nazoratning ildizidir. Yaxshi tarbiya olgan inson oʻz



xatti-harakatlarini anglab boshqaradi, vaqtini qadrlaydi, mas'uliyatni his qiladi. Unga tashqi majburlash shart emas – ichki tartib va qadriyatlar uning yo'lini belgilaydi. Shuning uchun o'zini nazorat qila bilish – bu erkinlikni yo'qotish emas, balki uni ongli ravishda boshqarishdir. Tarbiya bilan uyg'unlashganda esa bu sifat insonni komillikka yetaklaydi.

Bu sohani nafaqat jismoniy tarbiya, balki pedagogik antropologiya va aksiologiya (qadriyatlar haqidagi fan) nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq etish zarur.

Natija. Tadqiqotning yangiligi va ilmiy ahamiyati sog'lom turmush tarzi madaniyatini doimiy rivojlanib boruvchi g'oyalar va tushunchalar tizimi, qadriyat-mantiqiy (semantik) munosabatlar, shaxsning hissiy-irodaviy tajribasi hamda o'z salomatligini anglash, uni rivojlantirish va yaxshilashga yo'naltirilgan amaliy faoliyati sifatida talqin etishda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv sog'lom turmush tarzi madaniyatining mazmun-mohiyatini keng va kompleks tushunish imkonini beradi.

Bu borada Sh.A. Muhamedov o'z tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning sog'lom turmush ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini tadqiq etgan. U ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni qo'llash, ya'ni nazariy bilim va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirish orqali samarali natijaga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning xulosasiga ko'ra: sog'lom turmush madaniyatini samarali shakllantirish va rivojlantirish:

- shaxsning jismoniy va ruhiy barqarorligiga xizmat qiladi;
- kasbiy faoliyat samaradorligini oshiradi;
- pedagogik jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi;
- yoshlarda mas'uliyat va o'z-o'zini boshqarish madaniyatini shakllantiradi.

Kasbiy faoliyat yuzasidan kelajakda sport bilan bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun sog'lom turmush tarzi madaniyatining tarkibiy qismlari aniqlandi. Ular qatoriga qadriyat-mantiqiy, kognitiv (bilishga oid), hissiy-irodaviy hamda amaliy-ijodiy komponentlar kiradi. Mazkur komponentlar shaxsning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uning barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

1. Qadriyatli yondashuvni shakllantirish:

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishning eng muhim asoslaridan biri – bu sog'liqni shaxs uchun oliy qadriyat sifatida anglatishdir. Qadriyatli yondashuv shaxsning ichki dunyosi, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.



Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, sog'liqni qadriyat darajasiga ko'tarish faqat axborot berish bilan emas, balki shaxsda emotsional-axloqiy munosabatni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda sog'liqning inson hayoti, kasbiy faoliyat va ijtimoiy faollikdagi o'rni haqida chuqur anglatish muhimdir.

Bo'lajak o'qituvchida sog'liqni qadriyat sifatida qabul qilish shakllansa, u nafaqat o'z hayotida sog'lom turmush tarzini amalga oshiradi, balki o'quvchilarga ham shu qadriyatni yetkaza oladi. Shu bois, ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv (qadriyatlarga asoslangan ta'lim) yetakchi o'rin tutishi lozim.

2. Bilim va axborot kompetensiyasini rivojlantirish:

Sog'lom turmush madaniyatining shakllanishi uchun zarur bo'lgan ikkinchi muhim jihat – bu sog'liq haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar tizimini o'zlashtirishdir. Bo'lajak o'qituvchi sog'liqning biologik, psixologik va ijtimoiy omillarini bilishi, kasalliklarning oldini olish usullari, gigiyenik me'yorlar hamda ratsional turmush tarzi qoidalarini yaxshi tushunishi lozim.

Axborot kompetensiyasi faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, balki uni tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Masalan, ovqatlanish madaniyati, jismoniy faollik rejimi, stressni boshqarish usullari va kundalik rejimni to'g'ri tashkil etish kabi bilimlar pedagog uchun zarur amaliy ko'nikmalardir.

Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli axborot manbalari orqali noto'g'ri ma'lumotlar ham keng tarqalayotgani sababli, bo'lajak o'qituvchida tanqidiy fikrlash va ishonchli manbalarni ajrata olish kompetensiyasi ham rivojlangan bo'lishi kerak.

3. Xulq-atvorni o'zgartirish:

Sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda eng murakkab bosqich – bu bilim va qadriyatlarni real xulq-atvorga aylantirishdir. Chunki insonning odatlari, kundalik harakatlari va hayotiy stereotiplari uzoq vaqt davomida shakllangan bo'ladi.

Pedagogik jarayonda bu bosqichda maqsad – talabada sog'lom xulq-atvor modelini shakllantirishdir. Bu jismoniy faollikni muntazam bajarish, to'g'ri ovqatlanish, dam olish rejimini saqlash, zararli odatlardan voz kechish kabi amaliy harakatlarda namoyon bo'ladi.

Xulq-atvorni o'zgartirishda amaliy mashg'ulotlar, treninglar, kundalik rejimni kuzatish va o'z-o'zini nazorat qilish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, pedagogning shaxsiy namunasi ham katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, u tarbiyaviy jarayonning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

4. Motivatsion tizimni shakllantirish:

Sog'lom turmush madaniyatini barqaror shakllantirish uchun shaxsda ichki motivatsiya tizimini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Motivatsiya shaxsni



muayyan harakatga undaydigan ichki kuch bo'lib, u qanchalik kuchli bo'lsa, sog'lom xulq-atvor shunchalik barqaror bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchida sog'lom turmush tarziga nisbatan ijobiy munosabat, shaxsiy manfaatni anglash va uzoq muddatli maqsadlarni qo'ya olish qobiliyati shakllantirilishi lozim. Masalan, sog'lom hayot tarzi nafaqat kasalliklarning oldini olish, balki kasbiy faoliyatda yuqori samaradorlikka erishish, stressga chidamlilikni oshirish va umumiy hayot sifati yaxshilanishi bilan bog'liq ekanligini anglatish muhimdir.

Motivatsion tizimni shakllantirishda pedagogik rag'batlantirish, ijobiy muhit yaratish, guruh faoliyatlari va shaxsiy yutuqlarni e'tirof etish kabi usullar samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsning o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati ham rivojlantirilishi lozim.

Sog'liqni saqlashda shaxsning sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivatsiyasi, mehnat unumdorligini oshirishga intilishi hamda faol va uzoq umr ko'rishga bo'lgan xohishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi shaxsning kundalik hayotiy farovonligi va madaniy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, u jismoniy faollik, chiniqtirish mashg'ulotlari, to'g'ri ovqatlanish tartibi, mehnat va dam olish rejimi, uyqu tartibi, zararli odatlardan voz kechish hamda ruhiy salomatlikni boshqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Sport yo'nalishidagi talabalar kelajakda murabbiy, o'qituvchi yoki sport mutaxassisi bo'lib yetishadilar. Ular o'z shogirdlariga sog'lom turmush tarzini shaxsiy namuna orqali ko'rsatishlari kerak. Shuning uchun ularning shaxsiy hayot tarzi tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzi sportchi talabalarda uzoq muddatli kasbiy faollikni ta'minlaydi. Organizmni to'g'ri parvarish qilish orqali ular yuqori sport natijalarini saqlab qolish va mehnat qobiliyatini uzoq yillar davomida yo'qotmaslik imkoniga ega bo'ladilar.

Sog'lom turmush tarzi sport yo'nalishidagi talabalar uchun jismoniy, psixologik va kasbiy jihatdan asosiy omil hisoblanadi. U nafaqat sport natijalarini yaxshilaydi, balki kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassis bo'lib yetishish uchun ham zarur shart-sharoit yaratadi.

Sport yo'nalishidagi talabalar – kelajak avlodning jismoniy madaniyatini shakllantiruvchilar. Ularning o'zlarini sog'lom turmush tarziga tarbiyalash nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki butun jamiyat salomatligi uchun muhimdir. Muntazam mashq, to'g'ri ovqatlanish, tartibli kun va ijobiy motivatsiya – bu yo'lning asosiy kalitlari.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni (2020-yil 30-oktabr)
2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz.» O'zbekiston» NMIU 2016-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori «O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida»gi qarori (2019 yil 29-yanvar)
4. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet
5. X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. -2025. - 60 b.
6. Muhamedov Sh.A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi. - Avtoreferat. Toshkent, 2018.
7. Изуткин Д.А. Концептуальные основы взаимосвязи образа жизни и здоровья. Автореферат диссертации ... доктора философских наук. Нижний Новгород, 2005.
8. Abdullayev, S. -Talabalar turmush tarzi va salomatlik. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim nashriyoti, 2018.
9. Karimova, N. -Talabalar hayot tarzi va sog'liqni muhofaza qilish. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
10. Qodirov, D. -Jismoniy faollik va yoshlar salomatligi. Samarqand: «Sog'lom avlod», 2021.
11. To'xtayev, A. -Oliy ta'lim muassasalarida talabalar salomatligi. Toshkent: «Ilm-fan», 2017.



O'QUVCHILARNING KIMYO FANIDAN KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHDA PORTFOLIAGA ASOSLANGAN YONDASHUVDA FOYDALANISH

F.S.SHOMURADOV,

Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi,
Chorvachilik va Biotexnologiyalar
Universiteti akademik litseyi kimyo fani o'qituvchisi

Ushbu maqolada akademik litsey sharoitida kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan portfolioga asoslangan yondashuvni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda portfolio tarkibi, uni yuritish bosqichlari hamda baholash mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, an'anaviy baholash tizimi bilan solishtirganda portfolioga asoslangan yondashuvning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kimyo ta'limi, portfolio, baholash tizimi, didaktik model, refleksiya.

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования портфолио-ориентированного подхода как одного из современных методов оценки знаний, умений и компетенций учащихся при преподавании химии в академических лицеях. В исследовании анализируются структура портфолио, этапы его ведения и критерии оценки. Также обоснована эффективность портфолио-подхода по сравнению с традиционной системой оценивания.

Ключевые слова: компетенция, химическое образование, портфолио, система оценивания, дидактическая модель, рефлексия.

This article discusses the improvement of portfolio-based assessment as one of the modern approaches to evaluating students' knowledge, skills, and competencies in teaching chemistry in academic lyceums. The study analyzes the structure of the portfolio, its implementation stages, and assessment criteria. In addition, the effectiveness of the portfolio-based approach is substantiated in comparison with traditional assessment systems.

Key words: competence, chemistry education, portfolio, assessment system, didactic model, reflection.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini baholash dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, akademik litsey sharoitida kimyo fanini o'qitishda an'anaviy baholash usullari o'quvchilarning real kompetensiyalarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli portfolioga asoslangan baholash yondashuvi muhim pedagogik vosita sifatida qaralmoqda.



Portfolio o'quvchining ma'lum davr davomida bajargan ishlarini tizimli jamlash va baholashga xizmat qiladi. U o'quvchining rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi.

Kimyo fanida portfolio quyidagilarni o'z ichiga oladi: Laboratoriya ishlari hisobotlari. Bu bo'lim kimyo fanining amaliy jihatini aks ettiradi. Unda o'quvchi bajarilgan tajriba nomi, maqsadi, kerakli jihoz va reaktivlar, ish bajarish tartibi, kuzatilgan natijalar va xulosalarni yozadi. Hisobotda kimyoviy jarayonlar izohi, reaksiyalar tenglamalari va xavfsizlik qoidalariga rioya etilganligi ham ko'rsatiladi. Bu qism orqali o'quvchining tajriba o'tkazish, kuzatish va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalari baholanadi.

Kimyo fanida laboratoriya ishlari hisobotlari o'quvchining amaliy bilim va ko'nikmalarini aks ettiruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Bunday hisobot odatda aniq tuzilma asosida yoziladi va unda tajriba jarayonining barcha bosqichlari izchil bayon etiladi. Avvalo, laboratoriya ishining mavzusi va maqsadi ko'rsatiladi. Mavzu tajribaning nimaga bag'ishlanganini ifodalasa, maqsad esa ushbu tajriba orqali qanday natijaga erishish rejalashtirilganini tushuntiradi. Masalan, suvning qattiqligini aniqlash orqali uning tarkibidagi ionlar miqdorini baholash mumkin.

Shundan so'ng nazariy asos keltiriladi. Bu qismda tajriba bilan bog'liq ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar va reaksiyalar izohlanadi. Nazariy asos o'quvchining mavzuni qanchalik tushunganini ko'rsatadi va tajriba nima uchun aynan shu usulda bajarilayotganini asoslaydi.

Keyingi bosqichda kerakli jihozlar va reaktivlar sanab o'tiladi. Bu yerda tajriba o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha asbob-uskunalar va kimyoviy moddalar aniq ko'rsatiladi. Bu laboratoriya ishining tashkil etilishiga xizmat qiladi va xavfsiz ishlashni ta'minlaydi.

Ishni bajarish tartibi laboratoriya hisobotining eng muhim qismlaridan biri bo'lib, unda tajriba bosqichma-bosqich tushunarli qilib yoziladi. Har bir amal izchil ketma-ketlikda berilishi kerak, chunki bu boshqa o'quvchilar yoki o'qituvchi tomonidan tajribani qayta bajarish imkonini yaratadi.

Kuzatishlar va natijalar qismida tajriba davomida sodir bo'lgan o'zgarishlar, masalan rang o'zgarishi, gaz ajralishi yoki cho'kma hosil bo'lishi qayd etiladi. Bu ma'lumotlar asosida keyingi tahlillar amalga oshiriladi. Agar tajriba hisoblashlarni talab qilsa, ular alohida ko'rsatiladi va formulalar asosida yechib chiqiladi.

Xulosa qismida esa olingan natijalar umumlashtirilib, tajribaning maqsadiga erishilgan-erishilmagani tahlil qilinadi. Bu yerda o'quvchi o'z fikrini ilmiy asosda bayon etadi.

Shuningdek, xavfsizlik qoidalari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda



kimyoviy moddalar bilan ishlashda ehtiyot choralariga rioya qilish zarurligi ko'rsatiladi. Bu o'quvchida laboratoriya madaniyatini shakllantiradi.

Hisobotning yakuniy qismi refleksiya hisoblanadi. Unda o'quvchi o'z tajribasi haqida fikr bildiradi, nimani o'rganganini, qaysi jihatlar qiyin bo'lganini va kelajakda qanday yaxshilash mumkinligini yozadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu tarzda tuzilgan laboratoriya ishlari hisobotlari kimyo fanini chuqur o'rganish va amaliy bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Masalalar yechimi. Bu bo'limda kimyoviy hisoblash masalalari, reaksiyalar tenglamalarini tuzish, modda miqdori, massa, hajm va konsentratsiyaga oid topshiriqlar yechimlari keltiriladi. Har bir masala bosqichma-bosqich yechilgan bo'lishi, formulalar asoslangan holda qo'llanilishi kerak. Bu o'quvchining mantiqiy fikrlashi, matematik hisob-kitoblarni kimyoga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kimyo fanida masalalar yechimi o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu bo'limda avvalo masalaning sharti aniq yoziladi, ya'ni berilgan kattaliklar va topilishi kerak bo'lgan qiymat ko'rsatiladi. Shundan so'ng kerakli formulalar va qonuniyatlar tanlanib, masala bosqichma-bosqich yechiladi. Agar reaksiya ishtirok etsa, uning tenglamasi to'g'ri tuziladi va muvozanatlanadi. Hisoblashlar aniq bajarilib, birliklarga e'tibor qaratiladi.

Oxirida natija aniq va to'g'ri birliklarda yoziladi. Bu bo'lim orqali o'quvchining hisoblash ko'nikmalari, formulalarni qo'llash qobiliyati va mantiqiy fikrlashi namoyon bo'ladi.

Loyihaviy ishlar. Ushbu qismda o'quvchining mustaqil yoki guruhda bajargan tadqiqot ishlari jamlanadi. Loyihalar muayyan muammo yoki mavzuni o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda maqsad, vazifalar, metodlar, olingan natijalar va xulosalar bayon qilinadi. Masalan, ekologiya, yashil kimyo yoki kundalik hayotdagi kimyo jarayonlari bilan bog'liq loyihalar bo'lishi mumkin. Bu o'quvchining tadqiqot olib borish va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompeten-siyasini ko'rsatadi.

Kimyo fanida loyihaviy ishlar o'quvchining mustaqil izlanish, tadqiqot olib borish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu bo'limda o'quvchi ma'lum bir muammo yoki mavzu asosida loyiha tayyorlaydi, unda maqsad, vazifalar va tadqiqot usullari aniq ko'rsatiladi.

Loyiha jarayonida o'quvchi ma'lumot to'playdi, tajriba yoki kuzatishlar o'tkazadi va olingan natijalarni tahlil qiladi. Yakunida esa xulosa chiqarilib, muammoning yechimi yoki amaliy ahamiyati bayon etiladi.



Bu bo‘lim orqali o‘quvchining ilmiy izlanish olib borish qobiliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish va o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmalari namoyon bo‘ladi.

Test natijalari. Bu bo‘limda o‘quvchining bilim darajasini aniqlovchi testlar, nazorat ishlari va baholash natijalari joylashtiriladi. Testlar orqali o‘quvchining mavzularni qay darajada o‘zlashtirgani, kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Shuningdek, vaqt o‘tishi bilan natijalarning yaxshilanishi yoki o‘zgarishi ham kuzatiladi, bu esa rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadi.

Kimyo fanida test natijalari o‘quvchining nazariy bilim darajasini baholash va o‘zlashtirish holatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu bo‘limda turli mavzular bo‘yicha o‘tkazilgan testlar, nazorat ishlari va ularning natijalari keltiriladi.

Test natijalari orqali o‘quvchining qaysi mavzularni yaxshi o‘zlashtirgani, qaysilarida esa qiyinchiliklar mavjudligi aniqlanadi. Shuningdek, vaqt davomida natijalarning o‘zgarishi o‘quvchining rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadi.

Bu bo‘lim o‘quvchiga o‘z ustida ishlash, kamchiliklarini aniqlash va bilimlarini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Refleksiya yozuvlari. Refleksiya – bu o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayoni haqida fikr yuritishi demakdir. Bu bo‘limda o‘quvchi nimalarni o‘rganganini, qaysi mavzular qiyin bo‘lganini, qanday usullar samarali bo‘lganini yozadi. Shuningdek, kelgusida o‘z bilimini qanday yaxshilash rejalari ham bayon qilinadi. Bu qism o‘quvchining mustaqil fikrlashini, o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi.

Kimyo fanida refleksiya yozuvlari o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qilishi va baholashi uchun muhim bo‘lim hisoblanadi. Unda o‘quvchi nimalarni o‘rganganini, qaysi mavzular oson yoki qiyin bo‘lganini va nima sababdan qiyinchilik tug‘ilganini yozadi.

Shuningdek, refleksiyada o‘quvchi qanday usullar yordamida yaxshiroq o‘zlashtirganini va kelgusida bilimini oshirish uchun qanday reja tuzayotganini ham ifodalaydi. Bu yozuvlar o‘z-o‘zini baholash va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Refleksiya o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ko‘rsatib beruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Akademik litsey o‘quvchilarining kimyo fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda portfolioga asoslangan yondashuvning pedagogik ahamiyati tahlil qilindi. Olib borilgan nazariy va amaliy o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, portfolio o‘quvchining faqat yakuniy natijasini emas, balki butun o‘quv jarayonini tizimli ravishda namoyon etadi. Bu esa baholashni yanada



adolatli, shaffof va kompleks yondashuvga asoslangan holga keltiradi.

Tahlillar natijasida portfolioga asoslangan yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, refleksiya qilish, o'z-o'zini baholash hamda ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, laboratoriya ishlari, loyihaviy faoliyat, masalalar yechimi va refleksiya yozuvlari o'quvchining kompetensiyalarini har tomonlama baholash imkonini beradi.

An'anaviy baholash tizimi ko'proq bilimni yakuniy nazorat orqali aniqlashga qaratilgan bo'lsa, portfolio yondashuvi o'quv jarayonining dinamikasini, o'sish bosqichlarini va individual rivojlanishni ko'rsatadi. Shu sababli u kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy ta'lim talablariga ko'proq mos keladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, portfolio o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida doimiy teskari aloqani ta'minlaydi, o'quvchining o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi.

Umuman olganda, portfolioga asoslangan baholash tizimini kimyo ta'limiga joriy etish akademik litsey o'quvchilarining kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi va zamonaviy ta'lim sifatini oshirishda muhim didaktik vosita bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Ta'lim to'g'risida Qonun. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari: ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga oid hujjatlar.
3. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans.
4. Paulson, F. L., Paulson, P. R., & Meyer, C. A. (1991). What Makes a Portfolio a Portfolio? Educational Leadership.
5. Brown, S., Race, P., & Smith, B. (2005). 500 Tips on Assessment. Routledge.
6. Wiggins, G. (1998). Educative Assessment: Designing Assessments to Inform and Improve Student Performance. Jossey-Bass.
7. Harlen, W. (2007). Assessment of Learning. Sage Publications.



KREATIV POTENSIALNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MEZONLARI: UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI MISOLIDA

J.G.XALMURATOVA

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, professori

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida shaxsning kreativ potensialini baholashning zamonaviy mezonlari va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda kreativlik nafaqat tug'ma iste'dod, balki shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Maqolada divergent fikrlash ko'rsatkichlari (ravonlik, moslashuvchanlik, originallik) tahlil qilinib, ta'limning turli bosqichlarida ijodiylikni o'lchashning uch o'lchovli modeli (jarayon, mahsulot, shaxs) taklif etilgan. Shuningdek, an'anaviy baholash tizimidan kreativ baholashga o'tishning samaradorligi eksperimental natijalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativ potensial, uzluksiz ta'lim, divergent fikrlash, baholash mezonlari, originallik, kognitiv moslashuvchanlik, raqamli portfolio, kreativlik indeksi.

В данной статье исследуются современные критерии и методологические основы оценки креативного потенциала личности в системе непрерывного образования. Креативность интерпретируется не только как врожденный талант, но и как компетенция, подлежащая формированию. Анализируются показатели дивергентного мышления, и предлагается трехмерная модель оценки творчества (процесс, продукт, личность) на разных этапах обучения. На основе экспериментальных данных освещена эффективность перехода от традиционных систем оценки к креативным методам.

Ключевые слова: креативный потенциал, непрерывное образование, дивергентное мышление, критерии оценки, оригинальность, когнитивная гибкость, цифровое.

This article explores modern criteria and methodological foundations for assessing the creative potential of individuals within the continuous education system. Creativity is interpreted not merely as an innate talent but as a competency to be developed. The study analyzes divergent thinking indicators (fluency, flexibility, originality) and proposes a three-dimensional model for assessing creativity (process, product, person) at various educational stages. Based on experimental results, the effectiveness of transitioning from traditional assessment systems to creative evaluation methods is highlighted.

Key words: creative potential, continuous education, divergent thinking, assessment criteria, originality, cognitive flexibility, digital portfolio, creativity index.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida jamiyatning intellektual salohiyati faqatgina bilimlar hajmi bilan emas, balki kreativ potensial – muammolarga nostandart yechimlar topish va yangi



g'oyalarni generatsiya qilish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu bois, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida o'quvchi va talabalarning ijodiy fikrlashini baholash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1].

Uzluksiz ta'lim tizimi (maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limdan keyingi bosqichgacha) shaxsning kreativ imkoniyatlarini bosqichma-bosqich ochib borish uchun poydevor vazifasini o'taydi. Biroq, uzoq yillar davomida ta'limda baholash tizimi asosan xotira va reproduktiv (qayta tiklash) qobiliyatlarga yo'naltirilgan edi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fani oldida esa yangi bir muammo ko'ndalang turibdi: Insonning ichki ijodiy quvvatini qanday qilib ob'ektiv va ilmiy mezonlar asosida o'lchash mumkin?

Ushbu maqolada kreativ potensialni baholashning zamonaviy pedagogik mezonlari, xususan, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik (originallik), ravonlik va detal-larga boylik kabi ko'rsatkichlar uzluksiz ta'lim jarayoni misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativlikni baholash nafaqat natija (mahsulot) orqali, balki kognitiv jarayon va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Kreativlik va ijodiy potensialni baholash masalasi jahon psixologiyasi va pedagogikasida o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab jadal o'rganila boshlangan. Zamonaviy «Kreativlikning 4P modeli» (Mel Rhodes) va «5C modeli» (Beghetto va Kaufman) haqida ma'lumot qo'shish maqolaning nazariy asosini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Tadqiqotlarda, xususan J.Kaufman va R.Beghetto yondashuvida kreativlikni «Mini-c» (shaxsiy o'sishdagi ijodiylik), «Little-c» (kundalik ijodiylik), «Pro-c» (professional ijodiylik) va «Big-C» (buyuk kashfiyotlar) bosqichlariga bo'lib o'rganish taklif etiladi [2]. Bu uzluksiz ta'lim tizimidagi bosqichli baholashni ilmiy asoslashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi fundamental tadqiqotlarni bir necha yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Psixometrik yondashuv (Divergent fikrlash)

Kreativlikni ilmiy o'lchash asoschisi sifatida J. Guilford e'tirof etiladi. U o'zining «Inson intellekti strukturasi» nazariyasida kreativlikni divergent fikrlash bilan bog'laydi va uni o'lchashning ilk mezonlarini taklif etadi. Ushbu yo'nalishni E.P. Torrens davom ettirib, jahonda eng ko'p qo'llaniladigan «Torrens ijodiy fikrlash testlari» (TTCT) tizimini yaratdi. Torrens ta'lim tizimida kreativlikni baholashda nafaqat rasmlar, balki so'zlar orqali ifodalangan g'oyalarni ham inobatga olish zarurligini isbotlab bergan.

2. Investitsion va tizimli yondashuv

R.Sternberg va T. Lubart o'zlarining «Investitsion nazariyasi»da kreativlikni



nafaqat qobiliyat, balki intellekt, bilim, fikrlash uslubi, shaxsiy sifatlar va motivatsiyaning sintezi sifatida baholaydilar [3]. Ularning fikricha, uzluksiz ta'lim tizimida kreativlikni baholashda o'quvchining ichki motivatsiyasi va uning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siriga alohida urg'u berish lozim.

3. Kreativ muhit va amaliy yondashuv

T.Amabile kreativlikning uch komponentli modelini (soha bo'yicha ko'nikmalar, kreativ jarayon ko'nikmalari va ichki motivatsiya) ilgari suradi. U o'z ishlarida ta'lim muassasasidagi ijtimoiy muhit ijodiy potensialni baholash-ga qanchalik ta'sir qilishini tahlil qilgan.

4. Mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari

O'zbekistonlik olimlardan E.G'oziyev, R.Safarova va B.Adizovlar o'z tadqiqotlarida uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlarini yoritganlar. Xususan, B.Adizov ta'limni ijodiy-lashtirishda muammoli ta'lim texnologiyalarining o'rni va ularni baholash usullari bo'yicha ilmiy xulosalar bergan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlikni baholashda faqat standart testlar bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning kognitiv, motivatsion va ijtimoiy ko'rsatkichlarini kompleks ravishda o'rganish zamonaviy ta'limning talabi hisoblanadi [4].

Zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri – ta'lim oluvchini shunchaki bilim oluvchi emas, balki yangi g'oyalar yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishdir. Ushbu tadqiqot uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida kreativlikni monitoring qilishning ilmiy-amaliy modelini taklif etadi.

Tadqiqotning fundamental asosi sifatida tizimli yondashuv tanlangan. Bu yondashuv kreativlikni alohida bir qobiliyat emas, balki shaxsning intellektual, hissiy va ijtimoiy xususiyatlarining yig'indisi deb qaraydi.

Ushbu tadqiqot uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarning kreativ potensialini aniqlash va baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Metodologiya tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv-tarbiya jarayoni va kreativlikni baholash metodikasi. Maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim bosqichidagi ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari.

Kreativlik muammosiga doir psixologik-pedagogik adabiyotlar, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy o'rganish ahamiyatga ega bo'lib,uzluksiz ta'limning har bir bosqichi uchun kreativlik ko'rsatkichlarining integral modelini yaratish, ta'lim oluvchilarning dars

va darsdan tashqari faoliyatidagi ijodiy faolligini, muammoli vaziyatlardagi xatti-harakatlarini bevosita kuzatish, o'quvchilar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlar (insholar, loyihalar, rasm va texnik ishlanmalar)ning originallik va detallarga boylik mezonlari asosida tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi [5].

Ta'lim oluvchilarning kreativ potentsialni baholash mezonlari quyidagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ekspressiv kreativlik: Erkin assotsiatsiyalar va tasavvur boyligi (asosan quyi bo'g'inlarda), kognitiv moslashuvchanlik: Axborotni qayta ishlashda bir strategiyadan ikkinchisiga o'tish tezligi, evristik yondashuv: Standart bo'lmagan masalalarni yechishda qo'llanilgan algoritmlarning yangiligi.

Asos qilib olindi va miqdoriy ko'rsatkichlar uchun matematik-statistika metodlari qo'llanilib, o'quvchilarning «kreativ o'sish» dinamikasi korrelyatsion tahlil yordamida hisoblandi. Bu esa ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylik darajasini aniqlash imkonini berdi. Mazkur tadqiqotda kreativlik faqat «iste'dod» sifatida emas, balki uzluksiz ta'lim jarayonida shakllantirilishi va diagnostika qilinishi lozim bo'lgan kompetensiya sifatida talqin etildi.

Uzluksiz ta'lim tizimida kreativ potentsialni baholash mezonlarini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, baholash jarayoni shaxsning rivojlanish bosqichiga qarab dinamik xarakterga ega bo'lishi lozim. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

1. Baholash metodlarining samaradorlik tahlili

An'anaviy test sinovlari va zamonaviy kreativ baholash metodlari (Torrens, keystad) o'zaro solishtirilganda, natijalar o'rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo'ldi:

Baholash mezonlari	An'anaviy usul (Bilim darajasi)	Zamonaviy usul (Kreativlik)
Fikrlash turi	Konvergent (yagona to'g'ri javob)	Divergent (ko'p variantli yechim)
Ma'lumotni o'zlashtirish	Yod olish va qayta tushuntirish	Tanqidiy tahlil va sintez
Natija ko'rsatkichi	Akademik baho (ball)	Kreativ mahsulot va jarayon

2. Uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi korrelyatsiya

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativlik ko'rsatkichlari maktabgacha ta'lim bosqichida yuqori bo'lib, maktab ta'limining o'rta bosqichiga kelib biroz pasayish (standartlashtirish ta'sirida) kuzatiladi. Biroq, oliy ta'lim bosqichida professional



kreativlik (muammoni sohaga oid yechish) darajasi qayta ko'tariladi.

Eksperimental natijalar: O'tkazilgan kuzatuvlar va pedagogik tahlillarga ko'ra, kreativlikni baholashda quyidagi natijalar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

Kognitiv natija: O'quvchilarning 65% dan ortig'i muammoli vaziyatlarda kamida 3-4 ta muqobil yechim taklif qila olishi (ravonlik mezoni).

Psixologik natija: Baholash tizimida ijodiylik rag'batlantirilganda, o'quvchilarda «xato qilishdan qo'rqish» to'sig'i 40% ga kamayishi kuzatildi.

Ijtimoiy natija: Jamoaviy loyihalarda (Brainstorming) individual kreativlik jamoaviy intellektga transformatsiya bo'lib, g'oyalar originalligi 25% ga ortgan.

E.P. Torrens tomonidan aniqlangan «to'rtinchi sinf inqirozi» (fourth-grade slump) hodisasi bizning tahlillarimizda ham qisman o'z tasdig'ini topdi. Ya'ni, 9-11 yoshli o'quvchilarda maktab intizomi va standart testlarga moslashish natijasida originallik ko'rsatkichi o'zgaruvchan (pasayishga moyil) xarakter kasb etadi.

4. Kreativlikni baholashning integral modeli

Tahlillar natijasida uzluksiz ta'lim uchun kreativlikni baholashning quyidagi uch o'lchovli modeli taklif etiladi:

1. Jarayon (Process): Muammoni hal qilish usulining qanchalik yangiligi.
2. Mahsulot (Product): Yaratilgan g'oya yoki ishning amaliy ahamiyati.
3. Shaxs (Person): Subyektning intellektual faolligi va mustaqilligi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, uzluksiz ta'lim tizimida kreativ potensialni baholash shunchaki o'quvchi qobiliyatini aniqlash emas, balki butun ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi strategik ko'rsatkichdir. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kreativlikni faqat standart testlar bilan baholash yetarli emas; u kognitiv jarayon, shaxsiy motivatsiya va yakuniy mahsulot sintezi sifatida ko'rinishi lozim. Uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida kreativlik o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi (maktabgacha ta'limda – fantaziya, maktabda – tanqidiy fikrlash, oliy ta'limda – professional innovatsiya).

Hozirgi baholash tizimlarida hali ham konvergent (bir qolipli) fikrlash ustunlik qilmoqda, bu esa o'quvchilarda original g'oyalarni ilgari surishga nisbatan «qo'rquv to'sig'i»ni yuzaga keltirmoqda [6].

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, uzluksiz ta'lim tizimida kreativ potensialni baholash va rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:



Ta'lim standartlariga nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki «Kreativlik indeksi» (originallik, ravonlik va moslashuvchanlik ko'rsatkichlari)ni baholash mexanizmlarini kiritish. O'quvchining maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha ijodiy yutuqlari, loyihalari va nostandart ishlanmalarini jamlovchi raqamli portfolioni joriy qilish va uni yakuniy baholashda inobatga olish.

O'qituvchilar uchun dars jarayonida divergent savollar berish va talabalar-ning «xato qilish huquqi»ni ta'minlovchi kreativ muhitni yaratish metodikasi bo'yicha treninglar tashkil etish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxsudjonova A.K. Vijdon va ijodkorlik: Innovatsion faoliyatda axloqiy yondashuvlar. - Toshkent: O'zbekiston Pedagogika Universiteti nashri, 2023.

2. Maxsudjonova A.K. Kognitiv yuk va ijodiy faoliyat: Ta'lim va professional rivojlanish nuqtai nazar. - Toshkent: O'zbekiston Pedagogika Universiteti nashri-2022.

3. Safarova R.G'. O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari. Toshkent: «Fan va texnologiyalar». 2022.

4. Хуторской А. В. Современная дидактика: учебное пособие для вузов. - Москва: Академия, 2021.

5. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. Toshkent: «Fan» – 2011.

6. Lucas, B., & Spencer, E. (2017). Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Have the Ideas to Succeed. Crown House Publishing.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TABIIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

J.RO'ZIMATOV,

Guliston davlat pedagogika instituti
2-bosqich tayanch-doktoranti,
«Boshlang'ich ta'lim metodikasi»
kafedrası o'qituvchisi

Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tabiiy savodxonlikni rivojlantirish orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda boshlang'ich sinfo'quvchilarining kognitiv rivojlanish xususiyatlari, ularning atrof-muhitni anglashga bo'lgan tabiiy qiziquvchanligini tizimli izlanishga yo'naltirish masalalari tahlil qilingan. «Tabiiy fanlar» darsliklarining integrativ imkoniyatlari hamda o'quv jarayonida amaliy va loyiha usullaridan foydalanishning pedagogik shartlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Tabiiy savodxonlik, tadqiqotchilik ko'nikmalari, boshlang'ich ta'lim, integrativ yondashuv, kognitiv rivojlanish, amaliy faoliyat, loyiha usuli, ilmiy dunyoqarash, kompetensiya.*

В статье исследуются научно-теоретические основы формирования исследовательских навыков у учащихся младшего школьного возраста посредством развития естественнонаучной грамотности. В работе проанализированы особенности когнитивного развития младших школьников, вопросы направления их естественной любознательности в русло систематического научного поиска. Освещены интегративные возможности учебников по естественным наукам и педагогические условия использования практических и проектных методов в образовательном процессе. Также изложены выводы по психологическим механизмам формирования научного мировоззрения и самостоятельного мышления учащихся на основе современных образовательных подходов.

Ключевые слова: *естественнонаучная грамотность, исследовательские навыки, начальное образование, интегративный подход, когнитивное развитие, практическая деятельность, метод проектов, научное мировоззрение, компетенция.*

The article investigates the scientific and theoretical foundations of developing research skills in primary school students through the enhancement of scientific literacy. The study analyzes the cognitive development characteristics of young learners and the



methods of channeling their natural curiosity into systematic inquiry. It highlights the integrative potential of science textbooks and the pedagogical conditions for implementing practical and project-based methods in the educational process. Furthermore, conclusions are drawn regarding the psychological mechanisms of fostering a scientific worldview and independent thinking in students based on modern educational approaches.

Key words: *scientific literacy, research skills, primary education, integrative approach, cognitive development, practical activity, project-based method, scientific worldview, competence.*

Ta'lim muassasalarida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bevosita tadqiqotchilik ko'nikmalarining kompetensiyaga aylantirilishi ko'p ma'noda ta'lim jarayonida aniq maqsadlarning to'g'ri qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Maktab o'quvchilarida fanni o'zlashtirish va bevosita undagi kichik loyihalarni bajarish texnologiyalari asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari hozirgi kunda o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Shu ma'noda ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bugungi kunda, 1-4 sinflarda yagona fan sifatida kiritilgan «Tabiiy fanlar» darsligining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlarni qamrab olgan. Bu fanning reja asosida belgilangan ko'p mavzulari amaliy mashg'ulotlar tarzida tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish nafaqat sinfda, balki uning davomi sifatida uy sharoitida ham bajarish imkonini yaratadi. Bu esa, o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlariga imkoniyat yaratadi. Ya'ni darsdagi amaliy ishlar bevosita o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi qaysidir ma'noda ularning kichik tadqiqot ishlariga tayyorlaydi desak adashmagan bo'lamiz.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyati va tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar pedagogika, psixologiya va ta'lim metodikasining turli yo'nalishlarini qamrab oladi.

Tabiiy savodxonlik tushunchasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar ham muhim o'rin tutadi. Xususan, OECD va uning PISA dasturi doirasida tabiiy savodxonlikning zamonaviy modeli ishlab chiqilgan. Unda o'quvchining ilmiy bilimni qo'llay olish, muammolarni hal qilish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati asosiy mezon sifatida belgilangan[9].

Shuningdek, Jerome Bruner[1] tomonidan ishlab chiqilgan «discovery learning» (kashf etish orqali o'rganish) nazariyasi ham tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, o'quvchi tayyor bilimni



emas, balki mustaqil ravishda kashf etilgan bilimni yaxshiroq o'zlashtiradi. Bu yondashuv tabiiy savodxonlikni shakllantirishda juda samarali hisoblanadi.

Rus va MDH olimlaridan Vasily Davydov[2] ishlarida rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lib, unda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bu konsepsiya tadqiqotchilik faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek pedagog olimlari ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, R. Ishmuhamedov ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va o'quvchilarning faolligini oshirish masalalarini tadqiq etgan[3]. Shuningdek, N ta'lim jarayonida interaktiv metodlar va mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Avvalo, Lev Semyonovich Vigotskiy[5] kichik yoshdagi bolalar rivojlanishi-ning ijtimoiy-psixologik asoslarini ishlab chiqqan. Uning «yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasiga ko'ra, bola kattalar yordamida murakkab faoliyatni bajara oladi va shu jarayonda tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi.

Pedagogik nazariya sohasida Isaak Yakovlevich Lerner[4] va Mixail Nikolaevich Skatkin ta'lim mazmunini shakllantirish va o'quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish masalalarini tadqiq etganlar. Ular muammoli ta'lim va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarni tadqiqotchilikka jalb qilish zarurligini asoslab bergan.

Zamonaviy Rossiya pedagogikasida Andrey Viktorovich Xutorskoy[6] kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirib, o'quvchining bilimni hayotda qo'llay olish qobiliyatini ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Bu esa tabiiy savodxonlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy tadqiqotlarda tabiiy savodxonlikni rivojlantirishda inquiry-based learning (tadqiqotga asoslangan ta'lim), STEM ta'lim, loyiha usuli kabi yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan[7]. Bu yondashuvlar o'quvchini faol tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish asosida tabiiy savodxonligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shartlarini hisobga olgan holda, yosh xususiyatlariga, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan va psixologik jihatdan shartlangan faoliyatning asosiy turlariga alohida e'tibor berish kerak. Tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish uchun o'rta maktab o'quvchilarini tanlash mezonlari orasida:

- ijodkorlik, shu jumladan fikrlash bilan bog'liq;
- kichik maktab yoshidagi o'quvchining izlanish faoliyatiga intilishi;
- mehnatsevarlik;



- o‘z ustida ishlash;
- Qiziqishni rivojlantirish;
- Tabiatni sevrishga o‘rgatish;
- o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishga o‘rgatish;
- ota-ona hamkorligini tizimli tashkil etish;
- sinfda, maktab tadbirlarida tajriba ishlarini namoyish qilish;
- kasbga yo‘naltirishning dastlabki faoliyati va boshq.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni, avvalo, ularning psixik rivojlanish qonuniyatlari bilan belgilanadi. Bu bosqichda bolalarda bilish jarayonlari – idrok, diqqat, xotira va tafakkur – faol rivojlanish bosqichida bo‘lib, ular tadqiqotchilik faoliyatini qabul qilish uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

Psixologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu yoshda qiziquvchanlik va bilish ehtiyoji yetakchi omil hisoblanadi. Bolalar tabiat hodisalariga nisbatan tabiiy ravishda savollar qo‘yadilar, bu esa tadqiqotchilik faoliyatining boshlang‘ich nuqtasidir. Agar mazkur qiziqish maqsadli ravishda qo‘llab-quvvatlangan, u izlanishga aylanadi; aks holda passiv qiziqish darajasida qolib ketishi mumkin.

O‘quvchi tajriba-ishlarini bajarish davomida doimiy o‘qituvchisi, ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlikda tadqiqot ishlarini rivojlantirishga erishib borishi katta imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda ta‘lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat o‘quvchilarni mavzuni oson o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘qituvchilarning o‘quvchilarga individual yondashuvni tashkil etishni xizmat qiladi. Endilikda yangi ta‘lim standartlari va o‘quv darsturlari, darsliklar mazmuni bo‘yicha o‘quvchilar ko‘proq o‘z ustida ishlashga, amaliy mashg‘ulotlarni sinfda va sinfdan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratadi. Shu ma’noda 3–4-sinflarda «Tabiiy fanlar» fanini o‘rganishda o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatish davomida o‘zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni o‘rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo‘naltiriladi. Bu shakldagi kichik tadqiqotlar bevosita o‘quvchiga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba’zi bir elementar metodlarini o‘zlashtirishga, o‘zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o‘tishi bilan tadqiqotchilik ko‘nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi.



Shuningdek, masalan, 3-sinflarning «Tabiiy fanlar» dasrligining tahlilida keltirilishicha, «Yer sayyorasi» deb nomlangan 3-bobda koinot haqidagi bilimlar, yulduzlar, sayyoralar va yo‘ldoshlar, kometa va asteroidlar, quyosh tizimi, kichik sayyoralar, ulkan sayyoralar, sayyoralarni qanday kuzatish bo‘yicha yo‘riqnomalar, yer sayyorasi, sayyoralarning ichki tuzilishi, materik va okeanlar, atmosfera, yil fasllari, sayyoralarning aylanishi, egilish o‘qi, taqvim, kabisa yili, vaqt o‘lchov birliklari, kun va tunning almashinishi, nima uchun yozda kunlarning uzoqroq bo‘lishi, oy fazalari, o‘simliklar bahor va yoz fasllarida qanday holatda bo‘lishi, o‘simliklar kuz va qish fasllarida qanday holatda bo‘lishi, hayvonlar bahor va yoz fasllarida nimalar qilishi, jonivorlar kuz va qish fasllarida qanday jon saqlashi haqidagi qiziqarli ma‘lumotlar bilan boyitilgan. Bu bobni o‘rganish davomida o‘qituvchi bevosita bobning mazmunidan kelib chiqib, undagi darslar, amaliy mashg‘ulotlar va laborotriya mashg‘ulotlarini izchilliklik bilan o‘rganib chiqish va bevosita o‘quvchilarni mustaqil ishlash imkoniyati mavjud mavzular bilan tanishtirishi va uning yordamida o‘quvchilarni tadqiqot ishlariga yo‘naltirishga e‘tibor qaratishlari so‘raladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tabiiy savodxonlikni shakllantirish zamonaviy ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu davr bolaning bilish faoliyati, dunyoqarashi va shaxsiy sifatleri shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo‘lib, aynan shu paytda tabiatga oid ilmiy tushunchalarning asosi qo‘yiladi.

Avvalo, tabiiy savodxonlik o‘quvchilarda atrof-muhitni anglash va tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Kichik yoshdagi bolalar tabiat hodisalariga qiziqish bilan qaraydilar, ammo bu qiziqishni ilmiy bilimlar bilan boyitish zarur. Tabiiy savodxonlik orqali o‘quvchilar tabiatdagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushuna boshlaydilar va bu ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, tabiiy savodxonlik tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy poydevori hisoblanadi. O‘quvchi kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali bilimni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Bu esa uning faol subyekt sifatida shakllanishini ta‘minlaydi.

Uchinchidan, tabiiy savodxonlik mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar tabiat hodisalarini tushuntirishga harakat qilargan, ularda tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ta‘limda, balki hayotiy vaziyatlarda ham muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, tabiiy savodxonlik ekologik madaniyat va mas‘uliyatli munosabatni shakllantiradi. Kichik yoshdan boshlab tabiatni asrash, resurslardan oqilona



foydalanish va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi qadriyatlar o'quvchilar ongiga singdiriladi.

Beshinchidan, tabiiy savodxonlik bilimlarni hayot bilan bog'lash imkonini beradi. O'quvchilar tabiat haqidagi bilimlarni kundalik hayotda qo'llashni o'rganadilar. Bu esa ta'limning amaliy ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA, tabiiy savodxonlikni o'quvchining ilmiy bilimlarni hayotda qo'llay olish qobiliyati sifatida baholaydi. Bu esa mazkur kompetensiyaning global ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bruner J.S. The Process of Education. - Cambridge: Harvard University Press, 1960. («Discovery learning» nazariyasi bo'yicha).

2. Davydov V.V. Problems of Developmental Instruction: A Theoretical and Experimental Psychological Study. - Moscow: Progress, 1986. (Rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi bo'yicha).

3. Ishmuhamedov R.J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2008. - 160 b. (Innovatsion texnologiyalar va o'quvchilar faolligini oshirish bo'yicha).

4. Lerner I.Ya. Problemnoe obuchenie. - Moskva: Znanie, 1974. - 64 s. (Muammoli ta'lim va ijodiy faollik bo'yicha).

5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. («Yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasi bo'yicha).

6. Xutorskoy A.V. Kompetentnostniy podxod v obuchenii. Nauchno-metodicheskoe posobie. - Moskva: Izdatelstvo «Eydos», 2013. - 73 s. (Kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha).

7. IBE-UNESCO. Personalized Learning: A Guide for Engaging Students with Inquiry-Based Learning. - Geneva: International Bureau of Education, 2017. - 68 p.

8. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 3-sinfi uchun «Tabiiy fanlar» darsligi. - T.: Respublika ta'lim markazi, 2022-2023.

9. OECD (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. PISA, OECD Publishing, Paris. (Tabiiy-ilmiy savodxonlik mezonlari bo'yicha).



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIATGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

SH.I. JABBAROVA,

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti,

Guliston davlat pedagogika instituti

«Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrası o'qituvchisi

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va tadqiqotchilikka yo'naltirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari orqali o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini qanday qilib samarali ravishda oshirish mumkinligi haqida amaliy tavsiyalar beriladi. Bu esa o'z navbatida, bolalarning ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni kelajakdagi tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: tabiat, tadqiqotchilik, qobiliyat, muhofaza, o'quvchi, o'qituvchi, fikr, kreativ, xususiyat, kelajak.

В данной статье рассматриваются психолого-педагогические особенности формирования интереса к природе и направления его на исследовательскую деятельность учащихся начальной школы. Результаты исследования содержат практические рекомендации по эффективно́му повышению интереса учащихся к природе. Это, в свою очередь, способствует развитию у детей навыков научного мышления и готовит их к будущей исследовательской деятельности.

Ключевые слова: природа, исследование, способность, защита, ученик, учитель, идея, творчество, особенность, будущее.

This article examines the psychological and pedagogical features of forming an interest in nature and directing it to research in primary school students. The results of the study provide practical recommendations on how to effectively increase students' interest in nature. This, in turn, helps to develop children's scientific thinking skills and prepares them for future research activities.

Key words: nature, research, ability, protection, student, teacher, idea, creative, feature, future.

Kichik yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o'rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish



tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir.

Jumladan, Lev Semyonovich Vigotskiy[4] tomonidan bolaning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi ishlab chiqilib, unda «yaqin rivojlanish zonasi» orqali o'quvchini mustaqil izlanishga bosqichma-bosqich olib chiqish asoslangan. Bu yondashuv tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Vasiliy Vasilevich Davidov[7] va Daniil Borisovich Elkonin[8] ishlarida rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi doirasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Pyotr Yakovlevich Galperin[4] tomonidan ishlab chiqilgan aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi esa tadqiqotchilik faoliyatini amaliy harakatlar orqali rivojlantirishning ilmiy asosini beradi.

Shu bilan birga, Aleksey Nikolaevich Leontevning faoliyat nazariyasida ta'lim jarayonida o'quvchining faol subyekt sifatida ishtirok etishi va bilimni faoliyat orqali o'zlashtirishi zarurligi ta'kidlangan.[7]

Pedagogik jihatdan, Isaak Yakovlevich Lerner va Mixail Nikolaevich Skatkin[7] ta'lim mazmunida ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslab berganlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa kompetensiyaviy va tadqiqotga asoslangan ta'lim yondashuvlari (inquiry-based learning) orqali tabiiy savodxonlikni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchining mustaqil izlanishi, tajriba o'tkazishi va xulosa chiqarishi asosiy o'rin tutadi

Taniqli biolog I.P.Pavlov[8] ta'limotiga ko'ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta'siri birinchi signal sistemasini, ularni ifodalovchi so'z esa, ikkinchi signal sistemasini hosil qiladi. Bilishning hissiy tomoni birinchi signal sistemasi bilan bog'liq, bu ko'rgazmali, obrazli tafakkurga asoslangan bo'lib, miya po'stlog'idagi muvaffaqiyatli bog'lanishni o'z ichiga oladi, ya'ni tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning ratsional tomoni, abstrakt tafakkur, ya'ni tushunchalarning hosil bo'lish jarayoni ikkinchi signal sistemasi bilan bog'liqdir. Ikkinchi signal sistemasi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal sistemasi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo'lish, biron narsa haqida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

I.P.Pavlov[8] o'z tadqiqot ishlarida «Hissiy bilimning fiziologik asosi – ko'rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir» – degan edi.

Boshlang'ich sinfda dastlab o'uvchi uchun tabiatni o'rganish ko'proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog'liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko'ra so'z



bilan aytib idrok qilish mustahkam o'zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang'ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks ettirish faqat idrok qilish bilan bog'langan so'zlar yordamida hosil qilinishi mumkin.

Tushuncha – bu miyaning analitik-sintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko'rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so'zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o'yin va mehnatda o'zlashtiriladi va tekshirib ko'riladi. [7]

Tizimli o'quv faoliyatining izchil hamda uzluksiz tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash doirasini kengaytiradi, tafakkurini boyitadi. Ushbu yosh davri o'quvchilarida tafakkurning o'sishi aynan mana shu jarayonning kechishi bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim jarayonining muhim bosqichlari bo'lgan 1– va 2-sinflarda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga o'rganilayotgan ma'lumotlarning alohida unsurlari o'rtasidagi mavjud aloqalarni ko'rsatib berishdan iborat. Ana shu maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlarning o'quv yili davomida hamda yil sayin ortib borishi natijasida 3-sinfga kelib, o'quvchilar dars jarayonida o'zlashtirilayotgan tushunchalarni ular o'rtasidagi nisbatlarni o'zaro taqqoslash asosida tavsiflashni o'rganadilar. 4-sinfda o'quvchilardan u yoki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida bir qadar kengroq fikr yuritishni talab etuvchi topshiriqlar soni ortib boradi.

Ma'lum narsa va hodisalarni tavsiflay olish ko'nikma va malakalarining shakllanishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tobora murakkablashib borayotgan aqliy faoliyatni tashkil eta olish tajribasini yuzaga keltiradi. U asta-sekin idrokdan ajralib, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish jarayoniga aylanadi.

Mantiqiy fikrlash va abstrakt tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat va uning asoslari haqidagi bilimlarni nazariy jihatdan o'rganish imkoniyatini ancha kengaytiradi. Buning natijasida o'quvchilarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlari darajasi va mazmunini ifodalovchi jihatlar ko'zga tashlana boshlaydi. Chunonchi, tabiat jismlari yoki hodisalarning asoslari, ularning kelib chiqish (yoki sodir bo'lish) sabablari, ichki aloqalari, ular o'rtasidagi munosabatlar, asosiy belgilari, o'ziga xos xususiyatlarini anglash kabi holatlarning namoyon bo'lishi yuqorida qayd etilgan fikrning isbotidir.

Tadqiqotchilik faoliyati orqali tabiiy savodxonlik quyidagi yo'nalishlarda rivojlanadi:

Birinci, ilmiy savol qo'ya olish qobiliyati shakllanadi. O'quvchi tabiatdagi



hodisalarini kuzatib, ularning sabablarini aniqlashga harakat qiladi. Bu esa ilmiy izlanishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Ikkinchi, dalillarga asoslangan fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. O'quvchilar tajriba natijalariga tayanib xulosa chiqara boshlaydilar. Masalan, o'simlik o'sishi uchun suv va yorug'lik zarurligini amalda kuzatib, ilmiy xulosaga keladilar.

Uchinchi, tahlil va interpretatsiya qilish qobiliyati shakllanadi. Bu jarayonda o'quvchilar ma'lumotlarni solishtirish, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, natijalarni izohlashni o'rganadilar.

To'rtinchi, ilmiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish ko'nikmasi rivojlanadi. Bu esa tabiiy savodxonlikning eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, suv va resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalarda o'quvchi ongli qaror qabul qila oladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda predmet va hodisalarning ichki xususiyatlarini bilishga nisbatan intilish yuzaga keladi, jumladan, O'simliklar qanday bo'ladi?, Hayvonot olami, O'rmon va o'tloqlar nima?, Hayvonot bog'i nima?, Kuzda nimalar bo'ladi? Vaqt nima?, Hafta nima degani?, Yil fasllari qanday almashadi?, Tabiat qishga qanday tayyorlanadi?.. Bu kabi qiziqarli savollar, ular maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bo'lganlaridayoq paydo bo'ladi, uning asosiy javoblarini 1-2 sinfdan[1, 7] «Tabiiy fanlar» darsligini o'zlashtirish jarayonida amalga oshadi. Bu kabi intilishning yuzaga kelishi va mustahkamlanishi o'quvchilarda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishning nisbiy barqarorligi va uning differensiyalanishiga ko'ra tavsiflanadi.

«Tabiiy fanlar» o'quv predmetini tashkil etuvchi aniq predmet va hodisalar bilan tanishish, ularning mohiyatini anglashga intilish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini jadallashtiradi, ularda ana shu maqsadga yo'naltirilgan faollikni qaror toptiradi.

Tabiat bilan bevosita, faol muloqotda bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilar tomonidan tashkil etilayotgan aqliy faoliyat jarayonini jadallashtiradi. Bu holat o'quvchilarning fikrlash tarziga ta'sir o'tkazib, ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi hamda aqliy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Bilish faoliyatining obykti sifatida tabiat boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy hodisalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tabiiy muhitning insonlar hayotidagi muhim ahamiyati to'g'risida yetarli darajada ma'lumot bera olish imkoniyatiga ega. O'quvchilarni tabiiy hodisalar va obyektlarning muhim jihatlari bilan yaqindan tanishtirish ularda atrof-muhit, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi, ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, rivojlantiradi.



Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari mazmunini nazariy jihatdan tahlil etish shuni ko'rsatdiki, ularda tabiatshunoslik bilimlari haqida ma'lumot beruvchi o'quv materiallari u yoki bu darajada o'z ifodasini topgan. Ularning har biri muayyan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni tabiatga yaqinlashishga, u bilan doimiy muloqotda bo'lishga rag'batlantiradi. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, o'quv fanlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdagi imkoniyatlari bir xil emas. Bu o'rinda 1 va 2-sinflarning «Tabiiy fanlar» va fanining yetakchi o'rin tutishi, ularning tarkibiy tuzilmasida muayyan tizim va ketma-ketlikka asoslanuvchi tabiatshunoslik bilimlarining o'z ifodasini topishi o'quvchilar uchun tabiat hodisalari, jismlari va jarayonlarning kechishi to'g'risida asosli ma'muotlarni olish, ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga imkon beradi.

Tabiat jismlari va hodisalarining mohiyatini hissiy idrok etish, ularni obrazli, tasviriy tarzda anglash boshlang'ich sinflarning dastlabki bosqichi uchun xos xususiyat sanaladi. Shu sababli «Tabiiy fanlar» bo'yicha yaratilgan darslik va o'qituvchilar uchun yaratilgan o'quv qo'llanmalarida berilayotgan materiallarni tasvirlar bilan boyitish talab etiladi. Bu o'rinda ma'lumotlarni mavsumiy o'zgarish-larga muvofiq yoritish va o'lkashunoslikka oid materillarni berish tamoyili asosida ish ko'rish maqsadga muvofiq sanaladi. Tasvirlar o'quvchilarga bir turga kiruvchi, shuningdek, u yoki bu turga mansub bo'lgan o'simlik, hayvon hamda hashoratlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni anglashlari, ularni o'zaro taqqoslashlariga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4-sinflarida o'qitilishi nazarda tutilgan «Tabiiy fanlar» (1-2-sinflar uchun) [1;7] darsliklarida ma'lumotlarni o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish tamoyili asosida berilganligi o'quvchilarga nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirishda yengillik yaratadi. Binobarin, o'zlari uchun tanish ob'ektlarning xususiyat va xossalari ular tomonidan yetarli darajada o'zlashtiriladi.

Masalan, darslik mazmuni tahlilida Maktabga yo'l mavzusida o'quvchilarning yashash manzilini bilishi uchun zamin yaratilgan. Bundan tashqari turli xil inshootlar nomlari bilan keltirilib, Bu qanday binolar? Ular nima uchun kerak? Savollari berilgan. Sinf xonasida nimalar borligi va ular nimalardan yasalganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Bu endi maktabga qadam qo'ygan o'quvchilar uchun dastlabki atrof-dagi materiallarni farqlashga o'rgatadi. Shuningdek, O'simliklar qanday paydo bo'ladi mavzusida atrofimizda har xil o'simliklar borligi, ularni kundalik hayotimizda uyni yonida, hovlida yoki bog'da odamlar madaniy o'simliklar o'stirishi haqida ma'lumotlar berilgan. Tomorqada nimlar o'sadi, bog'da nimalar o'sadi kabi savollar berilib, o'quvchilar o'simliklarni ongli o'rganishiga erishilgan.

Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA (Programme for International Student Assessment) [8] doirasida tabiiy savodxonlik «shaxsning ilmiy bilimlardan



foydalanib, savollarni aniqlash, yangi bilimlarni egallash, ilmiy dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va tabiat hamda inson faoliyatiga oid qarorlar qabul qilish qobiliyati» sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, tabiiy savodxonlik tadqiqotchilik ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish tabiiy savodxonlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqotga asoslangan ta'lim orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, dalillarga asoslangan fikrlash va hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa ularni kelgusida raqobatbardosh va ongli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / Y.V. Malikova. - Toshkent: «Novda Edutainment», 2024. - 52 b.

2. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / Y.V. Malikova. - Toshkent. «Novda Edutainment», 2023. - 120 b

3. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / Y.V. Malikova, S.V. Kosyanyenko. - Toshkent. «Novda Edutainment», 2023. - 136 b.

4. Suyunov D.A. (2024). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda tabiiy fanlarni o'qitishda tabiatga nisbatan ijobiy muhitni shakllantirish. Inter education & global study, (8), 349-354.

5. Sayfullaev G.M Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma Buxoro-2020.

6. Tigay O.E. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / O.E. Tigay. - Toshkent. «Novda Edutainment», 2023. - 104 b.

7. G'aybullayev N. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - T., 2005

8. Sharipova D, Xodiyeva D.P, Shirinov M.K Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-yil.



TALABALARDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

N. DJ. YADGAROV,

*Buxoro davlat pedagogika instituti professori
pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Ushbu maqolada talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodiy faoliyatning ta'lim jarayonidagi o'zini, uni rivojlantirishning samarali usullari va innovatsion yondashuvlar yoritiladi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalarining didaktik asoslari va talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *ijodiy faoliyat, innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, talabalarning rivojlanishi, pedagogik yondashuvlar.*

В статье анализируется технология развития творческой активности учащихся. Также освещается роль творческой активности в образовательном процессе, эффективные методы ее развития и инновационные подходы. Рассматриваются дидактические основы технологий развития творческого мышления и педагогические механизмы, способствующие раскрытию личностного потенциала обучающихся.

Ключевые слова: *творческая деятельность, инновационные технологии, образовательный процесс, развитие учащихся, педагогические подходы.*

This article analyzes the technology for developing students' creative activity. It also highlights the role of creative activity in the educational process, effective methods of its development and innovative approaches. The didactic foundations of technologies for developing creative thinking and pedagogical mechanisms that serve to reveal the personal potential of students are discussed.

Key words: *creative activity, innovative technologies, educational process, student development, pedagogical approaches.*

Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan metod va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion yechimlar topish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari ta'lim muhitida o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, mustaqil izlanish va g'oyalarni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.



Ijodiy faoliyatni shakllantirishning muhim omillaridan biri – o‘quv muhitining mosligi. Bu jarayonda pedagogik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi ijodiy muhit yaratish uchun interfaol metodlardan, jumladan, beyin storming (aql hujumi), klaster, loyihaviy ta’lim va muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi lozim. Shuningdek, talabalarni ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va eksperimental faoliyatga jalb qilish ham muhim sanaladi. Ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari ichida muammoli ta’lim keng qo‘llaniladi. Bu metod talabalar oldiga muayyan masalalarni qo‘yish, ularga mustaqil izlanish va yangi yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini berishdan iborat. Muammoli ta’lim orqali talabalar analitik fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va ijodiy yondashuvni o‘zlashtiradilar. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlar talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularga yangi bilimlarni interaktiv shaklda o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali mustaqil ta’lim olish, g‘oyalar ishlab chiqish va innovatsion loyihalar ustida ishlash talabalarning ijodiy faolligini oshiradi. Loyihaviy ta’lim texnologiyasi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Ushbu metodda talabalar muayyan loyihalarni ishlab chiqish va amaliy natijalarga erishish jarayoniga jalb qilinadilar. Bu esa ularga real hayotiy muammolarni hal qilishda yangi g‘oyalar yaratish va ijodiy yondashish imkonini beradi.

Kollektiv ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun guruhda ishlash metodidan samarali foydalanish kerak. Jamoaviy muhokamalar, rolda o‘ynash, ijodiy seminar va treninglar talabalarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi, ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshiradi va yangicha fikrlarni ilgari surish imkoniyatini beradi. Refleksiv tahlil texnologiyasi ham ijodiy faoliyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o‘z faoliyatlarini tahlil qilish orqali o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar hamda ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqadilar. Bu metod orqali ular o‘zlarini baholash, natijalarni tahlil qilish va kelajakda yanada samarali ishlash uchun o‘z ustida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

O‘quv jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun motivatsiya muhim omil hisoblanadi. Talabalarni ilhomlantirish, ularning qiziqishlarini qo‘llab quvvatlash va innovatsion ishlarga rag‘batlantirish orqali ijodiy yondashuvni shakllantirish mumkin. Buning uchun amaliy topshiriqlar, tanlovlar, ijodiy loyihalar va tadqiqot



ishlariga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Psixologik jihatdan qulay muhit yaratish ham ijodiy faoliyatning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Talabalar erkin fikr bildirishlari, o'z g'oyalari himoya qilishlari va yangicha yondashuvlarni ilgari surishlari uchun ularga qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti zarur.

Bu jarayonda pedagogning roli juda muhim bo'lib, u talabalarni qo'llab quvvatlashi, ularga individual yondashishi va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Tahliliy tafakkurni rivojlantirish uchun tanqidiy fikrlash metodlaridan foydalanish lozim. Masalan, debatlar, bahsli muhokamalar va mustaqil tadqiqot ishlari talabalarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va asoslangan xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Bu esa ularning ijodiy tafakkur qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlari jalb qilish ham ijodiy faoliyatni rivojlantirishga katta yordam beradi. Ular mustaqil tadqiqot olib borish, yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish va ilmiy ishlarini nashr etish orqali ijodiy yondashuvlarini mustahkamlaydilar. Shu sababli ilmiy loyihalar, konferensiyalar va innovatsion laboratoriyalarda talabalarni faol ishtirok ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental metodlardan foydalanish ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun samarali yondashuvlardan biridir. Talabalar tajribalar o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va yangi xulosalar chiqarish orqali o'z mustaqil ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu jarayon ularga o'z nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish va yangi kashfiyotlar qilish imkonini beradi. Ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun o'yin texnologiyalaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi.

Simulyatsion o'yinlar, rolli o'yinlar va kreativ mashqlar talabalarni qiziqtiradi va ularning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Bunday texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyalarining barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ularning uyg'un holda qo'llanilishi yanada samarali natijalarga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida turli metod va yondashuvlarni birlashtirib, talabalarni keng qamrovli ijodiy faoliyatga jalb qilish zarur. Shu orqali ularning innovatsion fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va mustaqil izlanish yuritish ko'nikmalari yanada rivojlanadi.

Quyidagi jadvalda turli texnologiyalar va ularning ijodiy tafakkur, mustaqil izlanish, muammolarni hal qilish, innovatsion yondashuv kabi ko'rsatkichlarga ta'siri o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari keltirilgan.



1-Jadval

Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari va ularning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik

Texnologiya Ko'rsatkich	Ijodiy tafakkur	Mustaqil izlanish	Muammolarni hal qilish	Innovatsion yondashuv
Muammoli ta'lim	0.82	0.76	0.85	0.79
Loyihaviy ta'lim	0.78	0.81	0.83	0.85
Axborot texnologiyalari	0.74	0.80	0.77	0.82
Guruhli ish	0.70	0.68	0.75	0.71
Refleksiv tahlil	0.66	0.72	0.70	0.69
O'yin texnologiyalari	0.71	0.65	0.69	0.74

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, muammoli va loyihaviy ta'lim texnologiyalari talabalarning ijodiy tafakkuri va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda eng yuqori samaradorlikka ega. Axborot texnologiyalaridan foydalanish esa mustaqil izlanish va innovatsion yondashuvni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Guruhli ish va refleksiv tahlil esa o'rta darajada bog'liqlikka ega bo'lib, talabalarni jamoaviy hamkorlik va o'z-o'zini baholash ko'nikmalariga o'rgatishda foydalidir. O'yin texnologiyalari esa ijodiy tafakkur va innovatsion yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi metod sifatida samarali bo'lishi mumkin. Umuman olganda, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari ularning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va innovatsion yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun muammoli ta'lim, loyihaviy metod, refleksiv tahlil, axborot texnologiyalari, guruhli ish, tanqidiy tafakkur va o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish lozim.

Pedagogning ijodiy muhit yaratishi, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy loyihalarga jalb qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, motivatsiya va psixologik qo'llab quvvatlash talabalar ijodiy salohiyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli ta'lim texnologiyalarini uyg'unlashtirib, talabalarni faol va ijodiy ta'lim jarayoniga jalb etish orqali ularning ijodiy tafakkuri, mustaqil izlanish ko'nikmalari va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xomeriki O.G. Innovatsii v praktike obucheniya. Pedagogika, - 1993. №2.
2. Xomeriki O.G., Potashnik M.M., Lorensov A.V. Razvitie shkol kak innovatsionnoy protsess. - M., 1994
3. Shiyanov E.N. Gumanizatsiya pedagogicheskogo obrazovaniya sostoyanie iperspektiva. - Moskve - Stavropol, 1991.
4. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
5. M.E.Axmedova va boshqalar. Pedagogik mahorat va tibbiy pedagogika-ning kasbiy kompetentligi. O'quv-uslubiy qo'llanma T.: «Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi». MCHJ, 2021-62-63b.
6. Avezov O.R., To'yurodov A.SH. Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. Ssiense And Education Scientifis Journal Issn 2181-0842 Volume 3, Issue 4 April 2022. www.openscience.uz P.717-725.
7. Avezov O.R. Masofaviy ta'limda o'quv faoliyatini tashkil qilishda ekstremal vaziyatlarning psixologik tahlili. «Masofaviy ta'limni tashkil etishning pedagogik psixologik jihatlari». //Xalqoro ilmiy-amaliy anjumani materiallari// Toshkent, 2021 y. B. 501 - 504.



7-8-SINF BIOLOGIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

S.XOLMURODOV,

Guliston davlat pedagogika instituti,
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, 1-kurs magistranti

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-8-sinf biologiya kursida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning metodik tizimi tadqiq etilgan. Tadqiqotning o'tkazilishiga asosiy sabab – an'anaviy ta'limda o'quvchilar nazariy bilimlarni o'zlashtirsa-da, ularni hayotiy muammolarni hal qilishda qo'llash ko'nikmalarining pastligi hamda xalqaro baholash (PISA, TIMSS) dasturlaridagi kutilmagan mantiqiy savollarda qiynalayotganligidir. Shu maqsadda, 7-sinf «Biologiya» va 8-sinf «Odam va uning salomatligi» darslarida o'quvchilarning ekologik, tadqiqotchilik va sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik mexanizmlari tahlil qilindi. Maqolada nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirish uchun Keys-stadi (Case-study) va Loyiha (Project-based learning) metodlaridan foydalanish zarurati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. Kompetensiyaviy yondashuv, biologiya metodikasi, PISA talablari, tadqiqotchilik ko'nikmasi, Keys-stadi, kognitiv rivojlanish.

В данной статье исследуется методическая система реализации компетентностного подхода в курсе биологии 7-8 классов общеобразовательных школ. Основной причиной проведения исследования является тот факт, что в традиционном обучении учащиеся, осваивая теоретические знания, имеют низкий уровень навыков их применения для решения жизненных проблем, а также испытывают трудности при ответах на логические вопросы в рамках международных программ оценки (PISA, TIMSS). С этой целью были проанализированы дидактические механизмы формирования экологических, исследовательских компетенций и компетенций здорового образа жизни на уроках биологии в 7-8 классах. В статье научно обоснована необходимость использования методов Кейс-стади (Case-study) и Проектного обучения (Project-based learning) для трансформации теоретических знаний в практические навыки.

Ключевые слова. Компетентностный подход, методика биологии, требования PISA, исследовательские навыки, Кейс-стади, когнитивное развитие.

This article examines the methodical system for implementing a competence-based approach in the biology course of grades 7-8 in general secondary schools. The primary necessity for conducting this research stems from the fact that in traditional education, although students acquire theoretical knowledge, they lack the skills to apply it to real-life problems and face difficulties with logical questions in international assessment programs (PISA, TIMSS). To address this, the didactic mechanisms for forming ecological, research,



and healthy lifestyle competencies in 7th and 8th-grade biology lessons were analyzed. The article scientifically justifies the necessity of using Case-study and Project-based learning methods to transform theoretical knowledge into practical skills.

Key words. Competence-based approach, biology methodology, PISA requirements, research skills, Case-study, cognitive development.

Mashhur pedagog va kognitiv psixolog Benjamin Blum shunday degan edi: «Ta'limning maqsadi – o'quvchi xotirasini ma'lumotlar bilan to'ldirish emas, balki unda yangi bilimlarni yaratish va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishdir». Darhaqiqat, bugungi global axborotlashgan jamiyatda biologiya ta'limi oldida turgan eng dolzarb vazifa o'quvchilarga shunchaki faktik ma'lumotlarni yodlatish emas, balki ularda hayotiy muhim kompetensiyalarni rivojlantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida Milliy o'quv dasturining (MUD) joriy etilishi biologiya fanini o'qitishda «bilim markazli» modeldan «kompetensiya markazli» modelga o'tishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu o'zgarishlar o'quvchilardan tabiiy-ilmiy savodxonlikni, ya'ni biologik jarayonlarni tushunish va ularni hayotiy vaziyatlarda tahlil qila olishni talab etadi. Ayniqsa, PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro baholash tizimlari o'quvchining olgan bilimini real hayotda qanchalik samarali qo'llay olishiga asosiy urg'u beradi.

Biroq, 7-sinf «Biologiya» (Zoologiya) va 8-sinf «Odam va uning salomatligi» kurslarini o'qitishda hali ham nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishlar kuzatilmoqda. O'quvchilar hayvonot dunyosi yoki inson anatomiyasi haqidagi murakkab terminlarni yodlasalar-da, ekologik muvozanatni saqlash yoki o'z salomatligini asrash bo'yicha amaliy yechimlar topishda qiynalmoqdalar. Ushbu ziddiyatni bartaraf etish uchun dars jarayonini Bloom taksonomiyasi asosida, ya'ni quyi darajadagi «yodlash»dan yuqori darajadagi «tahlil va ijod qilish» bosqichiga olib chiqish zaruriyati tug'iladi.

Shu bois, tadqiqotimizda 7-8-sinf biologiya darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik va sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini rivojlantirishda Key-stadi (Case-study) va Loyiha (Project-based learning) metodlarining o'rni va samaradorligini metodik jihatdan takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari darsliklardagi kamchiliklarni bartaraf etish, mavzularni ketma-ketligi qayta ko'rib chiqiladi.

Materiallar va uslublar: Tajriba ishlari 2025-2026 o'quv yili davomida Xovos tumanidagi umumta'lim maktablarining 7-8-sinf o'quvchilari (jami 50 nafar) ishtirokida o'tkazildi.

Metodik yondashuv: Tadqiqotda Bloom taksonomiyasi iyerarxiyasiga



asoslangan kompetensiyaviy model qo'llanildi. O'quvchilarda tadqiqotchilik va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar tanlab olindi:

– Keys-stadi (Case-study): 8-sinfda inson salomatligi muammolarini tahlil qilish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

– Loyihaviy ta'lim: 7-sinfda hayvonot dunyosi va ekotizimni o'rganish bo'yicha mustaqil tadqiqotlar;

– PISA formatidagi topshiriqlar: Tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash vositasi sifatida.

Tahlil metodlari: Natijalar nazorat va tajriba guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini matematik-statistik qiyoslash orqali tekshirildi.

Biologiya ta'limida kompetensiyaviy yondashuv masalasi jahon va respublika pedagogika fani vakillari tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, xalqaro miqyosda B. Bloom o'zining kognitiv darajalar taksonomiyasi orqali ta'lim mazmunini shunchaki bilishdan – tahlil va ijod qilish bosqichiga olib chiqish zarurligini isbotlagan. Uning nazariyasi bugungi kunda PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining metodologik asosi hisoblanadi. Respublikamiz olimlaridan R. Safarova va U. Inoyatovlar o'z ilmiy ishlarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'rni haqida muhim nazariy xulosalar berganlar. Shuningdek, biologiya metodikasi sohasida J. Tolipova va A. G'ofurovlar tomonidan biologik tushunchalarni shakllantirishda darsliklarning didaktik imkoniyatlari va laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati batafsil yoritilgan. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, aynan 7-8-sinf biologiya kursida hayotiy vaziyatlarga asoslangan keyslar va loyihaviy topshiriqlar orqali kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik mexanizmlari hali yetarli darajada takomillashtirilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishga qaratilgan.

7-8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish o'quvchilarda nafaqat bilim to'plash, balki olingan axborotni tahlil qilish va hayotiy muammolarni hal etish ko'nikmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Tadqiqotimiz doirasida dars jarayonini tashkil etishda Bloom taksonomiyasi iyerarxiyasi hamda zamonaviy interfaol texnologiyalar integratsiyasi asosiy metodik asos qilib olindi.

1. 7-sinf «Biologiya» kursida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish

7-sinf o'quvchilarida kognitiv jarayonlar faol rivojlanayotgan davrda ularni hayvonot dunyosi xilma-xilligini o'rganishga «Loyiha metodi» orqali jalb etish yuqori samaradorlik beradi.

– Metodik yondashuv: An'anaviy darslarda hayvonlarning sistematikasi yodlatilgan bo'lsa, bizning metodikamizda o'quvchilarga «Muammoli izlanish»



topshiriqlari berildi. Masalan, «Hasharotlarning qishloq xo‘jaligidagi o‘rni: foyda va zarar tahlili» mavzusida kichik guruhlarda tadqiqotlar tashkil etildi.

– Bosqichma-bosqich rivojlanish: O‘quvchi dastlab hasharot turlarini aniqlaydi (Eslab qolish), ularning hayot siklini tushuntiradi (Tushunish) va ularning tabiatdagi muvozanatga ta‘sirini qiyoslaydi (Tahlil). Bu jarayon o‘quvchida fanga oid tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantiradi.

2. 8-sinf «Odam va uning salomatligi» kursida Keys-stadi (Case-study) texnologiyasi

Inson anatomiyasi va fiziologiyasi kursi o‘quvchilardan o‘z organizmiga nisbatan mas‘uliyatli munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Tadqiqotda ushbu kursni o‘qitishda hayotiy vaziyatlarga asoslangan «Keyslar» tizimi ishlab chiqildi.

– Keys mazmuni: O‘quvchilarga «Gipodinamiya va yurak-qon tomir tizimi» mavzusida aniq bir insonning turmush tarzi haqida ma‘lumotlar beriladi (masalan, kam harakatlanish, noto‘g‘ri ovqatlanish natijasidagi salomatlik ko‘rsatkichlari).

– Amaliy vazifa: O‘quvchi berilgan ma‘lumotlar asosida salomatlikka tahdid soluvchi omillarni aniqlaydi (Qo‘llash) va ushbu inson uchun individual sog‘lomlashtirish dasturini ishlab chiqadi (Sintez va Baholash). Bu metod orqali o‘quvchi o‘z sog‘lig‘ini asrash kompetensiyasiga ega bo‘ladi.

3. Didaktik model va Bloom taksonomiyasi integratsiyasi

Kompetensiyalarni shakllantirishda o‘quvchining fikrlash darajasi quyidagi piramida asosida quyi bosqichdan yuqori bosqichga ko‘tarib borildi:

– Quyi bosqichlar (1–2-daraja): Tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish va ularni darslik matni asosida bayon etish.

– O‘rta bosqichlar (3–4-daraja): Olingan bilimlarni laboratoriya mashg‘ulotlarida va kognitiv topshiriqlarda qo‘llash, turlarni tahlil qilish.

– Yuqori bosqichlar (5–6-daraja): Biologik muammolarga baho berish, ekologik va tibbiy muammolarni hal qilish bo‘yicha yangi yechimlar (loyihalar, takliflar) ishlab chiqish.

4. Metodik vositalar va raqamli texnologiyalar

Darslarda o‘quvchilarning vizual va mantiqiy xotirasini kuchaytirish uchun kognitiv xaritalar va virtual laboratoriyalardan foydalanildi. Bu vositalar murakkab biologik jarayonlarni (masalan, qon aylanishi yoki hujayra bo‘linishi) oson tushunishga va ularni amaliyotda «ko‘rib» tahlil qilishga yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Ishlab chiqilgan ushbu metodik tizim biologiya darslarining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarni PISA kabi xalqaro sinovlarda uchraydigan ochiq turdagi, mantiqiy savollarga javob berish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini



tekshirish maqsadida 7-8-sinf o'quvchilari o'rtasida dars berish jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba guruhi o'quvchilari takomillashtirilgan kompetensiyaviy yondashuv (Keys-stadi, Loyiha metodi) asosida, nazorat guruhi o'quvchilari esa an'anaviy darslar asosida ta'lim oldilar. Ushbu metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi. Mavzuga oid munozarali vaziyatni muhokama qilishdi. Tajriba guruhi o'quvchilari biologik tushunchalarni amaliy qo'llash, tajriba o'tkazish va mustaqil tahlil qilish bo'yicha yuqori natijalarga erishdi.

Interfaol metodlar qo'llangan guruh va an'anaviy guruh natijalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Baholash mezonlari (Bloom darajalari)	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Farq (%)
Bilish va tushunish (quyi daraja)	78%	82%	+4%
Qo'llash va Tahlil (o'rta daraja)	45%	68%	+23%
Sintez va Baholash (yuqori daraja)	12%	35%	+23%

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy darslarda o'quvchilar asosan «Bilish» va «Tushunish» (78%) bosqichida yuqori natija ko'rsatishgan, biroq bilimlarni amaliyotda «Qo'llash» va «Baholash» darajasida ko'rsatkichlar ancha past (12%).

Tajriba guruhida esa Keys-stadi va loyiha topshiriqlari bilan ishlash natijasida o'quvchilarning yuqori darajali fikrlash ko'nikmalari 23% ga o'sganligi aniqlandi. Bu o'quvchilarning biologik jarayonlarni nafaqat yodda saqlashini, balki ularni tahlil qilish va hayotiy muammolarga yechim topish (masalan, sog'lom turmush tarzi rejasini tuzish) qobiliyati shakllanganidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-metodik xulosalarga kelindi:

– Metodik tizim: 7-8-sinf biologiya kursida Bloom taksonomiyasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishning eng samarali vositasi ekanligi isbotlandi.

– Amaliy samaradorlik: Keys-stadi va loyihaviy ta'lim metodlarini qo'llash o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini an'anaviy ta'limga nisbatan o'rtacha 15-20% ga oshirish imkonini berdi.

Biologiya darslarida o'quvchilarni xalqaro PISA va TIMSS baholash tizimiga tayyorlash uchun darsliklardagi nazariy ma'lumotlarni hayotiy «keys» topshiriqlari



bilan boyitish zarur. Biologiya fanlarini amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish uchun ilmiy laboratoriyalar, tibbiyot markazlari va agrokomplekslar bilan hamkorlik o‘rnatib ekskursiyalar tashkil qilish zarur. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali o‘quvchilarda axborot bilan ishlay olish, jamoa bilan ishlash, ta‘limdagi yangiliklaridan bohabar bo‘lish, o‘rgangan bilimlarini hayotda qo‘llay olish kabi qobiliyatlari shakillandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjatlari:
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. (2020). Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tabiiy fanlar bo‘yicha Milliy o‘quv dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori (2021).
4. Tolipova J.O. (2011). Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Cho‘lpon.
5. G‘ofurov A.T., Fayzullayev S.S. (2013). Biologiya o‘qitish metodikasining nazariy asoslari. Toshkent.
6. Safarova R.G. (2015). Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim jarayonlarini modellashirish masalalari. Pedagogika jurnali.
7. Almatov A.S. (2018). Odam va uning salomatligi kursini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan.
8. Azimov I.T. (2020). Zoologiya (7-sinf) kursida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi. Metodik qo‘llanma.
9. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green. (Bilish darajalarining metodologik asosi).
10. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman. (Bloom taksonomiyasining zamonaviy tahriri).



SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BIOLOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

M. T. UMARALIEVA,

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyi o'qituvchisi*

Maqolada biologiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida biologik savodxonlikni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil etilgan. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida biologik savodxonlikni rivojlantirishning integrativ-dinamik metodik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. *Sun'iy intellekt, biologik savodxonlik, kompetensiyaviy ta'lim, metakognitiv ko'nikmalar, adaptiv ta'lim, pedagogik texnologiyalar*

The article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing biological literacy based on the use of artificial intelligence technologies in biology education. It highlights the capabilities of artificial intelligence in individualizing the learning process, activating students' cognitive activity, and developing metacognitive skills. In addition, an integrative-dynamic methodological model for developing biological literacy based on artificial intelligence has been developed.

Key words. *Artificial intelligence, biological literacy, competency-based education, metacognitive skills, adaptive learning, pedagogical technologies.*

XXI asrda ta'lim tizimi raqamli transformatsiya va global integratsiya jarayonlari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlarning tez yangilanishi ta'limdan yangi metodologik yondashuvlarni talab etmoqda. Kompetensiyaviy ta'lim paradigmasiga ko'ra, ta'lim natijasi o'quvchining bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi [1].

Biologiya ta'limida biologik savodxonlikni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. PISA tadqiqotlarida ilmiy savodxonlik shaxsning fan bilan bog'liq muammolari tushunish, tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi [2].

Biologik savodxonlikning rivojlanishi o'quvchilarda ekologik ong, sog'lom turmush tarzi, barqaror rivojlanishga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi; fan va texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yosh avlodning ilmiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi; biologiya fanidagi nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantiradi [3].

Biologik savodxonlik kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta komponentlardan tashkil topgan integrativ tizim sifatida



namoyon bo'ladi. Ushbu komponentlar o'quvchilarning biologik bilimlarni egallashi, ularni amaliyotda qo'llashi, baholashi hamda ongli ravishda boshqarishini ta'minlaydi.

Kognitiv komponent biologik tushunchalar, qonuniyatlar va nazariy bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. O'quvchilar tirik organizmlar tuzilishi, funksiyalari, ekologik jarayonlar va biologik tizimlar haqida ilmiy bilimlarga ega bo'ladilar.

Operatsion (faoliyatga oid) komponent bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, tajriba o'tkazish, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini qamrab oladi. O'quvchilar ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish orqali biologik jarayonlarni chuqur anglaydilar.

Aksiologik komponent biologik bilimlarga asoslangan qadriyatlar tizimini ifodalaydi. U ekologik madaniyat, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, sog'lom turmush tarziga rioya qilish kabi jihatlarini o'z ichiga oladi.

Refleksiv komponent o'quvchilarning o'z bilim va faoliyatini baholash, xatolarini aniqlash hamda ularni tuzatish qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv komponent biologik savodxonlikning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning o'z bilish faoliyatini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu komponent doirasida o'quvchilar: o'rganish maqsadini belgilaydi; samarali o'rganish strategiyalarini tanlaydi; o'z faoliyatini monitoring qiladi; natijalarni baholaydi va takomillashtiradi. Metakognitiv komponent o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va biologik bilimlarni chuqur hamda ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi [4].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samarali o'qitish muhitini yaratish imkonini bermoqda [5]. Shu sababli biologik savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimida yangi didaktik imkoniyatlarni yaratib, o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, biologiya ta'limida SI texnologiyalaridan foydalanish murakkab biologik jarayonlarni tushunishni osonlashtirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda biologik savodxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar SI texnologiyalarini ta'limni individuallashtirish, adaptiv boshqarish va samarali baholashning innovatsion vositasi sifatida e'tirof etadilar [5].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

Individuallashtirilgan ta'lim har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish sur'ati, qiziqishlari va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning

faoliyatini tahlil qilish orqali ularga mos o'quv materiallari va topshiriqlarni taklif etadi. Luckin ta'kidlaganidek, SI asosidagi ta'lim o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlab, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni ta'minlaydi [7].

Biologiya ta'limida bu quyidagicha namoyon bo'ladi: murakkab mavzularni bosqichma-bosqich tushuntirish; individual topshiriqlar berish; o'quvchining bilim darajasiga moslashish. Natijada har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos ravishda rivojlanadi.

Adaptiv o'qitish ta'lim jarayonini o'quvchining rivojlanish dinamikasiga mos ravishda boshqarishni anglatadi. Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchining har bir harakatini tahlil qilib, o'quv jarayonini real vaqt rejimida moslashtiradi.

Adaptiv o'qitish o'quvchining individual rivojlanishi, o'zlashtirish darajasi va o'rganish ehtiyojlariga qarab ta'lim mazmuni, sur'ati hamda baholash jarayonini moslashtiruvchi innovatsion yondashuvdir. U murakkab algoritmlar va sun'iy intellektdan foydalanib, o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydi. Adaptiv o'qitish ta'lim jarayonining dolzarb, qiziqarli va optimal darajada murakkab bo'lishini ta'minlab, har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ravishda moslashadi [8].

Biologiya darslarida adaptiv o'qitish qiyin mavzularni soddalashtirish, xatolarga mos ravishda qo'shimcha material berish, o'quvchining o'rganish tezligiga moslashish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim jarayonini dinamik va moslashuvchan tizimga aylantiradi.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonini uzluksiz monitoring qilish va baholash imkonini beradi. SI tizimlari o'quvchilarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilib, ularning rivojlanish dinamikasini aniqlaydi. YUNESCO ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida baholashni avtomatlashtirish va aniqligini oshirishga xizmat qiladi [9].

Biologiya fanining o'ziga xos jihati shundaki, undagi ko'plab jarayonlar murakkab va abstrakt xarakterga ega. Sun'iy intellekt ushbu jarayonlarni vizual modellashtirish orqali o'quvchilar uchun tushunarli qiladi. Vizualizatsiya bir qator pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi: o'quv va bilish faoliyatini faollashtirish, tanqidiy va vizual tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ko'rish orqali idrok etish qobiliyatini kuchaytirish, bilimlar va o'quv harakatlarini obrazli tasavvur qilish, bilimlarni uzatish va obrazlarni tanib olish kabi jarayonlarni ta'minlaydi [10].

Sun'iy intellekt asosida biologik savodxonlikni rivojlantirish murakkab, ko'p komponentli pedagogik jarayon bo'lib, u bir nechta metodologik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirish hamda biologik bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosida biologik savodxonlikni rivojlantirish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:



Faoliyat yondashuvi pedagogik jarayonda bilimning passiv o'zlashtirilishini emas, balki faol faoliyat jarayonida shakllanishini nazarda tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan muayyan faoliyatni amalga oshirish jarayonida egallanadi.

J.O. Tolipova biologiya ta'limini faoliyatga yo'naltirilgan metodik tizim sifatida asoslab beradi. Uning fikricha: «Biologiya ta'limi o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy faoliyati integratsiyasi asosida tashkil etilishi lozim» [11]. Shu nuqtai nazardan biologik savodxonlikni rivojlantirish ham o'quvchilarning amaliy va tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etilishi orqali amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt ushbu jarayonda muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. SI texnologiyalari yordamida: virtual laboratoriyalar tashkil etiladi; biologik jarayonlar simulyatsiya qilinadi; muammoli vaziyatlar yaratiladi; individual topshiriqlar ishlab chiqiladi. Natijada o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida ishtirok etadi. Bu esa biologik bilimlarning chuqur va ongli o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Metakognitiv yondashuv o'quvchilarning o'z bilish faoliyatini anglash, nazorat qilish va boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Metakognitsiya «fikrlash haqida fikrlash» sifatida talqin qilinib, u o'quvchining o'z o'rganish jarayonini ongli ravishda tashkil etishini nazarda tutadi [12].

Mazkur yondashuv doirasida o'quvchi: o'rganish maqsadini belgilaydi (rejalashtirish); o'z faoliyatini kuzatadi (monitoring); natijalarni tahlil qiladi (baholash). Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga va ularni turli vaziyatlarda qo'llashga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [4].

Sun'iy intellekt metakognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi samarali vosita hisoblanadi. SI yordamida: o'quvchilarga o'z faoliyatini baholash bo'yicha tavsiyalar beriladi; xatolar avtomatik aniqlanadi; individual o'rganish trayektoriyasi shakllantiriladi; refleksiya jarayoni qo'llab-quvvatlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini bilimlar yig'indisi emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin etadi. Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, ta'lim natijasi bilimlar majmui emas, balki ularni real vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi [13].

Biologik savodxonlik kompetensiyaviy yondashuv doirasida quyidagi ketma-ketlikda shakllanadi: bilim – faoliyat – kompetensiya. Ya'ni, biologik bilimlar egallanadi; ular amaliy faoliyatda qo'llanadi; natijada biologik kompetensiya shakllanadi. Sun'iy intellekt kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi: real hayotga yaqin muammoli vaziyatlarni yaratadi; bilimlarni qo'llash imkoniyatini kengaytiradi; individual rivojlanish trayektoriyasini ta'minlaydi; o'quvchilarning kompetensiya darajasini aniqlaydi.

Tizimli yondashuvga ko'ra, biologik savodxonlik o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonni tizim



sifatida ko‘rib, uning barcha elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni hisobga olishni talab etadi [14].

Sun‘iy intellekt tizimli yondashuvni amalga oshirishda: bilimlarni integratsiyalashgan holda taqdim etadi; o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini bog‘laydi; monitoring va boshqaruvni yagona tizimda amalga oshiradi.

Natijada o‘quvchilarda biologik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida tushunish qobiliyati shakllanadi va tizimli fikrlash rivojlanadi.

Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilimlar o‘quvchi tomonidan mustaqil ravishda quriladi. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan faol faoliyat jarayonida o‘z tajribasi asosida quriladi [15].

Sun‘iy intellekt ushbu jarayonda: individual o‘rganish trayektoriyasini yaratadi; shaxsiylashtirilgan topshiriqlar beradi; o‘quvchining bilim darajasiga moslashadi. Bu esa o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi hamda bilimlarni ongli o‘zlashtirishni ta‘minlaydi.

Raqamli pedagogika yondashuvi zamonaviy ta‘limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, unda sun‘iy intellekt muhim o‘rin egallaydi. YUNESCO ta‘kidlaganidek, raqamli texnologiyalar ta‘limni individuallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi [6].

Shunday qilib, sun‘iy intellekt asosida biologik savodxonlikni rivojlantirish mexanizmi quyidagicha: faoliyat yondashuvi orqali bilimlarni faol egallashni; metakognitiv yondashuv orqali o‘z-o‘zini boshqarishni; kompetensiyaviy yondashuv orqali bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni; tizimli yondashuv orqali yaxlit tushunishni; konstruktivistik yondashuv orqali individual bilim qurilishini; raqamli pedagogika orqali adaptiv boshqaruvni ta‘minlaydi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi biologik savodxonlikni kompleks, ongli va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun‘iy intellekt asosida biologik savodxonlikni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan integrativ-dinamik pedagogik tizimni tashkil etadi.

Diagnostika bosqichida sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi, kognitiv imkoniyatlari va o‘quv faoliyati xususiyatlari aniqlanadi. SI asosidagi diagnostika tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, adaptiv diagnostika tizimlari o‘quv jarayonini individuallashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi [8]. Shu jihatdan diagnostika bosqichi keyingi ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur metodik asos yaratadi.

Individuallashtirish bosqichi diagnostika natijalariga asoslanib, sun‘iy intellekt har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv trayektoriyasini shakllantiradi. Bu bosqichda o‘quvchilarga ularning bilim darajasi va qobiliyatiga mos topshiriqlar, mashqlar va o‘quv materiallari taqdim etiladi. SI texnologiyalari adaptiv ta‘lim muhitini yaratib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadi hamda ularning o‘zlashtirish darajasini bosqichma-bosqich rivojlantiradi [5]. Natijada



ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan xarakter kasb etadi.

Faoliyat bosqichi biologik savodxonlikni rivojlantirishning asosiy bosqichi bo'lib, unda o'quvchilar faol bilish faoliyatiga jalb etiladi. Sun'iy intellekt yordamida quyidagi faoliyat turlari tashkil etiladi: muammoli vaziyatlarni hal etish; tadqiqot va loyiha faoliyati; virtual laboratoriya ishlari; biologik jarayonlarni modellashtirish.

Faoliyat yondashuviga ko'ra, bilim aynan faoliyat jarayonida shakllanadi [16]. Shu sababli SI o'quvchilarni faol o'rganishga jalb etib, biologik bilimlarning chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Monitoring bosqichida sun'iy intellekt o'quvchilarning o'quv faoliyatini uzluksiz nazorat qiladi va tahlil etadi. SI tizimlari yordamida: o'quv natijalari avtomatik baholanadi; xatolar aniqlanadi; rivojlanish dinamikasi kuzatiladi; individual tavsiyalar ishlab chiqiladi. YUNESCO ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali boshqarish va monitoring qilish imkonini beradi. Bu bosqich adaptiv boshqaruvni ta'minlaydi [6].

Refleksiya bosqichi o'quvchilarning o'z faoliyatini baholash, xatolarini aniqlash va ularni korrektsiyalash jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich metakognitiv rivojlanish bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Refleksiya faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, uning yordamida bajarilgan ishning qanchalik samarali va maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, belgilangan natijalarga erishish darajasi aniqlanadi [17].

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini biologiya ta'limiga joriy etish katta didaktik imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, u bir qator muammolar bilan bog'liq. Avvalo, ko'plab ta'lim muassasalarida zamonaviy AKT infratuzilmasi va SI platformalaridan foydalanish imkoniyatlari yetarli emas. Bu muammoni ta'limni bosqichma-bosqich raqamlashtirish, mobil qurilmalarga mos platformalarni joriy etish va bulutli texnologiyalarni kengaytirish orqali hal etish mumkin.

Shuningdek, SI samaradorligi o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasiga bog'liq. Shu bois pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari, treninglar va amaliy seminarlarni tashkil etish muhimdir. Yana bir muammo metodik ta'minotning yetishmasligi bo'lib, uni SI asosidagi dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar va fanlararo integratsiyalashgan materiallar yaratish orqali bartaraf etish mumkin.

Bundan tashqari, SI'dan noto'g'ri foydalanish o'quvchilarda ijtimoiy muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli uni an'anaviy o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirish, jamoaviy va muammoli ta'lim metodlarini qo'llash zarur. Etik va xavfsizlik masalalari ham dolzarb bo'lib, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli xavfsizlikni o'rgatish va etik me'yorlarni ishlab chiqish orqali hal etiladi.

Umuman olganda, mazkur muammolar tizimli yondashuv asosida bartaraf etilganda, sun'iy intellekt biologiya ta'limini yanada samarali, moslashuvchan va innovatsion darajaga olib chiqadi hamda o'quvchilarning biologik savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Годовой отчет ОЭСР за 2005 год , Издательство ОЭСР, Париж.
2. Education at a Glance 2019: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/f8d7880d-en>.
3. Umaraliyeva M.T. «Biologik savodxonlik» tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida / Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025-yil, avgust, №8-son.
4. Dunlosky, J., & Rawson, K. A. (2012). Despite their promise, there's still a lot to learn about techniques that support durable learning. *Journal of Applied Research in Memory and Cognition*, 1(4), 254-256.
5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign. 2019).
6. SDG4-Education 2030, Incheon Declaration (ID) and Framework for Action. For the Implementation of Sustainable Development Goal 4, Ensure Inclusive and Equitable Quality Education and Promote Lifelong Learning Opportunities for All, ED-2016/WS/28.
7. R. Luckin, M. Cukurova /Designing educational technologies in the age of AI: A learning sciencesadriiven approach. *British Journal of Educational Technology*, july 2019, 50 (6).
8. R. Johnson. Adaptive Learning: Personalized Education in the Digital Age. eLearning Industry. <https://elearningindustry.com/adaptive-learning-personalized-education-in-the-digital-age/> 2023, July 18.
9. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? - Paris: UNESCO Publishing. 2015.
10. Зареченский О.Н. Из опыта использования мультимедийных средств визуализации на уроках биологии // Проблемы современного педагогического образования. 2023. №78-3.
11. J.O. Tolipova. Biologiyani o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2014.
12. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 1979, 34(10), 906-911.
13. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development. 2005.
14. Bertalanffy L. von. *General System Theory: Foundations, Development, Applications*. - New York: George Braziller, 1968.
15. Piaget, J. *The Science of Education and the Psychology of The Child*. New York: Grossman Preschool Science Environment: What Is Available in a Preschool Classroom? 1970
16. Leontyev A.N. «Деятельность. Soznanie. Lichnost». Moskva: Politizdat, 1975.
17. Умаралиева М.Т. Рефлексия как инструмент повышения эффективности преподавания биологии // LXXIV международная научно-практическая конференция WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS, 2023.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA ZOOLOGIYA FANINI RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH

S.A. NAVRUZOVA,

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Mazkur maqolada zoologiya fanini raqamli ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish orqali o'qitishning pedagogik ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Zoologiya darslarida raqamli ta'lim vositalarini qo'llash orqali fan yuzasidan to'plangan bilimlar turli interaktiv topshiriqlar orqali oson va tez o'zlashtiriladi. Maqolada raqamli ta'lim texnologiyalarning bir qanchasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, zoologiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, integratsiya, biologiya ta'limi, o'qitish metodikasi.

В данной статье анализируется педагогическое значение и эффективность преподавания зоологии посредством интеграции цифровых образовательных технологий. Использование цифровых образовательных инструментов на уроках зоологии позволяет легко и быстро усваивать знания по предмету с помощью различных интерактивных заданий. В статье рассматриваются несколько цифровых образовательных технологий.

Ключевые слова: непрерывное образование, зоология, цифровое образование, интеграция, биологическое образование, методика преподавания.

This article analyzes the pedagogical significance and effectiveness of teaching zoology through the integration of digital educational technologies. By using digital educational tools in zoology lessons, the knowledge gained in the subject is easily and quickly mastered through various interactive tasks. The article discusses several digital educational technologies.

Key words: continuing education, zoology, digital education, integration, biology education, teaching methodology.

Bugungi kunda jamiyatimizda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, fan va texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sib borishi insoniyatdan doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarni yangilab borishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bunda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni katta. Chunki bu tizim shaxsning nafaqat ma'lum bir davrda, balki butun hayoti davomida bilim olishga, kasbiy va ilmiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim orqali inson zamon talablari bilan hamnafas bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Bu tizim insonning har tomonlama barkamol bo'lib yetishiga xizmat qiladi. Tabiiy fanlarning muhim bo'limlaridan biri hisoblangan zoologiya fani hayvonlarning tuzilishi, ko'payishi,



rivojlanishi, yashash sharoiti va tabiatdagi o'zini o'rganadi. Uzlaksiz ta'lim jarayonida zoologiya fanini raqamli ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga, dunyoqarashini kengayishiga, ilmiy tafakkurini rivojlanishiga yordam beradi.

Asosiy qism. Bugungi kunda jahondagi davlatlarning 70%i integrativ turdagi ta'lim tizimiga o'tgan va shu turdagi darslik va vositalardan foydalanib keladi[1]. Dunyo bo'yicha biologiya ta'limida xususan, zoologiya bo'yicha integrativ yondashuvning nazariy asoslari aniq ishlab chiqilgan. Zoologiya fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hozirgi kunda davr talabi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari – bu o'quv jarayonida mobil qurilmalar, kompyuter va internet yordamida tashkil etiladigan texnologiyalar bo'lib, o'qitishni samarali, interfaol va qiziqarli qilishga qaratilgan har qanday usullar, metodlar va texnologiyalar kiradi. Raqamli texnologiyalarga misol qilib, elektron darsliklar, onlayn dars platformalari, mobil ta'lim vositalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim tizimlarini misol sanab o'tishimiz mumkin. Xuddi shunday raqamli texnologiyalarda bir qancha tadqiqotchilarimiz ish olib borishgan. Xususan, M.Xonnazarova zoologiya fanini o'qitishda VR/AR, gaminifikatsiya va interaktiv metodlardan foydalanish bir qancha samaradorlikka olib kelishi haqida yozilgan[2]. Norquziyeva fikricha, umurtqalilar zoologiyasini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish, zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri ekanligi, bu talabalar uchun amaliy va nazariy bilim manbayi ekanligi aytib o'tiladi[3].

Raqamli ta'lim tizimini takomillashtirishga Wi-Fi zonalar va IT parklar ochilishi katta ahamiyatga ega. O'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida pedagoglarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi[4].

Zoologiya fanini o'qitishda onlayn platformalar va multimediali vositalardan foydalanish dars jarayonida qulayliklar yaratadi. Xususan, laboratoriya mashg'ulotida bajarish qiyin bo'lgan tajribalarni virtual tarzda bajarish imkoniyati mavjud. Xuddi shunday onlayn platformalar ham raqamli ta'lim texnologiyalariga misol bo'lib, ularning bir qanchasi bilan tanishib chiqamiz. Bunday interaktiv ta'lim platformalariga Blooket, Kahoot, Wordwall, Wayground, Educaplay, Learning app, Liveworksheet kabilar misol bo'ladi. Biz bu platformalarda topshiriqlar yaratishimiz, yaratilgan topshiriqlarni talabalarga namoyish etishimiz mumkin. Bu platformalarda



yaratilgan topshiriqlarning afzalligi, kiritilgan javoblar avtomatik tekshiriladi, natijalar darhol ko'rinadi. Bu talabalarga o'z xatolarini tez anglashga yordam beradi. Bundan tashqari topshiriqlar matn, test, video, audio yoki loyiha shaklida bo'lishi mumkin, bu esa bilimni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Educaplay onlayn platformasida yaratilgan topshiriqlarni ko'rib chiqamiz. Masalan, «Umurtqalilar zoologiyasi» darslarida «Boshskeletsizlar tipi» mavzusi asosida Educaplay dasturida yaratilgan topshiriqlarni ko'rib chiqamiz. Bunda talabalarga platformaga kirish uchun havola tashlab beriladi, talabalar kompyuter yoki mobil aloqa vositalari orqali platformaga kirib, topshiriqni bajaradi. Talabalar «Boshlash» tugmasini bosish orqali topshiriq ichiga kiradi va undagi savollarga javob beradi. Bu topshiriqda «Boshskeletsizlar tipi»ga doir to'g'ri va noto'g'ri jumlar berilgan, talabalar darsda o'zlastirgan bilimlarini ishga solib, topshiriqni bajaradilar.

Tavsiyalar:

1. Raqamli ta'lim texnologiyalar bo'yicha treninglar va kurslar tashkil etish;
2. Internet aloqasini yaxshilash;
3. Raqamli resurslar sifatini oshirish;
4. Innovatsion metodlarni qo'llash;
5. Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.

Treninglar va kurslar tashkil etish. Raqamli texnologiyalar keng tarqalishi uchun pedagoglarga mazkur texnologiyalar bo'yicha trening va kurslar tashkil qilish pedagoglarga interaktiv ta'lim metodlari, raqamli asbob-uskunalar va raqamli asbob uskunalar bilan ishlash imkoniyatini oshiradi. Natijada o'qituvchilarning raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha malakasi oshadi.

Internet aloqasini yaxshilash. Ma'lumki, raqamli texnologiyalardan foydalanishda internet muhim ahamiyatga ega. Internet aloqasining pastligi raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan dastur yoki platformalarga kirish, ularda topshiriq bajarish sifatini pasaytiradi. Bu ayniqsa, chekka hududlardagi talabalar uchun muhim masala hisoblanadi, ularning internet xizmatlarini yaxshilash talab qilinadi.

Raqamli resurslar sifatini oshirish. Zoologiya fanini o'qitishda foydalaniladigan raqamli resurslar va darsliklarning sifatini oshirishimiz kerak. Interaktiv darsliklar, 3D modellar va video darsliklar kabi yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish orqali zoologiya fanini yanada qiziqarli va samarali qilishimiz mumkin.

Innovatsion metodlarni qo'llash: Oliy ta'limda zoologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish, masalan, gamifikatsiya (o'yin elementlarini o'qitish jarayoniga qo'shish), bilan ishlash dars jarayoni qiziqarli qiladi.

6. Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish: Raqamli ta'lim texnologiyalar yordamida talabalarni baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish zarur. Onlayn testlar, interaktiv testlar va ilg'or baholash metodlari yordamida talabalarni o'z faoliyatini baholashga va xatolari ustida ishlashga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zoologiya fanini raqamli ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish talabalarda biologik jarayonlarni chuqurroq anglash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda fanlarga qiziqishni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Smart-texnologiyalar, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va multimedia vositalardan foydalanish darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi, shu bilan bir qatorda, murakkab mavzularni oson tushunishga yordam beradi. Shu sababli, zoologiya fanini raqamli ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi balki kelajak mutaxassislarining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. R.Mavlvanova, N.Raxmankulova «Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya» Toshkent. Voris nashriyoti 2013y
2. M.Xonnazarova «Oliy ta'limda zoologiya fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish Maktagacha va maktab ta'limi jurnali». 2025 y.
3. M.Sh. Norquziyeva «Oliy ta'lim tashkilotlarida umurtqalilar zoologiyasi fanini AKT orqali o'qitish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari». Vos Jurnali Vol.12 No1 2025 y.
4. N.D.Mirzahmedova. «Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida qo'llanishi» Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science Scientific journal Volume 2 Issue 5.
5. Yusupov I., (2022). Raqamli pedagogika va innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. Murodova D., (2021). «Onlayn ta'lim platformalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri», O'zbekiston pedagogika jurnali, №3, 44-51-betlar.
7. M.V.Zamonova. «Raqamli ta'lim texnologiyalar asosida oliy ta'limda biologiya o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari». Problems and solutions of scientific and innovative journal Volume 3 Issue 3 2025y
8. N.Nuriddinova. «Biologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning roli: interaktiv platformalar imkoniyatlari». Ilm-fan va innovatsiya ilmiy amaliy konferensiya 2025 y.



OILA, MAHALLA VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI HAMKORLIGIDA O'QITUVCHI NUFUZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL

A.J.KAMALOV,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi*

Oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari hamkorligida o'qituvchi nufuzini shakllantirish. Ushbu maqolada oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari hamkorligi orqali o'qituvchi nufuzini shakllantirish masalasi yoritiladi. Ota-onalar munosabati, jamoatchilik qo'llovi va media maydonidagi ijobiy tasvirning pedagog obro'ygiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, o'qituvchi nufuzi, pedagogik hamkorlik, tarbiyaviy muhit, jamoatchilik, media.

This article examines the formation of teacher authority through the cooperation of family, neighborhood community, and mass media. The influence of parental attitudes, community support, and positive media representation on teacher prestige is analyzed.

Key words: family, neighborhood community, mass media, teacher authority, pedagogical cooperation, educational environment, public support, media.

В статье рассматривается формирование авторитета учителя на основе сотрудничества семьи, махалли и средств массовой информации. Анализируется влияние отношения родителей, общественной поддержки и позитивного медийного образа на престиж педагога.

Ключевые слова: семья, махалля, средства массовой информации, авторитет учителя, педагогическое сотрудничество, воспитательная среда, общественная поддержка, медиа.

Jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga yo'l ko'rsatuvchi, ularda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va zamonaviy dunyoqarashni shakllantiruvchi shaxsdir. Shu sababli o'qituvchi nufuzini oshirish va uni jamiyatda munosib e'tirof etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oila, mahalla va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, oila farzand tarbiyasining asosiy maskanidir. Ota-onalar o'qituvchiga hurmat ruhini farzandlar ongiga singdirishi, pedagog mehnatini qadrlashni o'rgatishi lozim. Ota-onaning o'qituvchi haqidagi ijobiy fikri va munosabati



bolalarda ham ustozga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantiradi. Aksincha, o'qituvchi sha'niga nisbatan salbiy munosabat farzandning ta'limga bo'lgan qiziqishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mahalla esa jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida o'qituvchi obro'sini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Mahallalarda faoliyat yuritayotgan nuroniylar, jamoatchilik vakillari va yoshlar yetakchilari o'qituvchilarning fidokorona mehnatini e'tirof etib borishlari, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ularning ishtirokini ta'minlashlari zarur. Mahallada o'qituvchiga bo'lgan hurmat va e'tibor yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari ham o'qituvchi nufuzini shakllantirishda kuchli ta'sir vositasidir. Televideniye, radio, matbuot va internet nashrlari orqali ilg'or pedagoglar faoliyatini yoritish, ularning yutuqlarini targ'ib qilish, ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlarni keng ommaga yetkazish muhimdir. O'qituvchilarning hayoti va mehnati haqida tayyorlangan ko'rsatuvlar, maqolalar hamda ijtimoiy roliklar jamiyatda ustoz kasbiga bo'lgan hurmatni yanada oshiradi.

O'qituvchi nufuzining shakllanishi faqat maktab ichidagi faoliyat bilan cheklanmaydi. U o'quvchining oiladagi tarbiyasi, yashab turgan mahalladagi ma'naviy muhit va ommaviy axborot vositalarida yaratilayotgan ijtimoiy tasvir bilan ham chambarchas bog'liq. Agar bola maktabda ustozga hurmat ruhida tarbiyalansayu, oilada yoki jamoatchilik orasida o'qituvchi shaxsiga bepisand qarash ustun bo'lsa, pedagogik ta'sir kuchsizlashadi. Aksincha, turli ijtimoiy institutlarda ustozga bo'lgan munosabat uyg'un tus olsa, o'quvchi ongida o'qituvchi haqidagi ijobiy tasavvur mustahkamlanadi. Oila bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi ilk va eng ta'sirchan muhitdir. Farzandning kattalarga hurmati, mehnatga munosabati, intizomi va bilimga qiziqishi ko'p jihatdan oilaviy tarbiyaga bog'liq.

Ota-onaning o'qituvchi haqidagi fikri bola ongida kuchli psixologik iz qoldiradi. Agar ota-ona farzand oldida ustozni e'zozlasa, uning mehnatini qadrlasa, maktab bilan hamkorlikni hurmat asosida yo'lga qo'ysa, bola o'qituvchiga ishonch bilan qaraydi. Bunday o'quvchi dars jarayonida faolroq bo'ladi, talab va topshiriqlarni ongliroq qabul qiladi. Oila doirasida ustozga hurmat madaniyatini shakllantirish pedagog obro'yini mustahkamlashning eng tabiiy yo'lidir. Mahalla o'zbek jamiyatining tarixiy va ijtimoiy tayanchlaridan biri sanaladi. U faqat hududiy birlik emas, balki tarbiya, jamoaviy mas'uliyat va qadriyatlar makonidir. O'qituvchining mahalla hayotidagi faol ishtiroki, yoshlar bilan ishlashi, ma'naviy-



ma'rifiy uchrashuvlarda qatnashishi uning jamoatchilik orasidagi nufuzini oshiradi. Mahallada fidoyi pedagoglar e'tirof etilsa, ustozlarga nisbatan hurmat muhiti yaratilsa, bu holat o'quvchilarga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bola o'z yashash hududida o'qituvchini hurmat qilinayotgan shaxs sifatida ko'rsa, uning ongida ustozning jamiyatdagi o'rni yanada mustahkamlanadi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar o'qituvchi nufuzini shakllantirishda juda katta ta'sir kuchiga ega. Televideniye, radio, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va turli media kontentlar orqali pedagog obrazi keng jamoatchilikka yetib boradi. Agar ushbu maydonda o'qituvchi bilimdon, ma'rifatparvar, fidoyi va yoshlar kelajagi uchun xizmat qilayotgan shaxs sifatida yoritilsa, ustoz kasbiga bo'lgan hurmat ortadi. Pedagoglar yutug'i, innovatsion tajribasi, shogirdlar muvaffaqiyatidagi hissassi ommalashtirilishi ijtimoiy ongda ijobiy kayfiyatni kuchaytiradi. Media makonidagi ijobiy tasvir yoshlarning pedagog kasbiga bo'lgan qiziqishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari bir-biridan ajralgan holda emas, o'zaro uyg'unlik asosida harakat qilganda pedagog obro'yini yuksaltirish borasida katta samara beradi. Ota-onalar yig'ilishlarida faqat muammo muhokamasi bilan cheklanib qolmasdan, ustoz mehnatini qadrlash masalalariga ham e'tibor qaratish lozim. Mahallada «ustozga ehtirom» ruhidagi tadbirlar, uchrashuvlar, ma'naviy suhbatlar tashkil etilishi foydali. Ommaviy axborot vositalarida esa fidoyi pedagoglar faoliyati asosida ko'rsatuvlar, maqolalar, intervyular va ijtimoiy loyihalar sonini ko'paytirish zarur. Bunday hamkorlik bir tomondan pedagogning jamiyatdagi ijobiy qiyofasini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan o'quvchi tarbiyasida yagona qadriyat maydonini yaratadi.

O'qituvchi nufuzining kuchli bo'lishi ta'lim sifati, tarbiyaviy samaradorlik va ma'naviy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi ustozni hurmat qilganida uning so'zi, tavsiyasi va tarbiyaviy ta'siri chuqurroq singadi. Maktab bilan oila o'rtasida ishonch kuchayadi, tarbiya jarayonida uzilish kamayadi. Jamoatchilik qo'llovi mavjud bo'lgan sharoitda o'qituvchi o'z kasbiga yanada mehr bilan yondashadi, o'z ustida ishlashga intiladi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada chuqurroq his etadi. Bu holat ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanishiga ham xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyat sharoitida o'qituvchi nufuzini shakllantirish ko'p omilli va uzluksiz jarayondir. Bu yo'lida faqat maktabning sa'y-harakati kifoya qilmaydi. Oila farzand qalbida ustozga ehtirom urug'ini qadashi, mahalla uni ijtimoiy qadriyat darajasida qo'llab-quvvatlashi, ommaviy



axborot vositalari esa ushbu obrazni keng maydonga olib chiqishi darkor. Ana shunda jamiyatda ustozning haqiqiy qadr-qimmatini tiklanadi, pedagogik faoliyatning ta'sir kuchi ortadi, ta'lim sifatiga xizmat qiluvchi mustahkam ma'naviy muhit yuzaga keladi. O'qituvchiga berilgan hurmat aslida yosh avlodning kamolotiga, millatning ertangi kuniga berilgan hurmatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va oila tarbiyasi. Toshkent: Tafakkur, 2020.
2. Yuldashev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Quronov M. Mahalla va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
4. McQuail D. Mass Communication Theory. London: Sage Publications, 2010.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG-O'QITUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

D.I. XODJAKULOVA,

Toshkent to'qimachilik va yengil
sanoat instituti professori p.f.n.,

Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida pedagog-o'qituvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Muloqotning ijtimoiy-psixologik mohiyati, pedagogik muloqotning tuzilmasi va uning asosiy komponentlari yoritilgan. Shuningdek, pedagog va talaba-yoshlar o'rtasidagi samarali muloqotni tashkil etish omillari, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish yo'llari hamda pedagogik texnikaning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada pedagogik muloqotni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, uzluksiz ta'lim, kommunikativ kompetentlik, pedagogik texnika, nutq madaniyati, ta'lim samaradorligi

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования культуры педагогического общения в системе непрерывного образования. Раскрываются социально-психологическая сущность общения, структура педагогического общения и его основные компоненты. Особое внимание уделено факторам организации эффективного взаимодействия между педагогом и студенческой молодежью, развитию коммуникативной компетентности, а также значению педагогической техники. В статье представлены научно-практические рекомендации по совершенствованию педагогического общения.

Ключевые слова: культура общения, педагогическое общение, непрерывное образование, коммуникативная компетентность, педагогическая техника, культура речи, эффективность обучения.

This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing pedagogical communication culture in the system of continuous education. It highlights the socio-psychological nature of communication, the structure of pedagogical interaction, and its main components. Particular attention is given to the factors of organizing effective communication between teachers and student youth, the development of communicative competence, and the role of pedagogical techniques. The article also provides scientific and practical recommendations for improving pedagogical communication.

Key words: communication culture, pedagogical communication, continuous education, communicative competence, pedagogical techniques, speech culture, educational effectiveness.

Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda uzluksiz ta'lim tizimida pedagog-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. Mazkur sharoitda pedagogning muloqot madaniyati uning kasbiy muvaffaqiyati, ta'lim samaradorligi



hamda talaba-yoshlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ustuvor omillardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, muloqot madaniyati faqatgina axborot almashinuvi vositasi emas, balki pedagogik ta'sirning samarali mexanizmi sifatida ta'lim jarayonining psixologik iqlimini belgilaydi. Shu bois ushbu masala pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishgan nuqtada o'rganilayotgan kompleks ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqot inson faoliyatining ruhiy va ma'naviy asoslariga tayangan holda shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. U jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxs faoliyati motivatsiyasining negizini tashkil etuvchi ehtiyoj, manfaat va manfaatdorlik kabi omillar orqali belgilanadi. Aynan ushbu omillar shaxsning maqsadli fikrlashi, ijtimoiy xulq-atvori va kommunikativ strategiyalarini shakllantirib, shaxslararo munosabatlar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, muloqot insonlar o'rtasidagi faoliyat turlari ichida yetakchi o'rin egallab, shaxsning jamiyatda yashashi va o'zini ijtimoiy subyekt sifatida anglash ehtiyojini qondiradi. Ilmiy talqinda esa muloqot – bu insonlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida yuzaga keladigan o'zaro ta'sir, axborot almashinuvi va munosabatlar tizimi sifatida izohlanadi. Demak, har qanday ijtimoiy faoliyat samarali muloqotsiz amalga oshmaydi.

Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sirning murakkab tizimi bo'lib, u ta'lim jarayonida pedagog va talaba-yoshlar o'rtasida yuzaga keladigan kom-munikativ, interaktiv hamda perseptiv jarayonlar birligini ifodalaydi. Mazkur muloqot shakli nafaqat bilimlar uzatish vositasi, balki shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashuvni ta'minlash va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqotning strukturaviy jihatdan tahlili uning ko'p qatlamli va ko'p yo'nalishli ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, uni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

Pedagogning alohida talaba-yosh bilan individual muloqoti (differensial yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi).

Pedagogning alohida talaba-yosh orqali butun guruh bilan muloqoti (vositachilik asosidagi kommunikativ ta'sir).

Pedagogning butun guruh (sinf yoki auditoriya) bilan frontal muloqoti (ommaviy ta'sir va boshqaruvni ta'minlaydi).

Pedagogning guruh orqali alohida talaba-yoshga yo'naltirilgan muloqoti (ijtimoiy ta'sir va jamoaviy fikr orqali individual rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi).

Mazkur tasnif pedagogik muloqotning tizimlilik xususiyatini ochib berib, o'qituvchidan turli kommunikativ strategiyalarni moslashuvchan qo'llashni talab etadi.

Pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda o'qituvchining dars jarayonidagi muloqotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:



Birinchidan, pedagogning kommunikativ pozitsiyasi muhimdir. Dars jarayoniga kirishda o'qituvchining tetikligi, o'ziga ishonchi va ichki motivatsiyasi talaba-yoshlarda ijobiy psixologik kayfiyatni shakllantiradi. Bu esa muloqotning boshlang'ich bosqichidayoq samaradorlikni belgilab beradi.

Ikkinchidan, kommunikativ tayyorgarlik va emotsional muhitni yaratish zarur. Pedagog o'zining muloqotga tayyorligini nafaqat verbal, balki neverbal vositalar orqali ham namoyon etishi lozim. Harakatchanlik, ochiqlik va hissiy faollik talaba-yoshlarni ham muloqotga jalb etuvchi omil hisoblanadi.

Uchinchidan, dars jarayonida zarur hissiy-psixologik muhitni shakllantirish muhimdir. Ijobiy emotsional fon talaba-yoshlarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning o'quv motivatsiyasini oshiradi hamda o'zaro ishonchli munosabatlarni rivojlantiradi.

To'rtinchidan, pedagog o'zining emotsional holatini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Barqaror hissiy holatni saqlash, stressli vaziyatlarda o'zini tuta bilish va muloqotni izchil boshqarish pedagogik mahoratning muhim ko'rsatkichidir.

Beshinchidan, muloqot samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchi kommunikativ jarayonni ongli ravishda boshqarishi lozim. Bunda tezkorlik, moslashuvchanlik, individual muloqot uslubini shakllantirish hamda pedagogik ta'sir va muloqot birligiga erishish muhim hisoblanadi.

Oltinchidan, nutq madaniyati pedagogik muloqotning asosiy vositasidir. Nutqning aniqligi, mantiqiyliqi, ifodaliligi va emotsional boyligi talaba-yoshlar tomonidan axborotni samarali qabul qilishga xizmat qiladi. Yuqori nutq madaniyati pedagogning umumiy madaniy darajasini ham namoyon etadi.

Yettinchidan, neverbal kommunikatsiya vositalari – mimika, jest va pantomimika - pedagogik ta'sirni kuchaytiruvchi muhim omillardir. Harakatlarning aniqligi, ifodaliligi va maqsadga muvofiqligi muloqotning mazmunini boyitadi va uni yanada ta'sirchan qiladi.

Nihoyat, muloqotning yakuniy bosqichi ham alohida ahamiyatga ega. Dars yoki suhbatning mantiqiy yakunlanishi, asosiy g'oyalarni umumlashtirish va refleksiyani tashkil etish pedagogik muloqotning to'liqligini ta'minlaydi.

Har bir shaxsning jamiyatdagi faoliyati o'zaro ta'sir va munosabat shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat fikr almashinuvi, hamkorlik va o'zaro anglashuvni talab etadi. Shu bois shaxsning ijtimoiy mavqei, kasbiy muvaffaqiyati va obro'-e'tibori uning kommunikativ kompetentligiga bevosita bog'liqdir.

Muloqot jarayonining murakkabligini ochib berishda psixologik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Xususan, B.F. Parigin tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra, muloqot quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi: individlarning o'zaro ta'siri, axborot almashinuvi, shaxslararo munosabatlarning ifodalanishi, ta'sir ko'rsatish jarayoni, hamkorlik imkoniyatlari hamda o'zaro



tushunish mexanizmlari. Ushbu yondashuv muloqotning integrativ va ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi.

Mazkur nazariy qarashlar pedagogik muloqot mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sirning murakkab tizimi bo'lib, u ta'lim jarayonida pedagog va talaba-yoshlar o'rtasida yuzaga keladigan kommunikativ, interaktiv va perseptiv jarayonlarning uzviy birligini ifodalaydi. Shu bilan birga, u nafaqat bilim uzatish vositasi, balki shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashuvni ta'minlash va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqotning strukturaviy tahlili uning ko'p qatlamli va ko'p yo'nalishtli ekanligini ko'rsatadi. Xususan, pedagogning alohida talaba-yosh bilan individual muloqoti differensial yondashuvni ta'minlash, alohida talaba-yosh orqali guruh bilan muloqot vositachilik asosidagi ta'sirni yuzaga keltiradi. Shuningdek, pedagogning butun guruh bilan frontal muloqoti ommaviy boshqaruvni ta'minlaydi, guruh orqali alohida talaba-yoshga yo'naltirilgan muloqot esa jamoaviy ta'sir orqali individual rivojlanishga xizmat qiladi. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kommunikativ moslashuvchanlikni talab etadi.

Pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda o'qituvchining dars jarayonidagi muloqotini ongli ravishda tashkil etishi muhim omil hisoblanadi. Avvalo, pedagogning kommunikativ pozitsiyasi, ya'ni uning tetikligi, o'ziga ishonchi va ichki motivatsiyasi talaba-yoshlarda ijobiy psixologik kayfiyatni shakllantiradi. Bu esa muloqotning dastlabki bosqichidayoq uning samaradorligini belgilaydi.

Shu bilan birga, pedagogning kommunikativ tayyorgarligi va emotsional muhitni yaratish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Verbal va neverbal vositalarning uyg'un qo'llanilishi, harakatchanlik va hissiy faollik talaba-yoshlarni faol muloqotga jalb etadi. Ijobiy psixologik muhit esa ularning bilish faoliyatini faollashtirib, o'quv motivatsiyasini oshiradi.

Pedagogning o'z emotsional holatini boshqara olishi ham pedagogik mahoratning muhim ko'rsatkichidir. Barqaror hissiy holatni saqlash, stressli vaziyatlarda o'zini tuta bilish va muloqotni izchil boshqarish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, kommunikativ jarayonni ongli boshqarish, tezkorlik va moslashuvchanlik pedagogik ta'sirning samaradorligini ta'minlaydi.

Nutq madaniyati pedagogik muloqotning markaziy elementi hisoblanadi. Nutqning aniqligi, mantiqiyliги, ifodaliligi va emotsional boyligi talaba-yoshlar tomonidan axborotni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Neverbal kommunikativ vositalari – mimika, jest va pantomimika esa muloqotning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Muloqotning yakuniy bosqichi ham pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Darsning mantiqiy yakunlanishi, asosiy g'oyalarni umumlashtirish va refleksiyani tashkil etish o'quv materialining mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.



Shu o'rinda pedagogik texnika masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Pedagogik texnika – bu o'qituvchining muloqotni samarali tashkil etishiga xizmat qiluvchi amaliy ko'nikmalar tizimi bo'lib, u nutq madaniyati, mimika, pantomimika, hissiy ifodadorlik, shuningdek aktyorlik va rejissyorlik elementlarini o'z ichiga oladi. Mazkur ko'nikmalar uyg'un holda qo'llanilganda pedagog murakkab pedagogik vaziyatlarda ham samarali faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogning shaxsiy-kasbiy malakalari uning umumiy madaniy saviyasi va kasbiy kompetentligini belgilaydi. Bu malakalar talaba-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, pedagogning nutq madaniyati fikrlashning ravonligi va mantiqiyliqi bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan, pedagog va talaba-yoshlar o'rtasidagi muloqot ishonch, hurmat va hamkorlik tamoyillariga asoslanishi zarur. Individual yondashuv, rag'batlantiruvchi nutq, qo'llab-quvvatlash va konstruktiv muloqot strategiyalaridan foydalanish talaba-yoshlarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimida pedagog-o'qituvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish ko'p omilli, tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, u pedagogning shaxsiy hamda kasbiy rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Muloqot madaniyati yuksak darajada shakllangan pedagoggina talaba-yoshlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning intellektual va ma'naviy kamolotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhammedov. R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-Toshkent., 2008.
2. Ishmuhammedov. R. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-Toshkent., 2013
3. Jumaniyozov R. Muomala madaniyati – TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2015.
4. Maxmudov. N O'qituvchining madaniyati. .T.;2007
6. B.Husanov. V.Gulomov. Muomala madaniyati.T.;2009
7. G'oziev E.G'. «Umumiy psixologiya». T.; 2010



OLIY O'QUV YURTI TALABALARINING ESTETIK DIDINI TARBIYALASHDA MILLIY KULOLCHILIK AN'ANALARI VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

J. BEGIJONOV,

Qori Niyozni nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi

Mazkur ilmiy maqolada oliy o'quv yurti talabalari estetik didini tarbiyalash jarayonida milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanishning pedagogik, estetik va madaniy ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Milliy hunarmandchilikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kulolchilik san'atining tarixiy rivoji, badiiy-estetik imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy salohiyati ilmiy asosda yoritiladi. Talabalarda estetik idrok, badiiy tafakkur, ijodiy faollik va milliy o'zlikni anglashni shakllantirishda kulolchilik an'analarning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, estetik did, milliy hunarmandchilik, kulolchilik san'ati, oliy ta'lim, madaniy meros, badiiy tafakkur.

В данной научной статье глубоко анализируется педагогическое, эстетическое и культурное значение использования средств национальных гончарных традиций в процессе воспитания эстетического вкуса студентов вузов. Научно освещены историческое развитие гончарного искусства, его художественно-эстетические возможности и образовательный потенциал в образовательном процессе, являющемся одним из важных направлений национальных ремесел. Раскрыты специфические особенности гончарных традиций в формировании эстетического восприятия, художественного мышления, творческой деятельности и осознания национальной идентичности у студентов.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, эстетический вкус, национальные ремесла, гончарное искусство, высшее образование, культурное наследие, художественное мышление.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishini ta'minlash, ularni nafaqat kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis, balki yuksak ma'naviyat va estetik tafakkur egasi bo'lgan insonlar sifatida tarbiyalash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida madaniy qadriyatlar va estetik mezonlarning tezkor almashinuvi sharoitida yoshlarning estetik didini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki estetik did shaxsning borliqni idrok etish, go'zallikni anglash, san'at asarlarini baholash hamda hayotiy hodisalarga estetik munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Aynan shu jihatlar talabaning umumiy madaniy saviyasi, ma'naviy dunyosi va ijodiy tafakkuri rivojlanishida muhim o'rin tutadi.



Estetik tarbiya oliy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u shaxsda go'zallikni his etish, estetik qadriyatlarini anglash va ularga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan undan foydalaniladigan vositalarning mazmuni, milliylik darajasi va talabalarning yosh hamda psixologik xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy madaniyat va san'at namunalari, xususan, xalq hunarmandchiligi estetik tarbiyaning eng ta'sirchan va samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining boy madaniy merosi tarkibida milliy hunarmandchilik turlari alohida o'rin egallaydi. Ular asrlar davomida shakllangan bo'lib, xalqning estetik qarashlari, dunyoqarashi, hayot tarzi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shular orasida kulolchilik san'ati o'zining qadimiyligi, badiiy mukammalligi va estetik imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Kulolchilik buyumlarida shakl, rang, naqsh va ramziy mazmunning uyg'unligi mujassam bo'lib, ular talabalarda estetik idrok va didni shakllantirishda katta tarbiyaviy salohiyatga ega.

Kulolchilik san'ati insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi badiiy-amaliy faoliyat turlaridan biri bo'lib, u dastlab kundalik ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan yuksak estetik va badiiy mazmunga ega san'at turiga aylangan. O'zbek kulolchilik san'ati ham ming yillar davomida rivojlanib, hududiy maktablar, uslubiy xususiyatlar va rang-barang bezak tizimlarini shakllantirgan. Rishton kulolchiligidagi ko'k va moviy ranglarning ustuvorligi, G'ijduvon buyumlaridagi iliq ranglar uyg'unligi, Xiva kulolchiligidagi murakkab naqshlar tizimi xalqning estetik qarashlari va badiiy didi bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy kulolchilik an'analari talabalarning estetik didini tarbiyalashda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar ta'lim jarayonida mazkur san'at turidan samarali foydalanish imkonini beradi. Avvalo, kulolchilik san'ati ko'rgazmalilik xususiyatiga ega bo'lib, buyumlarning real shakli, ranglari va fakturasi talabalarda kuchli estetik taassurot uyg'otadi. Bu esa estetik idrokning faollashuviga, ranglar va shakllarni farqlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kulolchilik buyumlaridagi bezaklarning ramziy mazmuni talabalarning estetik tafakkurini chuqurlashtiradi, ularni badiiy tahlil qilishga undaydi.

Estetik didni tarbiyalash jarayonida kulolchilik san'atining yana bir muhim jihati uning amaliy yo'naltirilganligidir. Talabalar kulolchilik jarayonida bevosita ishtirok etish orqali ijodiy faoliyatga jalb qilinadi. Loy bilan ishlash, shakl yaratish, bezak berish jarayonlari talabalarda nafaqat estetik didni, balki sabr-toqat, diqqat, mas'uliyat va ijodiy yondashuv kabi shaxsiy sifatlarni ham rivojlantiradi. Amaliy faoliyat jarayonida talabalar estetik qarorlar qabul qilishga, o'z ishini baholashga va mukammallikka intilishga o'rganadilar.

Milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanishning muhim xususiyatlaridan biri – milliylik va tarixiylik omilidir. Kulolchilik buyumlari orqali talabalar



xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va estetik ideallari bilan tanishadilar. Bu jarayon talabalarda milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Estetik didning milliy asosda rivojlanishi esa shaxsning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Oliy o'quv yurtlarida milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanish estetik tarbiyani fanlararo integratsiya asosida tashkil etish imkonini beradi. Kulolchilik san'ati tasviriy san'at, tarix, madaniyatshunoslik, pedagogika va dizayn fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilishi mumkin. Bunday integratsiya talabalarning bilim doirasini kengaytiradi, ularning estetik tafakkurini kompleks rivojlantiradi va nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi.

Shuningdek, kulolchilik san'ati orqali estetik didni tarbiyalash jarayoni talabalarning hissiy sohasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ranglar uyg'unligi, shakllarning mutanosibliigi va bezaklarning ritmi talabalarda estetik zavq uyg'otadi. Estetik zavq esa shaxsning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, estetik ehtiyojlarini rivojlantiradi va estetik faoliyatga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Bu holat estetik tarbiyaning barqaror va uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanish innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashganda yanada samarali bo'ladi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, ijodiy topshiriqlar va ko'rgazmali taqdimotlar kulolchilik san'atining estetik imkoniyatlarini to'liq ochib berishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini, estetik baholash ko'nikmalarini va ijodiy faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurti talabalari estetik didini tarbiyalashda milliy kulolchilik an'analari vositalaridan foydalanish keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, u shaxsning estetik madaniyatini, badiiy tafakkurini va milliy o'zligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Kulolchilik san'ati orqali estetik tarbiyani tashkil etish talabalarning nafaqat san'atga, balki hayotga bo'lgan estetik munosabatini shakllantiradi. Mazkur jarayonni ilmiy asosda, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish oliy ta'lim tizimida estetik tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Estetik tarbiya nazariyasi.
2. Qodirov B. O'zbek kulolchilik san'ati tarixi.
3. Islomov Z. Milliy hunarmandchilik va ta'lim.



MILLIY HUNARMANDCHILIK QADRIYATLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARINING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA SHAKLLARI

S.ABDUJALOLOV,
Qori Niyozni nomidagi TPMI
mustaqil izlanuvchisi

Mazkur maqolada milliy hunarmandchilik qadriyatlarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari hamda ularning o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiy, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilib, uni ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, mas'uliyat va ijodkorlik kabi tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, hunarmandchilik asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari, amaliy loyihalar va ustoz-shogird an'analarning o'quvchilarning bozor munosabatlariga moslashuvi hamda kasbiy o'zini-o'zi anglash jarayoniga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari milliy hunarmandchilik qadriyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish o'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga tayyorligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: milliy hunarmandchilik, tadbirkorlik ko'nikmalari, ta'lim jarayoni, milliy qadriyatlar, kasbiy kompetensiya, amaliy faoliyat, ustoz-shogird an'anasi, iqtisodiy tafakkur, innovatsion yondashuv.

В данной статье анализируется педагогический потенциал национальных ремесленных ценностей в образовательном процессе и их роль в формировании предпринимательских навыков у учащихся с научной, теоретической и практической точек зрения. В ходе исследования выявлено экономическое, образовательное и социальное значение ремесленной деятельности, а также обоснованы возможности развития предпринимательских компетенций, таких как инициативность, самостоятельное мышление, ответственность и креативность, у учащихся посредством их интеграции в образовательную систему. Также подчеркивается влияние учебных занятий, практических проектов и традиций наставничества, организованных на основе ремесел, на адаптацию учащихся к рыночным отношениям и процесс профессионального самосознания. Результаты исследования показывают, что эффективное использование национальных ремесленных ценностей в образовательном процессе является важным педагогическим фактором повышения готовности учащихся к предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: национальные ремесла, предпринимательские навыки, образовательный процесс, национальные ценности, профессиональная компетентность, практическая деятельность, традиция наставничества, экономическое мышление, инновационный подход.



Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida, balki shaxsning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi, mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishi hamda innovatsion yondashuvlarga tayyorligi bilan tavsiflanadigan muhim kompetensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va an'anaviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilishi zarur. Aynan milliy hunarmandchilik qadriyatlari ana shunday pedagogik resurs sifatida katta imkoniyatlarga ega. Hunarmandchilik – bu xalqning tarixiy xotirasi. Uni rivojlantirish orqali milliy an'analar, urf-odatlar va estetik qadriyatlar saqlab qolinadi. Shu bilan birga, yosh avlodda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarmandchilik kichik biznesning muhim yo'nalishlaridan biridir. Hunarmandchilik mahsulotlari: Milliy hunarmandchilik turizmning ajralmas qismi hisoblanadi. Sayyohlar uchun milliy mahsulotlar madaniy meros namunasi sifatida qiziqish uyg'otadi va mamlakat iqtisodiyotiga valyuta tushumini oshiradi. Zamonaviy dizayn, marketing va raqamli texnologiyalar hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari, imtiyozlar va grantlar ushbu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hunarmandchilik faoliyatiga qiziqish, mustaqil ish boshlashga intilish, tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy munosabat, Bilimiy mezon o'quvchining tadbirkorlik va hunarmandchilikka oid nazariy bilimlarini aks ettiradi. Ko'rsatkichlari: Hunarmandchilik turlari haqida bilimga egaligi, bozor iqtisodiyoti asoslarini tushunishi, tadbirkorlik faoliyatiga oid atamalarni bilishi. Amaliy mezon o'quvchining real faoliyat jarayonida o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Asosiy ko'rsatkichlar: Mahsulot tayyorlay olish, ish jarayonini rejalashtirish, tayyor mahsulotni sotishga yo'naltira olish. Tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirish ko'rsatkichlari

Shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlari milliy hunarmandchilik asosida tadbirkorlik ko'nikmasi shakllangan o'quvchida quyidagi shaxsiy sifatlar namoyon bo'ladi: Mustaqil fikrlash, mas'uliyatni his qilish, o'z mehnati natijasiga baho bera olish. Iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari.

Ushbu ko'rsatkichlar o'quvchining iqtisodiy tafakkuri shakllanganligini ko'rsatadi:



– xarajat va daromadni hisoblay olish, foyda olish imkoniyatlarini tahlil qilish, bozor talabini anglash. Ta’lim jarayonida milliy hunarmandchilik asosida tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish uchun loyihaviy ta’lim, amaliy mashg’ulotlar, ustoz-shogird an’analari va integratsiyalashgan darslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usullar o’quvchilarda barqaror tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Milliy hunarmandchilik xalqning asrlar davomida shakllangan mehnat tajribasi, iqtisodiy tafakkuri, estetik qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini o’zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Hunarmandchilik faoliyati jarayonida mahsulot yaratish, uning sifatini ta’minlash, bozor talabi va taklifini hisobga olish, xaridor bilan muloqotga kirishish kabi jarayonlar tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Bu esa hunarmandchilikni o’quvchilarda tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo’llash imkonini beradi. Chunki tadbirkorlik faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo’lgan tashabbuskorlik, riskka moyillik, rejalashtirish, mehnat samaradorligini oshirish va iqtisodiy natijaga yo’naltirilganlik hunarmandchilik faoliyatida yaqqol namoyon bo’ladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan milliy hunarmandchilik qadriyatlarining ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi o’quvchilarda nafaqat kasbiy ko’nikmalarni, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan fazilatlarini ham rivojlantiradi. Xususan, hunarmandchilik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o’quvchilar mehnatga bo’lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi, sabr-toqat, mas’uliyat, aniqlik va ijodkorlik kabi sifatlarini o’zlashtiradi. Ushbu sifatlar esa tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo’lgan muhim shaxsiy kompetensiyalar hisoblanadi. Shuningdek, hunarmandchilik orqali o’quvchilar milliy qadriyatlarni anglash, ularni asrab-avaylash va zamonaviy sharoitda rivojlantirish zarurligini tushunib yetadilar.

Milliy hunarmandchilik qadriyatlari vositasida tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta’lim mazmuni, o’qitish usullari va tashkiliy shakllar o’zaro uyg’un holda qo’llanilishi lozim. Hunarmandchilikka asoslangan amaliy mashg’ulotlar, ijodiy loyihalar, ustoz-shogird an’analari hamda kichik ishlab chiqarish faoliyatini modellashtirish orqali o’quvchilarda real iqtisodiy faoliyatga yaqin tajriba shakllantiriladi. Bunday yondashuv o’quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi va kelgusida tadbirkorlik faoliyatiga ongli ravishda kirib borishlariga zamin yaratadi. O’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan



holda tadbirkorlik ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish, o'rta bo'g'inda amaliy topshiriqlar, yuqori sinflarda esa loyiha va startap faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti tadbirkor shaxslar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda yoshlar orasida ishsizlik muammosining mavjudligi ularni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash zaruratini yanada oshirmoqda. O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini erta yoshdan shakllantirish ularning kelajakda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalarida tadbirkorlikka oid mashg'ulotlar nazariy xarakterga ega. Amaliy faoliyatning yetishmasligi o'quvchilarda qiziqishning pasayishiga olib keladi. Shu sababli tadbirkorlikka munosabatni o'zgartirish uchun ta'lim metodlarini yangilash zarur. Loyihaviy ta'lim, keys-stadi, biznes o'yinlar, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish o'quvchilarning tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi. O'qituvchi o'quvchilarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi, ularni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Shuningdek, maktab va ta'lim muassasalarida tadbirkorlikka yo'naltirilgan muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'quvchilar o'rtasida tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirishga munosabatni o'zgartirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida tadbirkorlikka yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov B. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. - Toshkent: O'qituvchi.
2. Xo'jayev A. Milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati. - Toshkent: Sharq.
3. To'raqulov X. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. - Toshkent: Iqtisod-Moliya.
4. Islomov Z. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. - Toshkent.
5. Yunusov R. O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi. - Toshkent.



INKLYUZIV TA'LIMNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, TAMOIYILLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

R.X.DJURAYEV,

Qori Niyozni nomidagi TPML bo'lim mudiri,
loyiha rahbari, akademik, p.f.d.

F.U.QODIROVA,

Loyiha ijrochisi, CHDPU,

Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri, professor

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari, asosiy tamoyillari hamda uning samaradorligini belgilovchi omillar tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, uning insonparvarlikka asoslangan yondashuvi va imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonida individual yondashuv, kommunikativlik, vaziyatboplik, tolerantlik kabi tamoyillarning ahamiyati ochib berilgan. Oila, axborot muhiti, adaptiv resurslar va malakali kadrlar inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, zamonaviy tendensiyalar, tamoyillar, tolerantlik, kommunikativlik, adaptiv muhit, individual yondashuv, pedagogik jarayon, ijtimoiylashuv

В данной статье рассматриваются современные тенденции, основные принципы и факторы, определяющие эффективность инклюзивного образования. Раскрывается сущность инклюзивного подхода, основанного на гуманистических идеях, а также его роль в социализации детей с ограниченными возможностями. Особое внимание уделяется таким принципам, как индивидуализация обучения, коммуникативность, ситуативность и толерантность. Обосновывается значимость семьи, информационной среды, адаптивных ресурсов и профессиональных кадров в обеспечении эффективности инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, современные тенденции, принципы, толерантность, коммуникативность, адаптивная среда, индивидуальный подход, социализация

This article analyzes modern trends, key principles, and factors influencing the effectiveness of inclusive education. It highlights the essence of inclusive education based on a humanistic approach and its role in the socialization of children with disabilities. Special attention is given to principles such as individualization, communicative approach, situational adaptability, and tolerance. The importance of family involvement, information environment, adaptive resources, and qualified professionals in ensuring effective inclusive education is also substantiated.

Key words: inclusive education, modern trends, principles, tolerance, communicative approach, adaptive environment, individual approach, socialization

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida tubdan yangilanib bormoqda. Xususan, inklyuziv ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi nafaqat pedagogik jarayonni takomillashtirish, balki har bir insonning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan insonparvar yondashuvning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim muassasalarida o'qitish, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mos pedagogik sharoitlar yaratish jarayonidir. Mazkur tizim bolalarning nafaqat bilim olishini, balki ularning ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning dolzarbligi, avvalo, inson huquqlari va teng imkoniyatlar g'oyasining ustuvorligi bilan belgilanadi. Har bir bola, uning jismoniy yoki ruhiy holatidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Shu bois inklyuziv ta'lim bugungi kunda nafaqat pedagogik muammo, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy ahamiyatga ega kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv orqali jamiyatda tenglik, adolat va bag'rikenglik muhitini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy manbalarda inklyuziv ta'limning nazariy asoslari mashhur olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, bolalar rivojlanishining ijtimoiy mohiyatini asoslab bergan konsepsiyalar inklyuziv ta'limning metodologik poydevorini tashkil etadi. Ushbu qarashlarga ko'ra, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi va to'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni orqali uning mavjud imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – har bir bolaning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish va uni jamiyatning faol a'zosiga aylantirish ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, pedagoglarning kasbiy kompetentligi, ota-onalar bilan hamkorlik, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda maxsus sharoitlarning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, individual yondashuv, tolerantlik, kommunikativlik va vaziyatboplik kabi tamoyillar inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki ularning psixologik barqarorligini ham ta'minlaydi. Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik



texnologiyalarni joriy etish, maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun qulay muhit yaratish va malakali kadrlar tayyorlash masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari, tamoyillari va rivojlanish omillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish, uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda samaradorligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar va omillarni asoslab berishdan iborat.

Inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari bugungi kunda ta'lim tizimining insonparvarlashuvi va demokratlashuvi jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Ushbu yo'nalishning bosh maqsadi – har bir bolaning, uning jismoniy yoki psixik holatidan qat'i nazar, teng huquqli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'lim shunchaki imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilish emas, balki ular uchun moslashtirilgan pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim mazmuni va metodikasining tubdan yangilinishini talab etadi.

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari bolalar rivojlanishining ijtimoiy mohiyatini ochib beruvchi ilmiy qarashlarga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bolaning rivojlanishi faqat biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli inklyuziv ta'lim tizimida bolaning mavjud imkoniyatlarini kengaytirish, uning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish ustuvor vazifa hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillaridan biri – gumanizm tamoyili bo'lib, u har bir bolaning shaxsiy qadriyatini e'tirof etish va uning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tamoyilga ko'ra, ta'lim jarayonida bolalarning kamchiliklari emas, balki ularning imkoniyatlari va ijobiy jihatlari markazga qo'yiladi. Gumanistik yondashuv o'quvchini faqat ta'lim obyekti sifatida emas, balki faol subyekt sifatida ko'rib, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va hissiy holatini inobatga olishni talab etadi. Shuningdek, inklyuziv ta'limda tolerantlik tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik – bu boshqacha bo'lganlikni qabul qilish, hurmat qilish va qadrlashni anglatadi. Mazkur tamoyil asosida tashkil etilgan ta'lim muhitida o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va ijobiy munosabatlar shakllanadi. Natijada imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy jihatdan faolroq bo'lib, jamiyatga moslashuv jarayoni osonlashadi.



Inklyuziv ta'limning muhim jihatlaridan yana biri – vaziyatboplik tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, ta'lim jarayoni har bir bolaning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. O'qituvchi dars jarayonida vaziyatga qarab metod va vositalarni tanlaydi, topshiriqlarni moslashtiradi hamda o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Bu esa bolalarning o'zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning ruhiy holatini ham ijobiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, kommunikativlik tamoyili inklyuziv ta'limda muhim o'rin tutadi. Ushbu tamoyil o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularning ijtimoiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Muloqot jarayonida bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishni, boshqalarni tinglashni va jamoada ishlashni o'rganadilar. Bu esa ularning ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Inklyuziv ta'limning samaradorligini ta'minlovchi omillar ham xilma-xil bo'lib, ular orasida oila bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Oila bolaning ilk ijtimoiy muhitidir va uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli pedagoglar ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlashi, ularga metodik va psixologik tavsiyalar berib borishi zarur. Bu hamkorlik bolaning ta'lim jarayoniga moslashuvini osonlashtiradi. Zamonaviy inklyuziv ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Raqamli vositalar yordamida o'quv materiallarini moslashtirish, vizual va interaktiv usullarni qo'llash imkoniyati kengayadi. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalarning bilimlarni osonroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, adaptiv muhit va resurslarning mavjudligi inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardandir. Maxsus jihozlar, moslashtirilgan o'quv dasturlari va qulay infratuzilma bolalarning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, malakali pedagog kadrlarning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar nafaqat bilimli, balki psixologik jihatdan tayyor, moslashuvchan va ijodkor bo'lishi lozim. Inklyuziv ta'lim – bu murakkab, ko'p qirrali tizim bo'lib, uning muvaffaqiyati turli tamoyillar va omillarning uyg'unligiga bog'liq. Mazkur tizim orqali nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha o'quvchilar uchun teng va adolatli ta'lim muhiti yaratiladi.

Inklyuziv ta'lim bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida shakllanib, uning insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishini, balki ularning jamiyatga



moslashuvi va ijtimoiylashuv jarayonini ham samarali tashkil etishga yordam beradi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati, avvalo, uning asosiy tamoyillariga – gumanizm, tolerantlik, vaziyatboplik va kommunikativlikka amal qilinishiga bog'liq. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning nafaqat akademik rivojlanishini, balki ularning ruhiy barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Ayniqsa, individual yondashuv va moslashuvchan pedagogik metodlarning qo'llanilishi har bir o'quvchining imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlashda oila va maktab hamkorligi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, adaptiv muhit va resurslarning mavjudligi, shuningdek, malakali pedagog kadrlarning tayyorlanishi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu omillar o'zaro uyg'unlashgan holda ta'lim sifatini oshiradi va barcha bolalar uchun qulay hamda xavfsiz ta'lim muhitini yaratadi. Inklyuziv ta'lim jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lib, uning izchil rivojlantirilishi kelajak avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim o'rin tutadi. Shu bois, inklyuziv ta'limni takomillashtirish, uni amaliyotga keng joriy etish va barcha darajalarda qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova va boshqalar, «Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot», darslik.
2. F.U.Qodirova va boshqalar, «Maxsus pedagogika asoslari», o'quv qo'llanma.
3. X.Sh.Yunusova, «Sensor integratsiya», darslik, Toshkent: Dimal nashriyoti, 2026-y., 142 b.
4. UNESCO, «Inclusive Education: The Way of the Future», Paris, 2020.
5. Florian, L., «The SAGE Handbook of Special Education», London: SAGE Publications, 2021.
6. Norwich, B., «Special Educational Needs, Inclusion and Diversity», Routledge, 2020.
7. Booth, T., Ainscow, M., «The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools», Bristol, 2016.
8. О.А. Козлова, «Инклюзивное образование: теория и практика», Москва: Просвещение, 2019.



ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHILARNING INKLYUZIV VA KREATIV YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH

K.A.KARIMOV,

*Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
«Inklyuziv ta'lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot»
bo'limi boshlig'i*

Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish hamda pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash texnologiyalari yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muhiti, uning pedagoglarga qo'yadigan talablari hamda inklyuziv pedagogik kompetensiyaning mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlilik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.*

This article discusses the technologies for implementing inclusive education in educational institutions and training teachers for inclusive education. It also analyzes the inclusive educational environment, its requirements for teachers, and the essence of inclusive pedagogical competence.

Key words: *inclusive education, children with special needs, healthy children, equality, opportunity, disability, specialist, teacher, law, development.*

Imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib, ularni maxsus yoki umumta'lim tizimida o'qitishni ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy kompetentligi bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchi inklyuziv bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi hamda ta'lim sifati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarur. Inklyuziv ta'limda maxsus ehtiyojli bolalar boshqa o'quvchilar bilan birgalikda, ularning qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim jarayoniga jalb etiladi. Maxsus ta'limda esa o'quvchilar ko'proq ularning jismoniy yoki aqliy holatiga qarab ajratiladi, inklyuziv ta'limda esa asosiy mezon – bolaning individual imkoniyatlaridir.

Inklyuziv ta'lim (fransuzcha inclusive – «shu jumladan») – bu umumiy ta'lim muassasalarida barcha bolalarning, ularning jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, birgalikda ta'lim olishini ta'minlaydigan tizimdir. Bunday yondashuv har bir bolaning jamiyatda teng huquqli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi hamda ijtimoiy ajralish va izolyatsiya xavfini kamaytiradi.



Inklyuziya alohida ta'limga muhtoj bolalarni ommaviy ta'lim muassasalariga jalb etishni nazarda tutadi. Bunda har bir bolaning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishini ta'minlash uchun barcha to'siqlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan yana biri – o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, bilim darajasi, qobiliyati va aqliy kamolotidagi farqlarni psixologik-pedagogik jihatdan to'g'ri aniqlashdir. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali ko'plab muammolarni samarali hal etish mumkin.

Maktab o'qituvchilari har bir o'quvchining qobiliyatini aniqlaydi, ularni muntazam pedagogik jihatdan o'rganadi, individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi hamda ota-onalarga tegishli tavsiyalar beradi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga metodik va psixologik yordam ko'rsatadi. O'qituvchi faoliyatining asosiy maqsadi – umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli o'quvchilarga samarali yordam ko'rsatishdir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim tizimidagi islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirish hamda kasbiy mahoratni rivojlantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv amaliyotni samarali tashkil etish o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri, bilim va ko'nikmalarining uyg'unligini talab etadi. Bu esa barcha o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash kompetentligini oshirish, zamonaviy didaktik vositalarni joriy etish, maxsus ta'lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlash hamda innovatsion o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'qituvchining asosiy vazifalari: har bir o'quvchining ehtiyojlarini aniqlash va unga mos pedagogik yordam ko'rsatish; o'quvchilar bilan individual ishlash va ularning rivojlanishini monitoring qilish; o'quv dasturlarini moslashtirish va baholash jarayonini takomillashtirish; pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; zarurat tug'ilganda o'quvchilarni mutaxassislariga yo'naltirish; individual ta'lim rejalari ishlab chiqishda ishtirok etish; mavjud resurslardan samarali foydalanish va ularni tizimlashtirish.

Inklyuziv ta'lim doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida interaktiv metodlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan: inklyuziv ta'lim metodologiyasini takomillashtirish; uzluksiz inklyuziv ta'lim monitoringini olib borish; xalqaro tajribani o'rganish va joriy etish; individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish; davlat ta'lim standartlarini moslashtirish va takomillashtirish.

Sifatli ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog kadrlar hal qiluvchi o'rin tutadi.



Ular har qanday jismoniy va psixologik holatdagi bolalarni tushunib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, sabr va mehr bilan yondashishi lozim. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning inklyuziv kompetentligini muntazam rivojlantirishni talab etadi. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bu yo'nalishdagi ishlarning muhim asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ядов В.А «Саморегуляция и прогнозирование социального поведения личности: диспозиционная концепция» второе расширенное издание. М. 2013
2. Болеев. Т.К. «Формирование готовности учителя к деятельности по профилактике аутоагрессии учащихся» автореферат. Тараз.2004
3. Ларионов О.А. «Профессионально-ориентированная иноязычная одготовка будущих специалистов нефтегазовой отрасли на основе интегративного подхода» автореферат. Казань 2017.
4. Середенко П.В. «Психолого-педагогическое исследование»: методология и методы. Южно-Сахалинск. 2010
5. Середенко П.В. «Подготовка учителя – исследователя в вузе»: УДК 378.018. 181-189 "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/ 2020 ISSN 2181-063X 219 <http://oac.dsmi-qf.uz>
6. Хитрюк В.В. «Формирование инклюзивной готовности будущих педагогов: Результативность дидактической модели» Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2015. Вып. 5. С. 112-120.
7. Выготский Л.С. «Проблема усталости» Москва 1956 йил
9. Л.Р.Муминова, Р.Шомахудова «Имконияти чекланган болаларни индивидуал коррекцион / ривожлантириш дастурининг методик асослари» услубий тавсиянома / «Раззоков О. Ж.» ХТ босмахонаси 2007й.
10. Усаров Ж.Э. Кобилова Ш.Х. Теоретические и концептуальные вопросы инклюзивного образования Интеграция науки, образования и практики. 2021. №2 Выпуск: 2181-1776. -Б. 37-45.
11. Кобилова, Ш. Х., Сафарова, Ф. А., & Ахророва, Г. У. (2022). Перспективные возможности внедрения инклюзивного образования в жизнь сообщества. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 441- 443.
12. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. «Intensive methods of teaching foreign languages at university». Вопросы науки и образования 27 (39) (2018): 78-80.
13. Ибраимов Х. И. Педагогические и психологические особенности обучения взрослых //Academy. - 2019. - №. 10 (49). - С. 39-41.



TARBIYAVIY JARAYONLARGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F.X.IBRAGIMOVA,
TDIU, p.f.d(DSc) dotsent

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida birinchi navbatda bo'lajak o'qituvchilarga tarbiya nazariyasi, tarbiya jarayoni, tarbiya prinsiplari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya metodlari, tarbiya psixologiyasi, tarbiyaviy muhit, tarbiyalanganlik darajasi, tarbiyalovchi ta'lim, tarbiyani tashkil etish shakllari haqidagi bilim va tasavvurlar hosil qilinadi. Shu maqsadda biz quyida ushbu tushunchalarni tavsifini berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy faoliyat, tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni, loyihalash, tarbiya nazariyasi, pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, pedagogik menenjment nazariyasi.

In the process of higher pedagogical education, first of all, future teachers are given knowledge and ideas about the theory of education, the process of education, the principles of education, the laws of education, the methods of education, the psychology of education, the educational environment, the level of education, educational education, and the forms of organizing education. For this purpose, we have tried to describe these concepts below.

Key words: *educational activity, educational process, the content of educational processes, design, theory of education, general foundations of pedagogy, theory of education, theory of pedagogical management.*

Bugungi kunda o'qituvchilarning kognitiv xarakterdagi innovatsion faoliyatni amalga oshirishi tarbiyaviy jarayonlarning sifatini ta'minlashga qo'yilayotgan talablar bilan pedagoglarning mazkur jarayonning aniq loyihalashtira olmasliklari orasida muayyan ziddiyatlar mavjud. Ayni paytda tarbiyaviy jarayonlarni sifatli tashkil etishga bo'lgan pedagogik ehtiyoj kuchaymoqda. Buning natijasida «tarbiyaviy faoliyat», «tarbiyaviy jarayon», «tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni», uni loyihalash, amalga oshirishga bo'lgan talablar ham ortmoqda.

Tarbiya nazariyasi – tarbiyaviy jarayonlarni nazariy jihatdan asoslashdan iborat bo'lgan qarashlar, yondashuvlarni ifodalovchi pedagogik xodisa.

Tarbiya nazariyasi ajdodlarimizning tarbiya sohasidagi boy, nazariy-empirik tajribasi va xalq pedagogikasi hamda xalqaro tajribalarga tayanadi. Tarbiya nazariyasini yaratish va boyitishda falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlariga oid nazariy yondashuvlarga asoslaniladi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, pedagogik menenjment nazariyasi bilan uzviy aloqadorlikda ish ko'radi.



Tarbiya jarayoni – shaxsni tarbiyalash, uni bilim olish, mehnat qilish, kasb-hunar egallashga undash va bu xatti-harakatni asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni ifodalovchi atama.

O‘quvchilar tarbiya jarayonida aqliy-intellektual, ma‘naviy-axloqiy, estetik, jismoniy jihatdan rivojlanadilar. O‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajalari ularning shaxsiy sifatleri va ijtimoiylashuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada ular shaxs sifatida shakllanib, ma‘naviy-axloqiy jihatdan rivojlanadilar va mikrosotsiumga moslashadilar. Samarali tashkil etilgan tarbiya jarayonlar o‘quvchilarning taraqqiyotini jadallashtiradi.

Tarbiyaviy jarayonlar muayyan prinsiplarga tayangan tashkil etiladi. Tarbiya prinsiplari – pedagoglarga tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni, maqsadi, uni tashkil etish mexanizmini ishlab chiqishga asos bo‘ladigan qoidalar majmuini ifodalovchi atama.

Tarbiya prinsiplariga tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash va tashkil etishda tayaniladi, u tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiya prinsiplari ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik meros hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan holda tanlanadi. Tarbiyaviy jarayonlarni muayyan prinsiplarga tayangan holda tashkil etish asosida uning samaradorligi ta‘minlanadi.

Tarbiya prinsiplari sirasiga quyidagilar kiradi: tarbiyaviy jarayonlarning maqsadga yo‘naltirilganligi, tarbiyaviy jarayonlarning insonparvarlik va demokratiyaga asoslanganligi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi, tarbiyaviy jarayonlarda o‘quvchilarning yosh va gender xususiyatlari, rivojlanish darajalari hamda shaxsiy imkoniyatlarining hisobga olinganligi, ta‘lim-tarbiyaning birligi va izchilligi kabilar.

Tarbiya jarayoni o‘ziga hos qonuniyatlarga tayanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashda ushbu qonuniyatlar aniq hisobga olinishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashda ularning tarbiyaviy ishlar, ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishlari va mazmuni bilan yaqindan tanishtirishga ham alohida e‘tibor qaratish talab qilinadi.

Mazkur yo‘nalishda olimlar o‘zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘qituvchining ijodkorligi va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishi samaradorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin egallaydi.



O'qituvchi kognitiv faoliyatining samaradorligini ta'minlashda ta'lim mazmuni ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, ta'lim mazmunini yangilash barobarida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati vujudga keladi.

Kognitiv xarakterdai innovatsion pedagogik jarayonlarning xususiyatlari, mazmuni, tarkibi hamda tasnifini aniqlash kognitiv faoliyat natijalarini har tomonlama chuqur tahlil qilishni toqazo qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash mahsuli bo'lgan yangi usullar, texnologiyalarni to'plash, har tomonlama chuqur tahlil qilish va ommalash-tirish bilan bog'liq bir qator muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: «O'zbekiston» - 2017 y. 295 - 297 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. - T.: O'qituvchi MU MCHJ, 2021. 7 b.
3. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.
4. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023. 392-bet.
5. Ota-ona - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
6. X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. - 60 b.
7. X.Ibraimov va boshqalar. Go'zal hulq modellari. - Toshkent.: «Ilm ziyo zakovat» nashriyoti. -2025 y. 80-b.
8. X.Ibraimov va boshqalar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA INFORMATIKA TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING AMALIY TAHLILI

E.X.XIMMATOV,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya Pedagogikasi
Milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanini tashkil etishning xorijiy tajribalari va milliy amaliyot holati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida informatika fanining o'qitilish modeli, o'quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mexanizmlar o'rganildi. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida informatika ta'limining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilindi. Taqqoslama tahlil natijasida xorijiy ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi hamda informatika ta'limini takomillash-tirish bo'yicha amaliy tavsiyalar masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: informatika ta'limi, umumiy o'rta ta'lim, xorijiy tajriba, milliy amaliyot, raqamli kompetensiya, o'quv dasturi, pedagogik texnologiyalar, ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, innovatsion yondashuv, taqqoslama tahlil, STEAM ta'limi, raqamlashtirish, didaktik ta'minot, ta'lim samaradorligi.

This article provides a comprehensive analysis of foreign experiences and the current state of national practice in organizing the teaching of informatics in general secondary education schools. In the course of the research, the models of teaching informatics in the education systems of developed countries, curricula, pedagogical approaches, and mechanisms aimed at developing digital competencies were studied. The current condition of informatics education in the general secondary education system of Uzbekistan, existing challenges, and ways to address them were scientifically analyzed. Based on a comparative analysis, priority directions for adapting advanced foreign practices to the national education system were identified, and practical recommendations for improving informatics education were presented.

Key words: informatics education, general secondary education, foreign experience, national practice, digital competence, curriculum, pedagogical technologies, education system, information technologies, innovative approach, comparative analysis, STEAM education, digitalization, didactic support, educational effectiveness.

В данной статье представлен комплексный анализ зарубежного опыта и современного состояния национальной практики организации преподавания информатики в общеобразовательных школах. В ходе исследования изучены модели преподавания информатики в образовательных системах развитых стран, учебные программы, педагогические подходы, а также механизмы формирования цифровых компетенций. Проанализировано текущее состояние преподавания информатики в системе общего среднего образования Узбекистана, выявлены существующие проблемы и научно обоснованы пути их решения. На основе сравнительного



анализа определены приоритетные направления адаптации передового зарубежного опыта к национальной системе образования, а также представлены практические рекомендации по совершенствованию преподавания информатики.

Ключевые слова: информатическое образование, общее среднее образование, зарубежный опыт, национальная практика, цифровая компетенция, учебная программа, педагогические технологии, система образования, информационные технологии, инновационный подход, сравнительный анализ, STEAM-образование, цифровизация, дидактическое обеспечение, эффективность образования.

O'zbekiston Respublikasida mazkur yo'nalishda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishning konseptual asoslarini belgilab berdi [1]. Ushbu hujjat asosida ta'lim mazmunini yangilash, o'quv jarayonini raqamlashtirish va pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

PF-5313-son Farmon umumiy o'rta ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qilib, unda ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash, kompyuterlashtirish darajasini oshirish va elektron ta'lim resurslarini joriy etish muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirishga qaratilgan PF-5099 va PF-5349-son Farmonlari esa raqamli infratuzilmani kengaytirish, AKTni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qildi [2].

Keyingi bosqichda «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi qabul qilinib, unda ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, elektron ta'lim platformalarini yaratish va masofaviy ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi [3]. Shu bilan birga, PF-6079-son Farmon asosida ta'lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda informatika va axborot texnologiyalari fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish masalalari keng yoritildi.

Milliy amaliyotda ushbu yo'nalishlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda elektron darsliklar, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar hamda mobil ilovalardan foydalanish kengayib bormoqda. Ayniqsa, 5-7-sinflarda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda interaktiv metodlar asosida darslarni tashkil etish samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, informatika ta'limini zamonaviy asosda tashkil etish, ayniqsa elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish hozirgi davrning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, 5-7-sinflarda informatika darslarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning metodik asoslarini chuqur tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.



Respublikamizda axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari bo'yicha A.A. Abduqodirov o'z tadqiqotlarida masofaviy o'qitish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi rolini asoslab bergan. Shuningdek, A.A. Aripov va hamkorlar tomonidan ishlab chiqilgan «Informatika va axborot texnologiyalari» darsligida zamonaviy AKT vositalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishning metodik asoslari yoritilgan bo'lib, bu ishlar bugungi kunda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. N.I. Taylakov tomonidan yaratilgan uzluksiz ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan o'quv-metodik majmualar informatika fanini bosqichma-bosqich o'qitish, ayniqsa 5-7-sinflarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribani tahlil qiladigan bo'lsak, AQSH, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlarida informatika ta'limi raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va adaptiv o'qitish tizimlari asosida tashkil etilmoqda. Bu esa o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 5-7-sinflarda informatika darslarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish nafaqat zamonaviy pedagogik talab, balki ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli ushbu yo'nalishda metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida informatika fanini o'qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada N.I. Taylakov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, u uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatika fanidan yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuv ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash hamda o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limda informatika fanini o'qitish muammolari yuzasidan bir qator mahalliy olimlar ham muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, D. Kamaliddinova, B. Boltayev hamda N.I. Taylakov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda informatika fanining mazmunini yosh xususiyatlariga mos holda shakllantirish, o'quvchilarda dastlabki algoritmik fikrlashni rivojlantirish hamda raqamli savodxonlikni oshirish masalalari ilmiy asoslangan.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda «computing» tushunchasi ta'limning mustaqil sohasi sifatida talqin qilinib, u uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- Informatika (Computer Science – CS) – algoritmlar, dasturlash va hisoblash jarayonlarini o'rganish;

- Axborot texnologiyalari (Information Technology – IT) – kompyuter tizimlari va dasturiy vositalardan amaliy foydalanish;

- Raqamli savodxonlik (Digital Literacy – DL) – axborot bilan xavfsiz, tanqidiy va samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.



Ushbu uch yo'nalish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantiradi. Ayniqsa, 5-7-sinflarda ushbu yo'nalishlarning integratsiyasi o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va kreativ yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish informatika fanini o'qitish jarayonini modernizatsiya qilishda muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi va ta'lim samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar bu masalaga boshqacha nuqtai nazardan qaraydi. Xususan, 5-7-sinf o'quvchilarida dasturlashga kirishishdan oldin elementar kognitiv operatsiyalarni aniqlash, mantiqiy fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda hisoblash tafakkurini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Bu jarayonda turli darajadagi murakkablikka ega bo'lgan topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni ketma-ketlik asosida o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Propedevtik ta'limni faqat hisoblash tafakkurini shakllantirish bilan cheklash yetarli emas. Chunki bunday yondashuv «computing education»ning faqat bir yo'nalishini, ya'ni informatika (CS) komponentini qamrab oladi xolos. Holbuki, zamonaviy raqamli jamiyatda o'quvchi nafaqat dasturlash asoslarini, balki axborot texnologiyalaridan amaliy foydalanish va raqamli muhitda xavfsiz hamda samarali faoliyat yuritish kompetensiyalarini ham egallashi lozim. Shu sababli, faqat propedevtik dasturlash yondashuviga asoslangan ta'lim modeli bugungi kunda yetarli emas deb hisoblanadi. U o'quvchilarning raqamli dunyoda to'liq moslashuvi va faol ishtirokini cheklab qo'yishi mumkin. Ayniqsa, 5-7-sinflar bosqichida elektron ta'lim resurslari, interaktiv platformalar va mobil ilovalar asosida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash o'quvchilarda keng qamrovli raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, xususan informatika faniga oid bilim, malaka va ko'nikmalarni erta bosqichdan shakllantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida informatika faqat alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlar bilan integratsiyalashgan raqamli savodxonlik va hisoblash tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Xususan, Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda informatika va raqamli texnologiyalarni o'qitish 1-sinfdan boshlab joriy etilgan bo'lib, bu jarayon o'quvchilarda erta yoshdan algoritmik fikrlash va raqamli muhitga moslashish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu mamlakatlarda ta'lim jarayoni yuqori darajada raqamlashtirilgan bo'lib, elektron ta'lim resurslari, interaktiv platformalar va adaptiv o'qitish tizimlari keng qo'llaniladi.



AQSH, Gonkong, Belgiya, Chex Respublikasi va Slovakiya kabi davlatlarda informatika ta'limi odatda 3-sinfдан boshlab o'qitiladi. Bu bosqichda o'quvchilar nafaqat kompyuter bilan ishlash asoslarini, balki dasturlashga kirishish elementlari, mantiqiy fikrlash va muammolarni algoritmik hal etish ko'nikmalarini ham egallay boshlaydilar.

MDH davlatlari tajribasida esa, xususan Rossiya, Qozog'iston va Belarusda informatika fani 4-sinfдан boshlab o'qitiladi. Ushbu tizimda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich raqamli savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Mazkur holatlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ta'lim tizimlarida informatika fanini erta bosqichdan o'qitish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida zamonaviy texnika vositalari, xususan kompyuter texnologiyalari va elektron ta'lim resurslarini keng joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xorijiy mamlakatlarda boshlang'ich informatika ta'limi bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlari va darsliklar ham zamonaviy yondashuvlarga asoslangan. Masalan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida Bauer S.L. va G. Gooz tomonidan ishlab chiqilgan boshlang'ich informatika kursi o'quvchilarda hisoblash tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi amaliy topshiriqlar tizimiga asoslanadi.

AQSH ta'lim tizimida esa M. Broy tomonidan ishlab chiqilgan ko'p bosqichli informatika kurslari o'quvchilarga kompyuter tizimlari, dasturlash asoslari va axborot bilan ishlashning amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlarda elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv o'quv platformalaridan keng foydalaniladi. Mazkur tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarda informatika ta'limi mazmuni va metodikasi zamonaviy raqamli jamiyat talablariga mos ravishda shakllantirilgan bo'lib, unda elektron ta'lim resurslari markaziy o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan «Informatika va axborot texnologiyalari» faniga oid darsliklar va o'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lum darajada farq qiladi. Xususan, milliy dasturlarda raqamli kompetensiyalarni erta bosqichdan tizimli shakllantirish, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish va interaktiv metodlarni joriy etish darajasi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Respublikamiz umumta'lim maktablarida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining o'quv dasturini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, uni xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish hamda 5-7-sinflar uchun elektron ta'lim resurslariga asoslangan metodik tizimni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Xorijiy ta'lim tizimlarida informatika fanini erta bosqichdan o'qitish tendensiyasi ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan. Bu yondashuv o'quvchilarda



algoritmik fikrlash, muammoni bosqichma-bosqich yechish va raqamli vositalardan ongli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayrim davlatlarda raqamli savodxonlik alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitiladi, bu esa fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida raqamli muhitdan foydalanish faqat texnik vosita sifatida emas, balki didaktik tizim sifatida qaraladi. Ya'ni elektron resurslar o'qitish mazmunini boyitish bilan birga, o'quvchining mustaqil o'rganish faoliyatini boshqaruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz ta'limga moslashish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmon, PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral. - Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon, PF-5349-son, 2018-yil 19-fevral. - Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon. - Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (2022-2026-yillar)»gi Farmon, PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar. - Toshkent.
5. Castells M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture. Volume I. - 2nd ed. - Oxford: Blackwell Publishing, 2010. - 597 p.
6. Jonassen D.H. Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking. - 2nd ed. - Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2000. - 310 p.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.*

*«Uzluksiz ta'lim» jurnali O'zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar
ro'yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to'liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.

